

YANGI O'ZBEKISTON: ILMYIY TADQIQOTLAR

CONFERENCES.UZ 2026

DAVRIYLIGI: 2018-2026



Карл Бенц
1885 год
Германия

Мощность:
0,9 л.с.

BIRINCHI BENZ AVTOMOBILI

Вид топлива:
бензин

Масса:
265 кг


Двигатель:
0,954 L



Тип кузова:
мотоколяска
без дверей
Число мест - 2

Компоновка:
переднемоторная,
заднеприводная

Колёсная
формула:
4x2



Высота:
1400 мм

Длина: 2400 мм



TOSHKENT SHAHAR, AMIR
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81
+998 94 404 00 00



WWW.TADIQOT.UZ
WWW.CONFERENCES.UZ



MART №86



**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
1-ҚИСМ**

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:
НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
ЧАСТЬ-1**

**NEW UZBEKISTAN:
SCIENTIFIC RESEARCH
PART-1**

ТОШКЕНТ-2026



УЎК 323(575.1)(063)

КБК 66.3(5Ў)я43

И-18

DOI 10.5281/zenodo.11390854

«ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: Илмий тадқиқотлар» [Тошкент; 2026]

«Янги Ўзбекистон: Илмий тадқиқотлар» мавзусидаги республика 86-қўп тармоқли илмий маърифий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2026 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2026. – 130 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Харакатлар стратегияси — Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган етти устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ: — илмий изланиш ютуқларини амалий-тажриби жиҳат йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талабалар-иштирокчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилиб бориб, унда таълим тизимида илғор замонавий ёндашувлар, натижалар, муаммолар, ечимлар, статистик вазиятлар ва илмий-тараққиётнинг истиқболли режалари таҳлил қилинади конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонови, ю.ф.д., доцент

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши -

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар -

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар –

Исмаилов Хусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни-

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви-

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети "Беш муҳим ташаббус" маркази раҳбари)

6. Журналистика-

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар –

Самигова Умида Хамидуллаевна ("Kinder land of Asia" НТМ ўқув ва тарбия ишлари бўйича директор ўринбосари)



8. Адабиёт-

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9. Иқтисодиётда инновацияларнинг туган ўрни -

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10. Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар -

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

11. Жисмоний тарбия ва спорт-

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12. Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши -

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13. Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши -

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14. Тасвирий санъат ва дизайн-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15. Муסיқа ва ҳаёт-

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16. Техника ва технология соҳасидаги инновациялар -

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17. Физика-математика фанлари ютуқлари -

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18. Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар –

Зупарова Зулфия Ахрор қизи DSc (Тошкент тиббиёт академияси фармакология кафедраси доценти, фармацевтика фанлари доктори)

19. Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович DSc (Альфраганус университети, фармацевтика ва кимё кафедраси мудири, фармацевтика ва кимё фанлар доктори, профессор)

20. Ветеринария

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

21. Кимё фанлари ютуқлари -

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)

22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар -

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиши йўналишлари -

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Хамидович "ТИИМСХ"

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар -



Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти)

25.География- Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпلامга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

Page maker/Верстка/Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакцији журнала.

www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:

info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of

www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail:

info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000



ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

G'ARB DAVLATLARI TOMONIDAN JORIY ETILGAN SANKSIYA
REJIMLARI VA O'ZBEKISTONNING ULARGA NISBATAN
INSTITUTIONAL YONDASHUVI: XALQARO-HUQUQIY VA TANQIDIY
TAHLIL

Djalalov Shamshod Dilshodovich

Erkin izlanuvchi

“Asakabank” AJ Sanskisiyalar bilan ishlash boshqarmasi boshlig'i,

shamshoddjalalov@gmail.com

Mirsadikov Mirjamshid Mirsaidovich

Erkin izlanuvchi

“Asakabank” AJ AML/CFT bo'yicha ekspert,

mirjamshid0808@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisda G'arb davlatlari tomonidan joriy etilayotgan moliyaviy sanksiya rejimlarining huquqiy tabiati, ularning ekstraterritorial mexanizmlari hamda global moliyaviy tizimga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot O'zbekiston Respublikasining sanksiya rejimlariga nisbatan institutsional yondashuvini normativ majburiyat va moliyaviy risklarni boshqarish o'rtasidagi muvozanat modeli sifatida asoslaydi. Xulosa sifatida, O'zbekiston G'arb sanksiyalariga formal jihatdan majbur bo'lmasa-da, global moliyaviy integratsiya sharoitida bank tizimi darajasida de facto moslashuv mexanizmlarini shakllantirayotgani ilmiy asoslanadi.

Abstract: This thesis examines the legal nature of Western financial sanctions regimes and their extraterritorial mechanisms, as well as their impact on the global financial system. Within the framework of primary and secondary sanctions, the study analyzes Uzbekistan's institutional approach toward Western sanctions regimes. The paper argues that Uzbekistan's position can be characterized as a balance between normative non-obligation and financial risk management. Although Uzbekistan is not formally bound by unilateral Western sanctions, increasing integration into the global financial architecture leads to the emergence of de facto compliance mechanisms at the level of the national banking system. The study concludes that Uzbekistan's approach reflects institutional pragmatism aimed at preserving financial stability while maintaining sovereign neutrality.

Kalit so'zlar: xalqaro sanksiyalar, ekstraterritoriallik, ikkilamchi sanksiyalar, moliyaviy risk, compliance, institutsional moslashuv, geosiyosiy beqarorlik.

Keywords: international sanctions, financial sanctions, primary sanctions, secondary sanctions, extraterritoriality, institutional approach, compliance, financial risk, banking system, geopolitical instability.

So'nggi o'n yillikda iqtisodiy sanksiyalar xalqaro siyosatning epizodik vositasidan global boshqaruv mexanizmining markaziy elementiga aylandi. Drezner



sanksiyalarni “geosiyosiy bosimning iqtisodiylashuvi” deb tavsiflaydi [1]. Hufbauer va boshqalar esa sanksiyalar samaradorligi ularning ko‘lami va moliyaviy tizimga integratsiyalashuv darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi [2].

Zamonaviy bosqichda moliyaviy infratuzilmaning markazlashuvi sanksiyalar samaradorligini oshirdi. Farrell va Newman tomonidan ilgari surilgan “weaponized interdependence” nazariyasiga ko‘ra, global tarmoqlarning markaziy tugunlarini nazorat qiluvchi davlatlar moliyaviy oqimlarni siyosiy bosim vositasiga aylantira oladi [3].

Mazkur jarayon rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston uchun muhim savolni yuzaga keltiradi: G‘arb sanksiyalariga nisbatan qanday institutsional yondashuv tanlanmoqda va bu yondashuv qaysi omillar bilan belgilanadi?

Sanksiya rejimlarining huquqiy klassifikatsiyasi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda sanksiyalar turli huquqiy asoslar va qo‘llanish mexanizmlariga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri tasniflash davlatlarning ularga nisbatan majburiyat doirasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanksiya rejimlarining huquqiy tabiati ularning majburiylik darajasi, yurisdiksiyaviy qamrovi hamda ekstraterritorial ta’sir mexanizmlari bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, xalqaro amaliyotda sanksiyalarni quyidagi asosiy toifalarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Multilateral sanksiyalar

BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan BMT Nizomining VII bobi asosida qabul qilingan sanksiyalar xalqaro huquqiy majburiyatga ega bo‘lib, barcha a’zo davlatlar uchun majburiy hisoblanadi [4]. Mazkur sanksiyalar xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta’minlash maqsadida joriy etiladi hamda davlatlar ularni milliy qonunchilik darajasida implementatsiya qilishlari shart.

O‘zbekiston Respublikasi BMT a’zosi sifatida ushbu sanksiya rejimlariga rioya etadi va ularni milliy mexanizmlar orqali amalga oshiradi.

2. Unilateral sanksiyalar

Bir tomonlama sanksiyalar alohida davlat yoki davlatlar guruhi tomonidan mustaqil ravishda joriy etiladi va ular xalqaro-huquqiy majburiy kuchga ega bo‘lmagan holda qo‘llaniladi. Bunday sanksiyalar milliy qonunchilik asosida amalga oshiriladi hamda asosan moliyaviy, savdo va aktivlarni muzlatish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi.

AQSh sanksiyalari Office of Foreign Assets Control tomonidan boshqariladi va ular global moliyaviy tizimda AQSh dollarining ustuvorligi sababli keng ekstraterritorial ta’sir kuchiga ega.

Yevropa Ittifoqi doirasidagi cheklov choralari European Union Kengashi tomonidan qabul qilinadi va a’zo davlatlar hududida majburiy hisoblanadi.

Brexitdan so‘ng Buyuk Britaniya mustaqil sanksiya siyosatini shakllantirdi. Ushbu rejim HM Treasury va Office of Financial Sanctions Implementation tomonidan amalga oshiriladi. Buyuk Britaniya sanksiyalari ham moliyaviy aktivlarni muzlatish, savdo cheklovlari va shaxsiy restriktiv choralarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur unilateral sanksiyalar uchinchi davlatlar uchun xalqaro-huquqiy majburiyat tug‘dirmaydi. Biroq ularning ekstraterritorial mexanizmlari, ayniqsa



ikkilamchi sanksiyalar instituti orqali, global moliyaviy tizimga integratsiyalashgan davlatlar uchun amaliy risk omiliga aylanadi [5].

3. Ekstraterritoriallik va ikkilamchi sanksiyalar fenomeni

Ikkilamchi sanksiyalar uchinchi davlat subyektlari bilan sanksiya ostidagi shaxslar o'rtasidagi operatsiyalarni jazolash mexanizmini nazarda tutadi. Bu mexanizm global moliyaviy tizimning dollarga bog'liqligi bilan mustahkamlanadi. IMF tadqiqotlariga ko'ra, dollarning xalqaro to'lovlardagi ulushi 40–50 foizdan ortiq bo'lib qolmoqda [6]. Bu esa AQSh moliyaviy yurisdiksiyasining global ta'sirini kuchaytiradi.

Natijada sanksiyalar formal huquqiy majburiyatdan tashqari, moliyaviy izolyatsiya xavfi orqali amaliy bosim mexanizmiga aylanadi.

O'zbekistonning institutsional yondashuvi.

O'zbekiston rasmiy ravishda BMT sanksiyalariga amal qiladi. AQSh, Buyuk Britaniya va Yevropa Ittifoqi sanksiyalariga esa milliy qonunchilik doirasida bevosita majburiyat mavjud emas. Shunga qaramay, bank amaliyotiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- xorijiy banklar bilan vakillik (correspondent banking) munosabatlari;
- xalqaro kliring tizimlariga kirish imkoniyati;
- reputatsiyaviy risklar;
- ikkilamchi sanksiyalar xavfi.

Natijada “de jure majburiyat – de facto moslashuv” modeli shakllanadi. Bu model institutsional pragmatizmni aks ettiradi: suveren neytrallik saqlanadi, biroq moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida riskka asoslangan yondashuv qo'llaniladi.

Tanqidiy baho. Haddan tashqari moslashuv (over-compliance) savdo oqimlarini qisqartirishi va iqtisodiy faollikni susaytirishi mumkin. Ayrim tadqiqotlarda sanksiyalar rivojlanayotgan davlatlar uchun moliyaviy fragmentatsiyani kuchaytirishi ko'rsatilgan [7]. Shu bilan birga, sanksiyalarni e'tiborsiz qoldirish ikkilamchi sanksiyalar xavfini oshiradi.

Demak, O'zbekiston oldida ikki tomonlama risk mavjud:

- (1) ortiqcha ehtiyotkorlik tufayli iqtisodiy yo'qotish;
- (2) yetarlicha moslashmaslik tufayli moliyaviy izolyatsiya.

Demak, optimal strategiya – riskka asoslangan, proporsional va differensial komplayens yondashuvdan iborat bo'lishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston G'arb sanksiyalariga nisbatan normativ majburiyat asosida emas, balki global moliyaviy integratsiya sharoitida moliyaviy barqarorlikni saqlash zarurati asosida yondashmoqda. Sanksiyalar ekstraterritorial mexanizmlar orqali de facto ta'sir ko'rsatadi va milliy bank tizimini institutsional moslashuvga undaydi.

Kelgusida muvozanatli komplayens siyosati, risklarni tizimli baholash va institutsional koordinatsiyani kuchaytirish O'zbekiston bank tizimi barqarorligining asosiy sharti bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Drezner, D. The Sanctions Paradox. Cambridge University Press, 1999.



2. Hufbauer, G., Schott, J., Elliott, K. Economic Sanctions Reconsidered. Peterson Institute, 2007.
3. Farrell, H., Newman, A. Weaponized Interdependence. International Security, 2019.
4. United Nations Charter, Chapter VII.
5. OFAC. Sanctions Programs and Information. U.S. Treasury.
6. IMF. Currency Composition of Official Foreign Exchange Reserves (COFER) Reports.
7. IMF Working Paper: The Impact of Sanctions on Financial Stability.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HUQUQIY NIGILIZMNI BARTARAF ETISHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti
Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası professori, f.f.d. (DSc)

Email: bekiuz0302@yahoo.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy nigilizm tushunchasi, uning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri hamda uni kamaytirishning huquqiy mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinib, ushbu sohadagi islohotlarning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy nigilizm, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, qonun ustuvorligi, Konstitutsiya, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy tarbiya

Bugungi kunda O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida huquqiy nigilizmni bartaraf etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartlaridan biri fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy targ‘ibot va tashviqot ishlarini izchil hamda uzluksiz amalga oshirishdan iboratdir. Shu bois mamlakatimizda aholi, ayniqsa yosh avlodning huquqiy bilimlari va huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Yoshlarning yuksak ma’naviyatli, huquqiy jihatdan savodli hamda ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarning yaratilishi, shuningdek ularning huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi mustahkam huquqiy asoslarning shakllantirilishi jamiyatda huquqiy nigilizmning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli O‘zbekistonda huquqiy nigilizmni bartaraf etish fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish, huquqiy ta’lim va tarbiya tizimini takomillashtirish hamda jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini mustahkamlashga qaratilgan izchil islohotlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Huquqiy nigilizmni kamaytirish orqali qonun ustuvorligini ta’minlash va huquqiy davlatni mustahkamlash imkoniyati kengayadi.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, e’lon qilish, ularning yagona reyestrini yuritish hamda tizimlashtirish borasida muayyan tajriba shakllangan. Shuningdek, qonun ijodkorligi jarayonini tartibga soluvchi va qonun hujjatlarining sifatini oshirishga qaratilgan mustahkam normativ-huquqiy baza yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari



hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar [1]. Shu sababli, ichki ishlar idoralari faoliyatiga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri ham qonuniylikka to‘liq amal qilish hisoblanadi. Chunki, xizmat vazifasi huquq-tartibotni, fuqarolarning qonuniylikka amal qilishini ta‘minlash va nazorat qilish bo‘lgan ichki ishlar idoralari xodimlarning o‘zlari avvalo o‘z faoliyatida qonuniylikka amal qilishlari, bu borada fuqarolarga o‘rnak bo‘lishlari zarur.

Huquqiy nigilizmni bartaraf etishning konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmi bir qator funksiyalar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, maqsadni belgilash, tartibga soluvchi hamda muhofaza qiluvchi funksiyalar shular jumlasidandir [2].

O‘zbekistonda bugungi kunda adolat, Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligining belgilab qo‘yilishi va uning ijobiy jihatlari haqida uzoq so‘z yuritish mumkin. Biroq adolat, Konstitutsiya va qonunlar ustuvorligining belgilab qo‘yilishining o‘zi yetarli emas. Chunki, hamma davrlarda va davlatlarda qonunlarning buzilishi, ularga rioya etmaslik va adolatsizlikka intiluvchi salbiy kuchlar mavjud bo‘lgan. Qabul qilingan qonunlarning bajarilishini ta‘minlash, huquqbuzarliklarga qarshi kurash har bir davlatning asosiy ichki funksiyalaridan biri hisoblanadi.

Albatta, mustaqillik yillarida boshqaruvning yangi siyosiy tizimi yaratildi, hozirgi paytda uni takomillashtirish bosqichi ketmoqda. Biroq jahonda va respublikamizda yuz berayotgan voqealar sur‘ati juda tez. Insoniyat ongi va shuurining o‘zgarishi esa voqea va hodisalar tezligidan ortda qolmoqda. Bunday sharoitda inson ongini jahondagi yangi borliqqa adekvat tarzda o‘zgartirish yangi zamon talabiga aylandi.

Jamiyat taraqqiyoti ko‘p jihatdan huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksak bo‘lgan shaxslar faoliyati bilan belgilanadi. Shu bois jamiyatni demokratlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bilan bir qatorda huquqiy tarbiya masalalariga ham alohida e‘tibor qaratish zarur. O‘zbekiston Respublikasida huquqiy nigilizmni bartaraf etish hamda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish sohasida qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi PF-1791-sonli Farmoni [3] mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish jarayonida muhim normativ-huquqiy asoslardan biri bo‘lib xizmat qildi. Mazkur farmon huquqiy demokratik davlat barpo etish, qonunchilikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat qaror topishini ta‘minlashga xizmat qildi. Shuningdek, unda ma‘naviy hamda madaniy rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi, amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish, aholining huquqiy bilim va huquqiy ongini yuksaltirish, jamiyatning siyosiy faolligini oshirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda jamoatchilik fikrini o‘rganish sohasidagi ishlarni yanada rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi 466-I-sonli qarori [4] mustaqillikning dastlabki yillarida jamiyatda huquqiy madaniyatni



shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan muhim normativ-huquqiy hujjatlardan biri bo'ldi. Mazkur qaror jamiyatda huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya tizimini takomillashtirish, davlat organlari, mansabdor shaxslar hamda fuqarolarning qonun va huquqqa hurmat ruhida munosabatda bo'lishini ta'minlash, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, shuningdek fuqarolarning ijtimoiy-huquqiy faolligini kuchaytirishga qaratilgan davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida ijtimoiy yo'naltirilgan demokratik huquqiy davlatni barpo etish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli, bosqichma-bosqich va tizimli islohotlar amalga oshirildi. Ushbu jarayonda tub siyosiy, iqtisodiy va huquqiy islohotlarni amalga oshirish, faol ijtimoiy siyosat yuritish, jamiyatni har tomonlama demokratlashtirish hamda uning ma'naviy-ma'rifiy sohalarini yangilash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu bilan birga, siyosiy va huquqiy tafakkurni shakllantirishning muhim nazariy hamda amaliy muammolarini hal etishda ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarning ahamiyatini oshirish va ularning rolini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Keyingi yillarda ham mazkur yo'nalishda muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PF-5618-son Farmoni jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish tizimini tubdan takomillashtirishga qaratilgan muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur farmon aholining huquqiy bilimlarini oshirish, huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirish, shuningdek yoshlar ongiga huquqiy qadriyatlar va qonunga hurmat ruhini singdirish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi [5].

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 342-sonli qarori ham mazkur sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi [6]. Ushbu qaror jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni monitoring qilish va ularning samaradorligini baholash tizimini joriy etishga xizmat qildi.

Mazkur tizimning asosiy maqsadi aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan huquqiy targ'ibot tadbirlarining samaradorligini oshirish, bu borada davlat organlari va tashkilotlarning mas'uliyatini kuchaytirish, shuningdek huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etishda zamonaviy hamda innovatsion uslublarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda "Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4551-sonli qarori [7] ham mazkur yo'nalishdagi islohotlarni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Mazkur qaror amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, qonun ustuvorligini so'zsiz



ta'minlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, shuningdek fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish hamda bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining faol ishtirokini kengaytirishga qaratilgan muhim vazifalarni belgilab berdi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish masalalari ham davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2020-yil 18-maydagi "Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to'g'risida"gi 274-IV-sonli qarori [8] ham ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur qaror yoshlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o'rni hamda ta'sirini amalda ta'minlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlash, zamonaviy dunyoqarash, bilim va ko'nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalash, shuningdek ularning demokratik bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi faoliyatini tashkil etish, shuningdek aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 678-son qarori [9] ham mazkur yo'nalishdagi institutsional mexanizmlarni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzurida davlat muassasasi shaklida "Adolat" milliy huquqiy axborot markazi tashkil etildi. Markazning asosiy vazifalari qatoriga O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasini shakllantirish va yuritish, undan jismoniy hamda yuridik shaxslarning belgilangan tartibda foydalanishini ta'minlash, shuningdek ushbu milliy bazada normativ-huquqiy hujjatlarning rasmiy e'lon qilinishini, ularning turkumlashtirilgan hisobini yuritish hamda nazorat nusxalarini elektron shaklda saqlashni tashkil etish kiritilgan.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy nigilizmni bartaraf etish O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlatni barpo etish hamda kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shuningdek huquqiy ta'lim va tarbiya tizimini izchil takomillashtirish orqali huquqiy nigilizmning oldini olish mumkin. Shu bois mamlakatimizda mazkur yo'nalishda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar hamda amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, huquqiy targ'ibot ishlarini yanada kengaytirish, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish, davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash huquqiy nigilizmni kamaytirish va jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023. – B.7.
2. Утарбеков Ш.Г. Конституционно-правовой механизм преодоления правового нигилизма в Российской Федерации. диссер. кандидат юридических наук. -Челябинск, 2011. –с.203.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 25-iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi PF-1791-sonli Farmoni //https://lex.uz/en/docs/-226874?query=264
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi to‘g‘risida”gi 466-I-sonli qarori//https://lex.uz/ru/docs/-249352
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618-sonli Farmoni //https://lex.uz/ru/docs/-4149765
6. Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha tadbirlarni monitoring qilish va baholash to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 342-sonli qarori//https://lex.uz/ru/docs/-4300837
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4551-sonli qarori// https://lex.uz/docs/-4647329
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2020 yil 18-maydagi “Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan vazifalar ijrosi ustidan ta’sirchan parlament nazoratini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 274-IV-sonli qarori// https://lex.uz/docs/-5175351
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 30-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi faoliyatini tashkil etish, shuningdek aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 678-son qarori//https://lex.uz/docs/-5075466



СУДЬЯ МАҚОМИНИНГ ЁХУД ҲУҚУҚЛАРИНИНГ УСТУВОРЛИГИ ТЎҒРИСИДА

Мамаюсупов Марс Нурмаметович
Термиз туманлараро иқтисодий суди
судьяси, PhD,

Аннотация: Судья мақомининг ёхуд унинг ҳуқуқлари устуворлиги бу – бир тизим бўлиб, унга кўра судьянинг шахси ҳам жисмонан ҳам маънан, ташқи ва соҳавий таъсирлардан, турар жойи, хизмат хонаси, у фойдаланадиган транспорт воситаси (у хоҳ хизмат ёки шахсий воситаси бўлишидан қатъий назар) ва алоқа воситалари (телефон, факс ва бошқа алоқа воситалари), хат-хабарлари, унга тегишли ашёлар ва ҳужжатларнинг қонунларга мувофиқ ҳимояланганлик ҳолати ўрганилган.

Калит сўзлар: Конституция, судья, мақом, ҳуқуқ, мустақиллик, дахлсизлик, устуворлик.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари, уларни таъминлаш ҳар қандай давлатнинг ҳамда унинг қонунчилигининг асоси бўлиб келган. Инсоннинг асосий ҳуқуқларидан, табиий ҳуқуқларидан бири бу шахсий дахлсизлик ҳуқуқи бўлиб, инсон ҳуқуқлари тизимида марказий ўринлардан бирини эгаллайди.

Судья мақомининг ёхуд ҳуқуқларининг устуворлиги масаласи ҳуқуқ соҳасида янги институт бўлиб, унинг асосида судьянинг мустақиллиги, дахлсизлиги, одоби, таъминоти, судьялик касбига қўйилган юксак талаблар, одил судловни амалга ошириш кабилар ётади.

“Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларация”сининг 3 - моддасида “ҳар бир инсон яшаш, эркин бўлиш ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқларига эгаллиги”, 12-моддасида “ҳеч кимнинг шахсий ва оилавий ҳаётига ўзбошимчалик билан аралашиб, уй-жойи дахлсизлигига, унинг ёзишмаларидаги сирларга ёки унинг номус ва шаънига ўзбошимчалик билан таъжовуз қилиниши мумкин эмас. Ҳар бир инсон худди шундай аралашув ёки таъжовуздан қонун орқали ҳимоя қилиниш ҳуқуқига эгаллиги” белгиланган.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 27-моддасида “ҳар ким эркинлик ва шахсий дахлсизлик ҳуқуқига эга”лиги мустаҳкамланган.

Шу ўринда дахлсизлик, унинг мазмуни нималардан иборат эканлиги тўғрисида ҳар қандай инсонда савол тўғрилиши мумкин.

Инсоннинг дахлсизлик ҳуқуқи аввало табиий ҳуқуқ сифатида инсон билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, инсондан айро ҳолда тасаввур қилиб бўлмайди ҳамда таъминлаб ва ҳимоя қилиб бўлмайди.

Фикримизча дахлсизлик бу - кенг тушунча бўлиб, мазкур ҳуқуқни таъминлаш, амалга ошириш Конституциямизда белгиланган аксар ҳуқуқлар томонидан таъминланади. Шунингдек, дахлсизлик турли ҳуқуқ тармоқлари:



конституциявий ҳуқуқ, фуқаролик ҳуқуқи, меҳнат ҳуқуқи, оила ҳуқуқи каби бир қанча ҳуқуқ соҳалари билан ҳам ҳар томонлама тартибга солинган.

Шу нуқтаи назардан дахлсизликни умумий - барчага тегишли ва махсус - алоҳида соҳалар оид турларга бўламиз. Дахлсизликнинг умумий тури барча инсонларга тегишли ҳисобланади, махсус тури эса алоҳида соҳалар ёки касб эгаларига уларнинг касбий хусусиятларини, халқаро ҳуқуқий нормаларни инобатга олиб давлатнинг қонунчилиги томонидан махсус тақдим этилади. Бунга Президент дахлсизлиги, депутат дахлсизлиги, сенатор дахлсизлиги, судья дахлсизлиги кабиларни мисол сифатида келтириб ўтсак бўлади.

Келтириб ўтилган дахлсизлик турларининг ҳар бири алоҳида тадқиқот мавзуси эканлигини инобатга олиб, ушбу мақоламизда судьялар дахлсизлиги масаласини судья мақоми ёхуд ҳуқуқларининг устуворлигининг ажралмас қисми сифатида ёритишга ҳаракат қиламиз.

Сўнгги йилларда амалга оширилган суд-ҳуқуқ ислоҳотлари суд ҳокимияти мустақиллигини, судьялар дахлсизлигини, судлар фаолиятида очиқликни таъминлаш билан бир қаторда фуқаролар, тадбиркорлик субъектлари ва барча манфаатдор субъектларнинг ҳуқуқ - манфаатларини ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш имконини бериб келмоқда.

Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти айтганидек, “ҳеч кимнинг унутишга ҳаққи йўқ - қонун талаблари ва инсон ҳуқуқлари - биз учун олий қадрият”¹.

Конституциямизнинг 136-моддасида “судьялар мустақилдирлар, фақат Конституция ва қонунга бўйсунадилар. Судьяларнинг одил судловни амалга оширишга доир фаолиятига ҳар қандай тарзда аралашинишга йўл қўйилмайди ва бундай аралашиниш қонунга мувофиқ жавобгарликка сабаб бўлади. Судьялар муайян ишлар бўйича ҳисобдор бўлмайди.

Судьялар дахлсиздир.

Давлат судьянинг ва унинг оила аъзоларининг хавфсизлигини таъминлайди.

Судьяни муайян ишнинг муҳокамасидан четлаштиришга, унинг ваколатларини бекор қилишга ёки тўхтатиб туришга, бошқа лавозимга ўтказишга фақат қонунда белгиланган тартибда ва асосларга кўра йўл қўйилади. Суднинг қайта ташкил этилиши ёки тугатилиши судьяни лавозимидан озод этиш учун асос бўлиб хизмат қилиши мумкин эмас”лиги мустаҳкамлаб қўйилган.

Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонуни 64-моддасида судьялар дахлсизлиги масаласи бевосита белгиланган бўлиб, унда “судьянинг шахси дахлсиз” эканлиги белгиланган. Бу ерда судьянинг дахлсизлиги масаласи комплекс тарзда бўлиб, унинг шахсидан ташқари унинг турар жойига, хизмат хонасига, у фойдаланадиган транспорт воситаси (у хоҳ хизмат ёки шахсий воситаси бўлишидан қатъий назар) ва алоқа воситаларига (телефон, факс ва бошқа алоқа воситалари), хат-хабарларига, унга тегишли ашёлар ва ҳужжатларга тааллуқлидир.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси, 20.12.2022й., <https://president.uz/uz/lists/view/5774>



Бу ерда ашёлар деганда унга тегишли бўлган кўчар ва кўчмас мулклар, компьютер, принтер каби турли хил ашёларни (у хоҳ хизмат ёки шахсий воситаси бўлишидан қатъий назар) тушунсак бўлади.

“Судлар тўғрисида”ги Қонуннинг 64-моддасининг 2-қисмига асосан судьяларнинг шахсий хавфсизлигини таъминлаш мақсадларида уларга Ўзбекистон Республикаси Олий суди раиси томонидан белгиланадиган рўйхат бўйича сақлаш, олиб юриш ва ундан фойдаланиш ҳуқуқи билан хизмат кўроли ҳамда шахсий ҳимоя воситалари берилади. Шунингдек, зарур ҳолларда тегишли суд раисининг қарорига биноан ички ишлар органи судья ва унинг оиласи учун кўролли соқчилар ажратади.

Судьянинг дахлсизлигини таъминлашнинг яна бир муҳим кафолати бу уни жавобгарликка тортиш масаласи ҳисобланади. Мисол учун судьяга нисбатан жиноят иши етарли асослар, далиллар бўлгандагина, фақат Ўзбекистон Республикаси Бош прокурори томонидан кўзғатилади.

Шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашининг хулосаси олинмасдан ва Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг розилигисиз жинойи жавобгарликка тортилиши, қамокқа олиниши мумкин эмас.

Шу билан бирга, “судьяни тегишли судьялар малака ҳайъатининг хулосаси олинмасдан маъмурий жавобгарликка тортилиши мумкин эмас”лиги мустақкамлаб қўйилган (“Судлар тўғрисида”ги Қонуннинг 64-моддаси 5-қисми).

Бундан ташқари “Судлар тўғрисида”ги Қонуннинг 64-моддасида судьялар дахлсизлигини таъминлашнинг қуйидаги кафолатлари ҳам белгиланган:

- Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши раисининг судьялар дахлсизлигини бузганлик ва уларнинг одил судловни амалга ошириш борасидаги фаолиятига аралашганлик фактлари тўғрисидаги тақдимномаси прокуратура органлари томонидан бир ой муддатда кўриб чиқилиши ва Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси кўрсатилган фактлар бўйича жиноят иши кўзғатилганлиги ёки кўзғатилиши рад этилганлиги ҳақида Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашига хабар бериши;

- судьяни ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга гувоҳ ёки гумон қилинувчи сифатида сўроқ қилиш учун чақиришга фақат тегишли судьялар малака ҳайъатининг розилиги билан йўл қўйилиши;

- судьяга нисбатан қамокқа олиш тарзидаги эҳтиёт чораси фақат унга нисбатан оғир ёки ўта оғир жиноят ёки одам ўлимига сабаб бўлган қасддан бошқа жиноят содир этганликда айб қўйилган ҳолларда қўлланилиши мумкин. Мазкур қоида судья сифатида ишлаган даврида шундай жиноят содир этганликда айбланаётган собиқ судьяга нисбатан ҳам қўлланилади;

- судья ҳуқуқбузарлик содир этганликда гумон қилиниб ушлаб турилган тақдирда, бу ҳақда ушлаб туриш учун асос бўлган ҳужжатлар кўчирма нусхалари илова қилинган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгашига ушланган пайтдан эътиборан уч соатдан кечиктирмасдан хабар қилиниши шартлиги;

- судьянинг турар жойига ёки хизмат хонасига, фойдаланадиган транспортига кириш, уларни кўздан кечириш, уларда тинтув ўтказиш ёки улардан



ашёни олиш, унинг телефондаги сўзлашувларини эшитиш, судьяни шахсан кўздан кечириш ва уни шахсий тинтув қилиш, шунингдек унинг хат-хабарларини, унга тегишли ашёлар ва ҳужжатларни кўздан кечириш, олиб қўйиш ёхуд олиш фақат суднинг қарорига биноан ёки Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг рухсати билан амалга оширилиши мумкинлиги;

- судьяга нисбатан жиноят иши Ўзбекистон Республикаси Олий суди судловига тегишлилиги.

Юқоридагиларга кўра ҳамда Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, бошқа қатор қонунчилик нормалари билан судья мақомининг ёхуд унинг ҳуқуқлари устуворлигини, бошқа давлат ҳокимияти органлари, уларнинг ходимларидан мақомининг ёхуд ҳуқуқларининг устуворлигини ва ўзгачалигини кўришимиз мумкин.

Бу ерда шуни таъкидлаб утиш лозимки, судья мақомининг ёхуд унинг ҳуқуқлари устуворлигини имтиёз, бошқалардан ўзгача деб тушунмаслик керак, балки судьянинг чинакам мустақил, дахлсиз, маънан етук эканлигини, унинг шахсига нисбатан қўйилган юксак талабларни ҳамда одил судловни амалга ошира олишини англантишини тушунишимиз лозим.

Хулоса ўрнида айтсак, судья мақомининг ёхуд унинг ҳуқуқлари устуворлиги бу – бир тизим бўлиб, унга кўра судьянинг шахси ҳам жисмонан ҳам маънан, ташқи ва соҳавий таъсирлардан, турар жойи, хизмат хонаси, у фойдаланадиган транспорт воситаси (у хоҳ хизмат ёки шахсий воситаси бўлишидан қатъий назар) ва алоқа воситалари (телефон, факс ва бошқа алоқа воситалари), хат-хабарлари, унга тегишли ашёлар ва ҳужжатларнинг қонунларга мувофиқ ҳимояланганлик ҳолатини ҳамда судьяга нисбатан бирон бир хатти-ҳаракати учун ёхуд қилмиши учун (саломлашиш) унга шубҳа билан қарашнимас, олдиндан айбдор деган назар билан эмас, балки унга нисбатан олдиндан у айбдор эмас деган назар билан қарашни англатади.

Судьяга одил судловни амалга ошириш ваколатининг берилганлиги, уни судьялик лавозимига тайинлангунига қадар мураккаб, кўп босқичли танловлардан ўтганлиги, судьяга Конституция ва қонунлар билан мустақиллиги, дахлсизлиги, уларнинг кафолатлари кабиларнинг берилганлиги унинг мақоми устуворлигини англатади десак бизнингча асло муболаға бўлмайд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - <https://lex.uz/>;
2. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси;
3. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонуни;
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси, 20.12.2022й., <https://president.uz/uz/lists/view/5774>



JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DRONLAR VA YOSHLARNING O'RNI

Magrubov Mansur Mirkomilovich
O'zbekiston Respublikasi IIV xodimi
Krasavchikjon@mail.ru

Annotatsiya: Mamlakatimizda yoshlarimizning yangi texnologiyalarni o'rganishi orqali ayrim turdagi jinoyatlarni oldini olish hamda ularda ushbu texnologiyalarni ishlatishdagi huquqiy hamda texnik madaniyatni shakllantirish masalalari ushbu maqolada ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: dronlar, drone racing, nano texnologiya, huquqiy madaniyat, jamoat xavfsizligi, jinoiy jazolar.

Hozirda shiddat bilan nano texnologiyalarning rivojlanishi odatiy holga aylanib bormoqda. Turli texnologik yangiliklarning yaratilishi harbiy va fuqarolik sohalarining rivojlanishiga olib kelmoqda.

Ushbu texnologiyalarning yaratilishi va ularning fuqarolik sohalariga kirib kelishi ijobiy bo'lsa, ammo uning jamoat xavfsizligiga ham xavfli tomonlarini hamda tahdidlarini unutmasligimiz lozim.

Uchuvchisiz uchadigan apparatlar yoki dronlar rivojlanishi shunday texnologik jarayonlardan biridir. Bugungi kunda nafaqat harbiy sohada balkim fuqarolik sohasining har bir jabhasiga kirib borishga ulgurgan shu bilan birga, yoshlar o'rtasida ham juda katta qiziqish uyg'atayotgan dronlar anchayin ko'ngil ochar maqsadlarda mashhur bo'lib bormoqda.

Ayniqsa, dronlar yordamida turli sport musobaqalarning tashkil etilishi faqatgina bir davlat miqyosida cheklanmasdan balkim jahon miqyosida o'tkazilmoqda. Ushbu musobaqalar turli davlatlardan minglab yoshlarning birlashtirishi ushbu sohaning naqadar tezkorlik bilan o'sib borayotganligi hamda yoshlar o'rtasida qiziqish uyg'atoyatganligidan dalolat beradi.

Birgina dronlar o'rtasidagi *Drone Racing League (DRL)*, *MultiGP Drone Racing (MultiGP)*, *FAI-dron-reysing o'rtasidagi jahon chempionati*, *Drone Champions League (DCL)*² va shu kabi boshqa nufuzli hamda qiziqarli sport musobaqalarining o'tkazilayotganligi va yil sayin yoshlarni hamda ushbu sport turlarida qatnashmoqchi bo'lgan ishtirokchilarning ko'payib borayotganligi ushbu sport turlarining tez ommalashib borayotganligini ko'rsatmoqda.

Ammo, dronlardan foydalanishni yoshlarimizga ruxsat berishda oldin bir qator muammolarni yechishimiz lozim. Jumladan,

Birinchidan. Yoshlarimizni dronlar bo'yicha bilimlarini oshirish yoki boshqacha qilib aytadigan bo'lsak ularni ushbu soha bo'yicha o'qitishimiz lozim. Aynan, ularni bevosita o'qitishni umumta'lim maktablaridan boshlashimiz lozim.

² <https://www.sports.ru/others/blogs/3124783.html> (murojaat sanasi 05.03.2026)



Biz ushbu yoʻnalishdagi aniq va maqsadli takliflarimizni “Yoshlarda uchuvchisiz uchadigan apparatlardan foydalanishning huquqiy madaniyatini shakllantirish hamda kelgusida uchuvchisiz uchadigan apparatlar bilan bogʻliq jamoat xavfsizligi, inson huquqlari va maʼmuriy-jinoiy jazolarning oldini olish” mavzusida “**Kelajak uchun istiqbolli tashabbuslar forumi**” platformasiga kiritganmiz.³

Ikkinchidan. Kelgusida yoshlarni dronlarni boshqarish boʻyicha huquqiy madaniyatga oʻrgatish. Biz kelgusida ushbu orqali jamoat xavfsizligiga sodir etilishi mumkin boʻlgan tahdidlarni hamda uchuvchisiz uchadigan apparatlar bilan bogʻliq jamoat xavfsizligi, fuqarolarning hayoti va sogʻligiga tahdidlardan, ularning huquqlarining buzilishini hamda yoshlar oʻrtasidagi dronlar yordamida sodir etilishi mumkin boʻlgan maʼmuriy-jinoiy jinoyatlarning oldini olishni koʻzda tutganmiz.

Shu bilan birga yuqoridagi takliflarimiz orqali kelgusida oliy va umumtaʼlim maktablarida uchuvchisiz uchadigan apparatlar va raqamli texnologiyalar bilan bogʻliq huquqiy madaniyatini shakllantirish boʻyicha nazariy va amaliy oʻquv mashgʻulotlarini tashkil etish orqali yoshlarimizning bilimini oshirish hamda hozirda jamoat xavfsizligiga tahdidlaridan biri sifatida koʻrilayotgan dronlarning toʻgʻri ishlatilishi va ularning notoʻgʻri ishlatilishining huquqiy oqibatlarini ularga oʻrgatish, umumtaʼlim maktablarida (taʼlim muassasasi) negizida amaliy dronlarni boshqarish maydonchalarini, ularni yigʻish va dasturlash oʻquvxonalarini mavjud davlat mablagʻlari hisobidan bosqichma bosqich yaratishni koʻzda tutganmiz.

Yana muhim tomonlaridan biri kelgusida dronlar yordamidagi musobaqalarni tashkil etishdan oldin albatta qonunchiligimizga ushbu yoʻnalishdagi tegishli qoʻshimcha va oʻzgartirishlarni kiritishimiz hamda mustahkamlashimiz lozim.

Davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan mamlakatimiz Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yoʻnalishidagi zamonaviy sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish tizimini yaratish, musobaqalar va turnirlarni tizimli ravishda oʻtkazish orqali iqtidorli harbiy xizmatchilarni aniqlash, saralash hamda ularning qobiliyatlari roʻyobga chiqishiga koʻmaklashish, professional kibersportga yoʻnaltirish, axborot texnologiyalari sohasi uchun salohiyatli kadrlar tayyorlash va ularni sohaga jalb qilish ishlarini yanada kengaytirish boʻyicha aniq huquqiy mexanizm ishlab chiqish va amalga oshirilishi yuzasidan topshiriqlar belgilandi.⁴

Xulosa oʻrnida shuni aytishimiz mumkinki, yangi texnologiyalarni harbiy yoki fuqarolik sohalarida ishlatishni cheklashimiz ushbu sohalarni rivojlanishiga turtki boʻlishi mumkin. Shu nuqtai nazardan yoshlarimizni bunday texnologiyalardan foydalanishni taqiqlashimiz yoki cheklashimiz, ushbu sohadagi kerakli kadrlarni va mutaxassislarni kelajakda yetishmasligiga olib keladi. Agar biz yoshlarni bu texnologiyalardan toʻgʻri maqsadda foydalanishning texnik va huquqiy madaniyatini toʻgʻri oʻrgatsak kelajakda ushbu sohalar albatta rivojlanishi tabiiy.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

³ <https://kelajakuchun.gov.uz/auth/initiatives-detail/e2e2d83f-7ab6-4687-9cd6-e0a133cc3820> (murojaat sanasi 12.03.2026)

⁴ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-mart kunidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yoʻnalishidagi sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 75-son qarori <https://lex.uz/uz/docs/-8070204> (murojaat sanasi 10.03.2026)



1. Соревнования дронов. Топ-участники получают десятки тысяч долларов и помогают снимать фильмы в Голливуде <https://www.sports.ru/others/blogs/3124783.html> (murojaat sanasi 05.03.2026).
2. Kelajak uchun istiqbolli tashabbuslar forumi platformasi <https://kelajakuchun.gov.uz/auth/initiatives-detail/e2e2d83f-7ab6-4687-9cd6-e0a133cc3820> (murojaat sanasi 12.03.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-mart kunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida kibersport, dron va robot texnologiyalari yo‘nalishidagi sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 75-son qarori <https://lex.uz/uz/docs/-8070204> (murojaat sanasi 10.03.2026).



СУД ҲОКИМИЯТИНИНГ МУСТАҚИЛЛИГИ-ОДИЛ СУДЛОВ КАФОЛАТИ

Тожиев Зокир Холбаевич

Термиз туманлараро иқтисодий суди
раиси ўринбосари

Аннотация: Одил судловни амалга ошириш омиллари - судья ва суд ҳокимиятининг мустақиллиги, уларни замон талабларидан келиб чиқиб ҳамда халқаро стандартлар асосида кафолатларини янада кучайтириш, суд ҳокимияти мустақиллигини таъминламай туриб, асосий мақсад — одил судловни амалга ошириш, пировардида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг ишончли ҳимоясини таъминлашга эришиб бўлмаслиги, мамлакатимизда суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлашни янада такомиллаштириш, суд ишлари юритилишини такомиллаштириш, фуқаролар, шунингдек, тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини суд томонидан ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш, судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш, малакали кадрларни танлаш, судьялик касбига тайёрлаш ва тайинлаш тизимини такомиллаштириш, сунъий интеллект тизмини жорий этиш масалалари ўрганилган.

Калит сўзлар: Конституция, суд ҳокимияти, судья, холислик, одил судлов, мустақиллик, дахлсизлик, сунъий интеллект.

Суд ҳокимияти — қонунлар ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг тўғри қўлланилишини таъминлаш, низоларни ҳал қилиш ҳамда одил судловни амалга ошириш орқали фуқаролар, ташкилотлар ва давлатнинг ҳуқуқ ҳамда манфаатларини ҳимоя қиладиган давлат ҳокимиятининг мустақил тармоғидир.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 11-моддасида суд ҳокимияти давлат ҳокимиятининг алоҳида тизими сифатида тан олинган.

Шунингдек, Давлатнинг Асосий Қонунида ҳамда “Судлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси қонунида ҳам суд ҳокимиятининг қонун чиқарувчи ва ижро этувчи ҳокимиятлардан, сиёсий партиялардан, бошқа жамоат бирлашмаларидан мустақил ҳолда иш юритиши белгиланган.

Суд ҳокимиятининг мустақиллиги судлар ва судьяларнинг одил судловни амалга оширишда бошқа давлат органлари, мансабдор шахслар, ташкилот ёки фуқаролардан мустақил бўлиши ҳамда фақат қонунга бўйсуниб таъминланадир.

Фақат мустақил суд ҳокимияти ҳар бир фуқаронинг ваколатли ва холис судда ишни ошқора кўриш орқали ўзининг бузилган ҳуқуқларини ҳимоя қилиши мумкинлигига кафолат бўлиб хизмат қилади.

Мустақил ва холис судни талаб қилиш ҳар бир инсоннинг ҳуқуқидир. Бу ҳуқуқ Инсон ҳуқуқлари Умумжаҳон декларациясининг 10-моддасида ва Ўзбекистон Республикаси қўшилган бошқа халқаро ҳуқуқ ҳужжатларида мустаҳкамланган.



“Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонунинг 1-моддасига кўра, Ўзбекистон Республикасида одил судлов фақат суд томонидан амалга оширилиши, Қонуннинг 58-моддасида эса судьялар қонунга мувофиқ одил судловни амалга оширишга ваколат берилган шахслар эканлиги белгиланган.

Одил судловни амалга ошириш учун биринчи омил бу судья ва суд ҳокимиятининг мустақиллигидир.

Суд ҳокимиятининг чинакам мустақиллигини, фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларининг ишончли ҳимоясини таъминлаш ва одил судлов даражасини ошириш давлат сиёсатининг асосий устувор йўналишлари бири сифатида қаралмоқда. Гарчи, миллий қонунчилигимизда суд ҳокимиятининг мустақиллигини кафолатлашга қаратилган нормалар мустаҳкамлаб қўйилган бўлса-да, бироқ бугунги талаб ва халқаро стандартлар асосида кафолатни янада кучайтириш талаб эди. Чунки, суд ҳокимияти мустақиллигини таъминламай туриб, асосий мақсад — одил судловни амалга ошириш, пировардида инсон ҳуқуқ ва эркинликларининг ишончли ҳимоясини таъминлашга эришиб бўлмайди.

Сўнгги йилларда мамлакатда суд ҳокимияти мустақиллигини таъминлаш, суд ишлари юритилишини такомиллаштириш, фуқаролар, шунингдек, тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини суд томонидан ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтиришга, судьяларнинг чинакам мустақиллигини таъминлаш, малакали кадрларни танлаш, судьялик касбига тайёрлаш ва тайинлаш тизимини такомиллаштириш, шунингдек, фуқароларнинг одил судловга бўлган ишончини ошириш бўйича бир қатор ислохотлар амалга оширилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 21 августда “Судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш орқали одил судловга эришиш даражасини ошириш ҳамда суд тизимининг моддий-техник таъминотини яхшилашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги, “Одил судлов соҳасида юқори малакали кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги, 2025 йил 24 ноябрдаги “Судьялар ҳамжамияти органлари фаолиятининг самарадорлиги ва очиқлигини ошириш ҳамда суд мустақиллиги кафолатларини янада кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармонлари ва улар асосида қонунчиликка киритилган ўзгартиришлар суд-ҳуқуқ ислохотларини янада юқори босқичларга кўтарди.

Ушбу норматив ҳужжатлар асосида судлар фаолиятига сунъий интеллект технологияларини жорий этиш учун қулай шарт-шароитлар яратилди, рақамлаштириш ишларини изчил давом эттирилмоқда, судларнинг моддий-техник таъминотини яхшиланди, Суд тизими учун юқори малакали ҳуқуқшунос кадрлар тайёрлаш тизимини халқаро стандартлар асосида янада такомиллаштирилди, таълим, илм-фан ва амалиёт узвийлигини таъминлаш орқали профессионал судьялар корпусини шакллантириш, мамлакатимизда судьялар ҳамжамияти органларининг ролини тубдан ошириш, очиқ ва шаффоф тартиб-таомиллар асосида суд органларини малакали кадрлар билан тўлдириш,



аҳолининг суд ҳимоясида бўлиш ҳуқуқини самарали таъминлаш, суд мустақиллиги кафолатларини кучайтирилишида муҳим омил бўлди.

Ушбу Фармонлар асосида қонунчиликка киритилган ўзгаришлар суд ҳокимиятини нуфузини ошириш билан бирга судга мурожаат қилувчи инсонларнинг судга бўлган ишончини янада оширди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси - <https://lex.uz/>;
2. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси;
3. Ўзбекистон Республикасининг “Судлар тўғрисида”ги Қонуни.



ЖАМОАВИЙ МЕХНАТ НИЗОЛАРИНИ КЎРИБ ҲАЛ ЭТИШДА ЖАМОА КЕЛИШУВЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ

Л.Раҳимқулова

Тошкент давлат юридик университети доценти, ю.ф.ф.д.

Ижтимоий шериклик жамият ҳаётининг турли қатламларида учрайдиган кўпқиррали, шунинг билан бирга кўплаб субъектларига эга бўлган тушунча саналади. У давлат органларининг нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини, шу жумладан тармоқ, ҳудудий дастурларни, шунингдек норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор бўлган бошқа қарорларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш борасидаги ҳамкорлиги сифатида баҳоланади⁵. Ижтимоий шериклик жамиятнинг турли қатламлари манфаатларини инобатга олган келишув ҳамда ижтимоий босимни камайтиришга хизмат қиладиган, барқарорликни таъминлаш имконияти деб қаралади.

Ижтимоий шериклик таълим, илм-фан, соғлиқни сақлаш, маданият, спорт, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш каби бир қанча йўналишларда кенг қўлланилади.

Баъзан, меҳнат муносабатларида ижтимоий шериклик масаласига давлат раҳбарлари даражасида эътибор берилади. Хусусан, 2012 йил июл ойида сўзга чиққан Қозоғистон Республикаси президенти Н.Назарбоев мамлакатни ижтимоий ҳаётини модернизация қилишда меҳнат ва ижтимоий соҳани ривожлантиришда самарали йўлларни топишга алоҳида эътибор қаратиб, бу борада давлат, вакиллар ва хусусий сектор ўртасидаги ижтимоий шерикликни янада тараққий эттириш лозимлигини таъкидлаган⁶

Меҳнат кодексига ижтимоий шериклик масаласи ҳуқуқий тартибга солиниши мамлакатда меҳнатга оид қонун ҳужжатлари кадр-қимматини янада ошишига хизмат қилди. Айтиб ўтиш жоизки, ижтимоий шериклик нафақат меҳнат муносабатларини тартибга соладиган тизим, балки меҳнат ҳуқуқининг алоҳида мустақил институти ҳамда энг муҳим тармоқ принципи сифатида ҳам кенг ўрганилади.

Шуниси эътиборлики, меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик фуқаролик жамияти бошқа институтларида қўлланиладиган ижтимоий шерикликдан қуйидаги хусусиятлари билан ажралиб туради:

- ижтимоий шериклик предмети;
- ҳуқуқий тартибга солиш манбалари;
- ижтимоий шериклик шакли ва субъектлари таркиби;

⁵ Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон // <https://lex.uz/docs/2468214>

⁶ Beissenova A. Labour conflicts in Kazakhstan: A specific character of their solution. // World conference on Psychology and Sociology, 2012.



ижтимоий шериклик асосида қабул қилинган қарорлар ва уни қабул қилиш тартиб-таомили;

ижтимоий шериклик асосида қабул қилинган ҳужжатлар ижроси юзасидан тарафларнинг мажбурият олиши⁷.

Меҳнат муносабатларида ижтимоий шериклик бу иш берувчилар, ходимлар ва ҳукумат ўртасида меҳнатни ташкил этиш билан боғлиқ бўлган барча саволларга жавоб бериши билан аҳамиятлидир. У ўз ичига вакиллар ўртасида иқтисодиёт, меҳнат ва ижтимоий соҳадаги умумий манфаатлари борасида маслаҳатлар, ахборот алмашинуви ҳамда музокараларни қамраб олади.

Ижтимоий шериклик нафақат меҳнат жамоасининг иқтисодий ва ижтимоий жиҳатдан ривожланишига, балки жамият ҳамда корхона ҳаётида ўз овози билан иштирок этиш имкониятини берадиган восита ҳам саналади⁸.

Мамлакатимизда меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг иккинчи (алоҳида) бўлимида ҳуқуқий тартибга солинган. Меҳнат кодексининг 34-моддасида меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик ўз вакиллари тимсолида ходимлар ва иш берувчилар ҳамда уларнинг вакиллари шунингдек, давлат органлари ўртасида ўзаро муносабатлар тизими бўлиб, бу тизим яқка тартибдаги меҳнатга оид муносабатларни ҳамда улар билан бевосита боғлиқ бўлган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш масалалари юзасидан ходимлар, иш берувчилар ва давлат манфаатларини мувофиқлаштиришни таъминлашга қаратилган бўлиши белгилаб қўйилган. Бизнинг назаримизда, Меҳнат кодексидида меҳнат соҳасидаги ижтимоий шерикликка аълоқадор бир қатор муносабатларни янада такомиллаштириш лозим. Бу хулосагага келиш учун қуйидагилар асос бўлиб хизмат қилди:

Биринчидан, тадқиқот доирасида ўрганилган аксарият хорижий давлатлар қонунчилигида ижтимоий шериклик жамоавий муносабат деб талқин этилиб, ижтимоий шерикликлик ва уни амалга ошириш билан боғлиқ муносабатлар, тарафларнинг вакиллик муносабатлари ҳамда жамоавий меҳнат низоларини ҳал этишга оид муносабатлар алоҳида бўлимда ҳуқуқий тартибга солинган. Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексидида эса, ижтимоий шериклик тизими яқка тартибдаги меҳнатга оид муносабатларни ҳамда улар билан бевосита боғлиқ бўлган ижтимоий муносабатларни тартибга солади. Бизнингча, ижтимоий шериклик бу жамоавий меҳнат муносабатлар саналади.

Иккинчидан, Меҳнат кодексининг 41-моддасида меҳнат низоларини ҳал этишда ходимлар ва иш берувчилар вакилларининг иштирок этиши ижтимоий шерикликни амалга ошириш шакли сифатида баён этилган. Хорижий давлатлар қонунчилигини қиёсий-ҳуқуқий таҳлили шуни кўрсатдики, жамоавий меҳнат низоларини самарали ҳал этишга оид қоидаларни мустақамлаш ижтимоий шерикликнинг асосий вазифаларидан бири сифатида қайд этилган. Бунга мисол қилиб:

⁷ Гасанов М. Трудовое право Республики Узбекистан (общая часть) Т.:2016.

⁸ Social Dialogue. International Labour Conference, 102nd Session, 2013 // <https://www.ilo.org/resource/conference-paper/ilc/102/social-dialogue-0>



Қозоғистон Республикаси Меҳнат кодексининг учинчи бўлими “Ижтимоий шериклик ва меҳнат соҳасида жамоавий муносабатлар” деб номланган ва унинг 147-моддасида ижтимоий шерикликни амалга оширувчи органлар, унинг вазифалари ва принциплари ифодаланиб, жамоавий меҳнат низоларини ҳал этишга кўмаклашиш ижтимоий шерикликнинг асосий вазифаси қилиб белгиланган.

2016 йилда қабул қилинган Литва Меҳнат кодексининг учинчи бўлими “Жамоавий меҳнат муносабатлари” деб номланган ҳамда унда ижтимоий шериклик, иш берувчи ва ходимлар вакиллик органлари ҳамда жамоавий меҳнат низоларини ҳал этиш тартиби алоҳида бобда белгилаб қўйилган⁹.

Белорусия Меҳнат кодексининг тўртинчи бўлими ҳам “Жамоавий меҳнат муносабатларини тартибга солувчи умумий қоидалар” деб номланган ва мазкур бўлимда жамоавий меҳнат низоларини ҳал этиш тартиби алоҳида боб сифатида шакллантирилган¹⁰.

Арманистон Меҳнат кодексининг иккинчи қисми “Жамоавий меҳнат муносабатлари” деб номланиб, ушуб қисмда ижтимоий шериклик, музокара олиб бориш, тарафларнинг вакиллиги, жамоа келишувлари ва шартномалари ҳуқуқий тартибга солинган¹¹.

Янги таҳрирдаги (2025 йил) Қирғизистон Республикаси Меҳнат кодексининг 196-моддаси саккизинчи қисмида меҳнат низоларини судгача ҳал этишда тарафлар вакиллик органларининг иштирокини таъминлаш ижтимоий шериклик шакли сифатида қайд этилганлигини кузатиш мумкин. Бу тажрибани яна қўплаб давлатларнинг меҳнатга оид қонунлари асосида давом эттириш мумкин.

Юқоридаги таҳлилларни инобатга олиб, мавжуд меҳнатга оид норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни янада такомиллаштириш мақсадида қуйидаги таклифларни илгари сурамиз:

биринчи, Ўзбекистон Республикаси Меҳнат кодексининг иккинчи бўлими номини “Меҳнат соҳасидаги жамоавий муносабатлар” деб қайта номлаш;

иккинчи, Меҳнат соҳасидаги жамоавий муносабатлар” бўлими ўз ичига қуйидаги бобларни қамраб олиши лозим бўлади:

- меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик (тўртинчи боб);
- ходимлар ва иш берувчиларнинг ижтимоий шерикликдаги вакиллари (бешинчи боб);
- меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик органлари (олтинчи боб);
- жамоавий музокаралар (еттинчи бўлим);
- жамоа шартномалари (саккизинчи бўлим);
- жамоа келишувлари (тўққизинчи боб);
- жамоавий меҳнат низоларини ҳал этиш (ўнинчи боб).

⁹ Закон Литовской Республики

//<https://eseimas.lrs.lt/portal/legalAct/lt/TAD/bb10e743a97f11eb98ccba226c8a14d7?jfwid=kjtiqjlgg>

¹⁰ Трудовой кодекс Республики Беларусь // <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900296> –

Национальный правовой Интернет-портал Республики Беларусь

¹¹ Трудовой кодекс Республики Армения // <https://www.arlis.am/documentview.aspx?docid=173461>



Жамоавий меҳнат низоларини ҳал этишни алоҳида бобда акс эттириш ва ушбу бобни “Меҳнат соҳасидаги жамоавий муносабатлар” бўлимида ифода этиш орқали жамоавий муносабатларни тартибга соладиган барча нормаларни бир жойга тўплашга эришиш мумкин. Илгари сурилаётган ушбу таклиф меҳнатни ташкил этиш билан боғлиқ барча ҳуқуқий муносабатлар якка тартибдаги меҳнатга оид муносабатлар ва жамоа тартибидаги меҳнатга оид муносабатларга ажралиши тушунчасини беради.

Шунингдек, юқоридаги таҳлилларга таянган ҳолда, Меҳнат кодексининг 34-моддаси биринчи қисмини қуйидаги мазнунда баён этиш таклифини илгари сураемиз:

“Меҳнат соҳасидаги ижтимоий шериклик ўз вакиллари тимсолида ходимлар ва иш берувчилар ҳамда уларнинг вакиллари шунингдек, давлат органлари ўртасида ўзаро муносабатлар тизими бўлиб, бу тизим меҳнатга оид муносабатларни ҳамда меҳнат билан бевосита боғлиқ бўлган ижтимоий муносабатларни тартибга солиш масалалари юзасидан ходимлар, иш берувчилар ва давлат манфаатларини мувофиқлаштиришни таъминлашга қаратилган бўлади.”

Меҳнат кодексининг 60-моддасига кўра, ижтимоий шерикликнинг ҳар қандай тарафи жамоавий музокаралар ташаббускори бўлиши мумкин. Мамлакатимизда жамоа музокаралари асосан аввалги жамоа келишуви ва шартномаларини амал қилиш муддати тугагунига қадар уч ой ичида ёки уларда белгилаб қўйилган муддатлар ичида янги жамоа келишувларини ва шартномаларини тузиш юзасидан бўлиб ўтади.



ФАЛСАФА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

АХБОРОТ ЖАМИЯТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ФАЛСАФИЙ МОҲИЯТИ

Urazov Abubakir Kulturaevich
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil tatqiqotchisi
abubakirurazov24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot jamiyati tushunchasining falsafiy asoslari ko'rib chiqiladi va uning tarixiy shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Postindustrializm, bilim iqtisodiyoti va raqamli sivilizatsiya tadqiqotlaridan tortib klassik va zamonaviy nazariyalarga tayanib, maqola axborot jamiyati faqat texnologik o'zgarish emas, balki jamiyatlar bilimni yaratish, tarqatish va qonuniylashtirish tarzidagi chuqur ontologik va epistemologik o'zgarish ekanligini isbotlaydi. Tadqiqot axborot jamiyatining shakllanishining to'rtta asosiy bosqichini ajratib ko'rsatadi: proto-axborot rivojlanishlari, industrial-axborot o'tish davri, erta raqamlashtirish va hozirgi algoritmik-tarmoqli sivilizatsiya. Xulosa qilib aytiladiki, axborot jamiyati axborot ijtimoiy tashkilot, inson faoliyati va global o'zaro bog'liqlikning hukmron omiliga aylanadigan murakkab ijtimoiy-falsafiy jarayon sifatida tushunilishi kerak.

Kalit so'zlar: Axborot jamiyati; axborot falsafasi; raqamli sivilizatsiya; axborot ontologiyasi; epistemologiya; aksiologiya; bilim jamiyati; algoritmik boshqaruv; raqamli transformatsiya; tarmoqli jamiyat; axborot ekotizimlari; axborot jamiyati bosqichlari; postindustrial jamiyat; axborot etikasi.

Axborot jamiyati tushunchasi zamonaviy sivilizatsiyaning o'zgarishini tushunish uchun eng muhim doiralardan biriga aylandi. An'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy modellar asosan industrial ishlab chiqarishga asoslangan bo'lsa, axborot jamiyati axborotni yaratish, tarqatish va undan foydalanishni markaziy tashkiliy prinsip sifatida quriladi. Ushbu tushunchaning falsafiy asoslari texnologik rivojlanishdan tashqari, inson mavjudligi, ijtimoiy tuzilmalar va madaniy ma'no yaratishni belgileydigan ontologik, epistemologik va aksiologik o'lchovlarni o'z ichiga oladi. Bell (1999) [1] va Toffler (1980) [13] ning postindustrial jamiyat haqidagi klassik asarlari axborot iqtisodiy va ijtimoiy hayotni qayta shakllantirishini tahlil qilish uchun asos yaratgan bo'lsa, Kastels (2010) [3] va Floridi (2011) [6] kabi zamonaviy nazariyotchilar bu diskursni raqamli tarmoqlar, algoritmik boshqaruv va infosfera ontologiyasi sohalariga kengaytirdilar.

Axborot jamiyatining ijtimoiy-texnik xususiyatlari haqidagi keng adabiyot mavjud bo'lsa-da, uning falsafiy mohiyati borasida ilmiy bahslarda sezilarli farqlar saqlanib qolmoqda. Masalan, Webster (2014) [15] bironta yagona ta'rif axborot o'zgarishlarining ko'p qirraliligini to'liq qamrab ola olmasligini ta'kidlaydi, Mansell (2021) [10] esa texnologik taraqqiyotning an'anaviy hikoyalarini murakkablashtiruvchi doimiy tuzilmaviy tengsizliklarga e'tibor qaratadi. Bunga qarama-qarshi ravishda, Floridi (2014) [7] axborot jamiyatini inson shaxsiyatini raqamli muhitlarga joylashtirib, radikal o'zgartiruvchi to'rtinchi inqilob sifatida



konseptuallashtiradi. Bu turli talqinlar termin atrofidagi konseptual beqarorlikni ko'rsatadi va chuqurroq falsafiy tahlil zarurligini ta'kidlaydi.

Yaqindagi tadqiqotlar axborot jamiyatining alohida elementlarini aniqlashtirishga uringan bo'lsa-da, ko'pincha sohaviy nuqtai nazardan yondashadi. Masalan, Zuboff (2019) [17] nazorat kapitalizmi va inson tajribasining tovarlashuvini tahlil qiladi, ma'lumotlar chiqarib olishning siyosiy va iqtisodiy oqibatlariga e'tibor qaratadi. Koekelberg (2021) [4] algoritmik tizimlar axloqiy faoliyatga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqadi va raqamli muhitlarda mustaqillik va javobgarlik borasida xavotirlarni keltirib chiqaradi. Lion (2020) [9] esa keng tarqalgan raqamli nazorat va ma'lumotlashtirish jarayonlaridagi axloqiy ziddiyatlarni ta'kidlaydi. Bu tadqiqotlar qimmatli tushunchalar beradi, lekin axborotni ko'proq texnologik yoki siyosiy hodisa sifatida ko'radi, uning chuqur ontologik va aksiologik asoslarini kamroq o'rganadi.

Axborot jamiyatini kengroq sivilizatsion va axloqiy doiralarga joylashtirishga urinayotgan tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Bauden va Robinson (2020) [18] axborot savodxonligi inson idroki va xulq-atvorini shakllantirishdagi o'sib borayotgan ahamiyatini muhokama qiladilar, Piterse (2022) [11] esa global o'zaro bog'liqlik yangi identifikatsiya shakllarini haydovchi madaniy kuch sifatida ko'rib chiqadi. Van Deyk (2020) [14] va Kouldri & Mejias (2019) [5] kabi olimlar raqamli qaramlik va axborot qudrati asimmetriyalarining paydo bo'lishini ta'kidlaydilar va axborot ijtimoiy munosabatlar va qadriyat tizimlarini qanday qayta shakllantirishini ko'rsatadilar. Shunga qaramay, bu o'zgarishlarning falsafiy oqibatlari — xususan, ma'naviyat, ma'no yaratish va inson o'zini tushunishga ta'siri — yetarlicha nazariy ishlab chiqilmagan.

Ushbu tadqiqot industrialdan axborot modellariga o'tish bilan birga keladigan ontologik va aksiologik o'zgarishlarga e'tibor qaratib, axborot jamiyatining falsafiy mohiyatini o'rganish orqali yuqoridagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, axborot jamiyati tarixiy rivojlanish bosqichlari — erta proto-axborot tizimlaridan zamonaviy algoritmik-tarmoqli sivilizatsiyagacha — o'rganiladi. Falsafa, axborot fanlari, raqamli etika va ijtimoiy nazariyalardan olingan interdissiplinar ilmiy manbalarga tayanib, maqola axborot inson mavjudligi va zamonaviy sivilizatsion o'zgarishlarni qanday shakllantirishini tushunish uchun integratsiyalangan konseptual doira yaratishni maqsad qiladi.

Ushbu tadqiqot industrialdan axborot modellariga o'tish bilan birga keladigan **ontologik** va **aksiologik** o'zgarishlarga e'tibor qaratib, axborot jamiyatining falsafiy mohiyatini o'rganish orqali yuqoridagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, axborot jamiyati tarixiy rivojlanish **bosqichlari** — erta proto-axborot tizimlaridan zamonaviy algoritmik-tarmoqli sivilizatsiyagacha — o'rganiladi. Falsafa, axborot fanlari, raqamli etika va ijtimoiy nazariyalardan olingan interdissiplinar ilmiy manbalarga tayanib, maqola axborot inson mavjudligini qanday shakllantirishi va zamonaviy sivilizatsion o'zgarishlarni qanday tuzilishini tushunish uchun **integratsiyalangan konseptual doira** yaratishni maqsad qiladi.

Axborot jamiyati tushunchasining asosini tashkil etuvchi ontologik, epistemologik va aksiologik prinsiplarni aniqlash maqsadida bilim va aloqa haqidagi erta fikrlardan tortib zamonaviy raqamli ontologiyagacha bo'lgan asosiy falsafiy



manbalar o'rganildi. Axborot atrofidagi intellektual diskursni sezilarli darajada shakllantirgan mualliflarga alohida e'tibor qaratildi, jumladan: Bell (1999) [2], Toffler (1980) [13], Kastels (2010) [3], Webster (2014) [15] va Floridi (2011; 2014) [8]. Ularning hissalarini axborotni ijtimoiy tashkilotning tuzuvchi prinsipi sifatida talqin qilishdagi uzluksizlik va farqlarni kuzatish uchun tahlil qilindi.

Axborot falsafasi bo'yicha asosiy matnlar qayta ko'rib chiqildi, jumladan: Floridining «Axborot falsafasi» (2011) [6] asari, unda raqamli muhitlarning asosi bo'lgan axborot ontologiyasi batafsil bayon etilgan, hamda «Axborot etikasi» (2013) [7], unda barcha axborot agentlariga axloqiy javobgarlik kengaytirilgan. Beytsonning (1972) [1] axborotni «farq yaratuvchi farq» sifatidagi formulasi ma'no yaratish va aloqa talqinlariga ta'sir etuvchi asosiy ontologik premise sifatida tahlil qilindi. Shannon (1948) [12], Viner (1950) [16] va Koekelberg (2021) [4] kabi olimlarning ishlari axborot nazariyasining matematik, kibernetik va etik nuqtai nazardan rivojlanishini tushunish uchun o'rganildi.

Bundan tashqari, raqamlashtirish va tarmoqli jamiyatlar bo'yicha zamonaviy sotsiologik va falsafiy tadqiqotlar batafsil tahlil qilindi. Kastelsning tarmoq jamiyati haqidagi ko'p jildli asari (2010) [3] axborot rivojlanishini global ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kontekstida joylashtirish uchun ishlatildi. Zuboffning (2019) [17] nazorat kapitalizmi tahlili va Lionning (2020) [9] raqamli nazorat bo'yicha tadqiqotlari axborot qudratining siyosiy va etik o'lchovlari bo'yicha tushunchalar uchun o'rganildi. Bauden va Robinson (2020) [18] ning axborot savodxonligi haqidagi nashrlari hamda Piterse (2022) [11] ning global madaniy dinamika bo'yicha ishlari axborot idrok, identifikatsiya va madaniy integratsiyani qanday qayta shakllantirishini baholash uchun ko'rib chiqildi.

Axborot jamiyati inson mavjudligi poydevorini qayta shakllantiruvchi chuqur ontologik, epistemologik va aksiologik o'zgarishni ifodalaydi. Uning tarixiy bosqichlari axborot ikkilamchi ijtimoiy elementdan (iqtisodiy va madaniy faoliyatlarni qo'llab-quvvatlovchi) zamonaviy sivilizatsiyaning markaziy tashkiliy prinsipiga bosqichma-bosqich o'sib chiqqanini ko'rsatadi. Bu o'tish jamiyatlar qimmat yaratish, bilim qurish, identifikatsiya shakllantirish va jamoaviy hayotni boshqarish tarzini qayta belgiladi. Insoniyat algoritmik-tarmoqli davrga kirgan sari — raqamli infratuzilmalar, sun'iy intellekt va ma'lumotga asoslangan qaror qabul qilish faoliyatning deyarli barcha sohalariga singib ketgan — falsafiy tadqiqot faqat dolzarb emas, balki zarur bo'lib qoladi. Faqat qat'iy falsafiy tahlil orqaligina axborot inson tajribasini qanday tuzuvchi, ijtimoiy munosabatlarga vositachilik qilishi va global boshqaruvning yangi shakllarini qanday shakllantirishini to'liq tushunish mumkin.

Bu kontekstda kelajak tadqiqotlar texnik innovatsiyalardan tashqari raqamli sivilizatsiyaning etik, siyosiy va madaniy o'lchovlari bilan tanqidiy shug'ullanishi kerak. Ustuvor yo'nalishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- raqamli tizimlarning etik dizayni — texnologiyalar inson qadr-qimmatini, mustaqilligi va adolatini qo'llab-quvvatlashini ta'minlash;
- algoritmik qudratning siyosiy oqibatlarini o'rganish — xususan demokratik jarayonlar, ommaviy muhokama va qudrat taqsimotiga ta'siri;



- inklyuziv axborot muhitlarini yaratish — raqamli tengsizlikni kamaytirish va bilim iqtisodiyotida teng ishtirok etishni rag‘batlantirish.

Umuman olganda, bu tadqiqot yo‘nalishlari falsafa, texnologiya tadqiqotlari, ijtimoiy fanlar va siyosat tahlilini integratsiya qiluvchi interdisciplinar yondashuvlarning shoshilinch zarurligini ta’kidlaydi. Faqat shunday integratsiyalashgan sa’y-harakatlar orqali jamiyatlar axborot asrining imkoniyatlari va xavflaridan o‘tib, faqat samarali va innovatsion emas, balki insoniy, adolatli va axloqiy poydevorga ega raqamli kelajakni tarbiyalay oladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bateson, G. (1972). Steps to an Ecology of Mind. University of Chicago Press.
2. Bell, D. (1999). The Coming of Post-Industrial Society: A Venture in Social Forecasting. Basic Books.
3. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd ed.). Wiley-Blackwell.
4. Coeckelbergh, M. (2021). AI Ethics. MIT Press.
5. Couldry, N., & Mejias, U. A. (2019). The Costs of Connection: How Data Is Colonizing Human Life and Appropriating It for Capitalism. Stanford University Press.
6. Floridi, L. (2011). The Philosophy of Information. Oxford University Press.
7. Floridi, L. (2013). The Ethics of Information. Oxford University Press.
8. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford University Press.
9. Lyon, D. (2020). Surveillance and the Vanishing Individual: Power and Identity in the Digital Age. Routledge.
10. Mansell, R. (2021). The Information Society: Critical Concepts in Media and Cultural Studies. Routledge.
11. Pieterse, J. N. (2022). Globalization and Culture: Global Mélange (4th ed.). Rowman & Littlefield.
12. Shannon, C. E. (1948). A Mathematical Theory of Communication. Bell System Technical Journal, 27(3), 379–423.
13. Toffler, A. (1980). The Third Wave. William Morrow.
14. Van Dijk, J. (2020). The Digital Divide. Polity Press.
15. Webster, F. (2014). Theories of the Information Society (4th ed.). Routledge.
16. Wiener, N. (1950). The Human Use of Human Beings: Cybernetics and Society. Houghton Mifflin.
17. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power. PublicAffairs.
18. Bawden, D., & Robinson, L. (2020). Information Science and the Information Society. In The Routledge Handbook of Information and Society.



HARAKATLAR STRATEGIYASI DOIRASIDA DAVLAT BOSHQARUVI SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR KONSEPSIYASI

Rasulov Siroj Sodiq o'g'li

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

sirojasulov08021999@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimida amalga oshirilgan islohotlar tahlil qilinadi. Unda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, aholi bilan muloqot tizimini rivojlantirish, davlat xizmatlarini modernizatsiyalash sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar mazmun-mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: strategiya, davlat, fuqarolik jamiyati, Xalq qabulxonalari, portal, islohot, E-qaror

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi va uning samarali ijro etilishi ortidan islohotlarning yuqori natijalariga erishildi. Harakatlar strategiyasiga muvofiq, barcha sohalaridagi rivojlanish, avvalo aholining turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgani bilan yangi bosqichga o‘tdi. Shunga muvofiq ravishda 2017-2021 yillarda mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qurish, erkin bozor munosabatlari va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirish, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratish, xalqaro maydonda O‘zbekistonning munosib o‘rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur muhokama va o‘rganishlar natijasida, mamlakatning yaqin kelajakdagi taqdirini belgilash, barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta‘minlash, o‘z ichiga o‘rta va uzoq muddatli maqsad va vazifalar tizimini mujassam etuvchi, istiqboldagi harakatlarni rejalashtirishga qaratilgan hujjat 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi [1].

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e‘tibor, eng avvalo, davlat va jamiyat qurilishini tubdan isloh qilishga qaratildi. Shuning uchun ham ushbu vazifa birinchi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olindi va “Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari” konsepsiyasi qoidalarini to‘liq o‘zida aks ettirdi [2].

So‘nggi besh yil davomida 2017-2021 yillarda mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyatini qurishga qaratilgan quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi:



Birinchidan, *xalq bilan muloqot tizimi yo‘lga qo‘yildi*. Natijada bu borada quyidagi yutuqlarga erishildi:

✓ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi faoliyatini yanada takomillashtirish, jismoniy va yuridik shaxslar uchun davlat organlariga murojaat qilishda qo‘shimcha qulayliklar yaratish maqsadida, 2018- yil 1- fevraldan e‘tiboran O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi axborot tizimining yangi talqini ishga tushirildi. 2017–2021 yillar davomida kelib tushgan 6 mlndan ziyod murojaatlardan 3 mlndan ortig‘i qanoatlantirildi;

✓ Prezident Virtual qabulxonasida “Onlayn maslahatchi” moduli ishga tushirilib, ushbu modul orqali kerakli soha va tarmoq mutaxassislari bilan bog‘lanib, savollarga javob olish imkoniyati yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasining axborot tizimi jismoniy va yuridik shaxslarga o‘z murojaatlarini Internet tarmog‘idan pm.gov.uz manzilidagi veb-sayti orqali davlat organlari rahbarlariga yuborish imkoniyatini beradi [3];

✓ Davlat organlari faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi oshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta‘minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli Farmoni qabul qilinganligi buning yorqin misolidir [4];

✓ Aholi muammolarini hal etish bo‘yicha “mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla” hamkorlik tizimi joriy qilindi. Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uyma-uy yurish, ijtimoiy va boshqa obyektlarni o‘rganish orqali muammolarni aniqlash va hamkorlikda bartaraf etish choralari ko‘rib, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatishga zamin hozirlandi;

✓ Aholi va tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi Davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi, 254 turdagi davlat xizmatlaridan my.gov.uz portali orqali foydalanish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, Xalq qabulxonalarining 1000 – “Ishonch telefoni” yo‘lga qo‘yildi;

✓ Turli darajadagi rahbarlar aholining turli qatlami bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish choralari ko‘rib kelishmoqda.

ikkinchidan, *davlat boshqaruvi tizimi takomillashtirildi*. Xususan, bu borada:

✓ Davlat organlari faoliyatining oshkoraligi va shaffofligi, davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorligi oshirildi;

✓ Aholi muammolarini hal etish bo‘yicha “mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla” hamkorlik tizimi joriy qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[5];

✓ Aholi va tadbirkorlarga xizmat ko‘rsatuvchi Davlat xizmatlari markazlari tashkil etildi, 254 turdagi davlat xizmatlaridan my.gov.uz portali orqali foydalanish imkoniyati yaratildi;

✓ Xalq qabulxonalarining 1000 – “Ishonch telefoni” yo‘lga qo‘yildi;



✓ Turli darajadagi rahbarlar aholining turli qatlami bilan uchrashib, ularning muammolarini hal qilish choralarini ko‘rib kelishmoqda. Fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyatlari kengaytirildi;

✓ Xiva, Shahrisabz, Nurafshon, Yangiyo‘l, Ohangaron, G‘azg‘on shaharlari va Taxiatosh, Toshkent, Bandixon, Bo‘zatov, Davlatobod, Yangihayot, Tuproqqal‘a tumanlari tashkil qilindi [6].

uchinchidan, jamoatchilik boshqaruvi tizimi takomillashtirildi. Jumladan, quyidagi islohotlar amalga oshirilganligi diqqatga sazovor:

✓ fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy va siyosiy faolligi oshirildi;

✓ davlat organlarining veb-saytlariga ular tomonidan amalga oshirilayotgan byudjet xarajatlari haqida to‘liq ma‘lumotlarni joylashtirish majburiyligi belgilandi;

✓ ommaviy axborot vositalariga erkinlik berildi;

✓ hokimlarning barcha qarorlari va farmoyishlari “E-qaror” elektron tizimida (e-qaror.gov.uz) doimiy ravishda e‘lon qilib borilishi va ularni har bir fuqaro tomonidan kuzatib borish imkoni paydo bo‘ldi.

to‘rtinchidan, parlamentning davlat va jamiyat boshqaruvidagi roli oshirildi. Buning natijasi o‘laroq

✓ hukumatni shakllantirishda Qonunchilik palatasining vakolatlari kengaytirildi, jumladan, Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar va davlat qo‘mitalari raislari nomzodini Bosh vazir taqdimiga binoan Qonunchilik palatasi tomonidan ma‘qullash va Prezident tomonidan tasdiqlash tartibi, viloyat, tuman va shahar davlat organlari rahbarlarini lavozimga tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan tasdiqlash tartibi joriy etildi;

✓ Oliy Majlis Qonunchilik palatasida “Hukumat soati”ni o‘tkazib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Xususan, 2018–2021 yillarda 30 marotaba “hukumat soati” o‘tkazilib, ularda hukumatning 41 nafar a‘zosi deputatlar savollariga javob berishdi. Eng muhimi, 2021 yildan boshlab o‘tkazilgan “hukumat soati” tadbirlari Qonunchilik palatasining “Youtube” hamda “Facebook”dagi rasmiy sahifalarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoritib borildi[7].

Beshinchidan, saylovlar tizimi takomillashtirildi. Ushbu islohotlar amaliy tatbig‘i sifatida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

✓ O‘zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi qabul qilindi. Xususan, 2019 yildagi yangi Saylov Kodeksi asosida bo‘lib o‘tgan saylov jarayonlari o‘zining adolatlilik va shaffofligi bilan siyosiy hayotimiz tarixida katta hodisa bo‘ldi. Natijada xalqaro miqyosda jahon hamjamiyati tomonidan saylov tizimimizga yuksak baho berilib, ushbu saylov mamlakatimiz imidjini, obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga muhim voqeaga aylandi[8];

✓ ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga saylovlarda ovoz berish huquqi berildi;

✓ Qonunchilik palatasida deputatlik o‘rinlari uchun O‘zbekiston Ekologik harakati vakillariga kvota ajratish instituti bekor qilindi, 2019-yil 22-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan ro‘yxatga olindi[9];

✓ saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etilishi yo‘lga qo‘yildi.



Xulosa qilib aytganda, 2017–2021 yillarda amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasi O‘zbekiston davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu strategiya doirasida davlat organlari faoliyatining ochiqligi, aholi bilan muloqot mexanizmlarining kuchaytirilishi, fuqarolik jamiyati institutlarining faollashuvi hamda parlament va saylov tizimining takomillashuvi ta’minlandi. Natijada davlat boshqaruvida xalq manfaatlarini ustuvorligi kuchaydi, fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy faolligi oshdi hamda mamlakatda demokratik islohotlar izchil rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son.
2. 2017 йил — шиддатли ислохотлар йили. – Т.: “Адолат”, 2017. –Б.10.
3. Virtual qabulxona // <https://stat.uz/uz/murojaatlar/virtual-qabulxona>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta’minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6247-sonli Farmoni// Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 17.06.2021-y., 06/21/6247/0563-son
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/-3302438?ONDATE2=25.10.2024&action=compare>
6. Харакатлар стратегияси билан 5 йил ва истиқболдаги мақсадлар. –Т.: “Тараққиёт стратегияси”, 2021. –Б.1.
7. Харакатлар стратегияси билан беш йил: ислохотлар сарҳисоби // <https://strategy.uz/index.php?news=1478>
8. Турдиев Б.С. Ўзбекистонда демократик жамият ривожланишида маънавий янгиланишлар стратегияси. Монография.– Т.: “Lesson Press”, 2023. – В.53.
9. O‘zbekiston Ekologik partiyasi// <https://ecouz.uz/history>



XALIQTIN ÓMIR FILOSOFIYASINAN KELIP SHIQQAN EKOLOGIYALIQ QÁDIRIYATLAR

MAKSETOVA MEXRI KABULOVNA

Tariyx ilimlari kandidati, docent
Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Annotatsiya: Maqolada xalqning qadimgi dunyoqarashi, hayot falsafasi va madaniyatini o‘zida mujassam etgan og‘zaki ijodiyoti folklor orqali xalq o‘zining ekologik tafakkurini, tabiatga bo‘lgan hurmatini va ekologik madaniyatini kelajak avlodlarga yetkazganligi hamda folklorda o‘z aksini topgan ekologik g‘oyalarni o‘rganish bugungi ekologik tarbiya jarayonida ham ahamiyatga ega ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, hayot falsafasi, folklor, ekologiya, tarbiya

Резюме: В статье подчеркивается, что устное народное творчество, воплощающее древнее мировоззрение, философию жизни и культуру народа, через фольклор передавало будущим поколениям свое экологическое мышление, уважение к природе и экологическую культуру, а изучение экологических идей, отраженных в фольклоре, важно и в современном процессе экологического воспитания.

Ключевые слова: мировоззрение, философия жизни, фольклор, экология, воспитание

Summary: The article notes that oral folk art, embodying the ancient worldview, philosophy of life, and culture of the people, through folklore, conveys to future generations their ecological thinking, respect for nature, and ecological culture, and the study of ecological ideas reflected in folklore is also important in the process of ecological education today.

Key words: worldview, philosophy of life, folklore, ecology, upbringing

Búgingi kúnde ekologiya máseleleri insaniyat ómirindegi eń áhmiyetli hám aktual mashqalalardıń bir sıpatında qaralıp, ekologiyalıq mashqalalar pútkil insaniyattıń dıqqat orayında turmaqta. Tábiyattıń pataslanıwı, ekologiyalıq teń salmaqlılıqtıń buzılıwı, insannıń qorshağan ortalıqqa salıstırma juwapkersizlik qatnasıqları dúnya birlespesin táshwishke salmaqta. Suw resurslarınıń kemeyiwi, toǵaylardıń joq bolıwı sıyaqlı jaǵdaylar hár bir xalıqtıń turmısına tuwrıdan tuwrı tásir kórsetpekte. Sol sebepli ekologiyalıq oy pikirini qalıplestiriwde milliy mádeniyat hám folklordıń ornı ayrıqsha bolıp esaplanadı. Usıǵan baylanıslı, xalıq awız eki dóretiwshiligi – folklor úlgerinde tábiyat, ekologiya hám insan ortasındaǵı uyǵınlıq máselelerin úyreniw ayrıqsha áhmiyetke iye.

Folklor xalıqtıń áyyemgi dúnyaǵa kóz qarası, ómir filosofiyası hám mádeniyatın ózinde jámlestirgen awız eki dóretiwshilik úlgeri bolıp esaplanadı. Olar arqalı xalıq óziniń ekologiyalıq oy pikirini, tábiyatqa bolǵan húrmetin hám ekologiyalıq



mádeniyatın keleshek áwladlarǵa jetkergen. Folklorda óz kórinisin tapqan ekologiyalıq ideyalardı úyreniw búgingi ekologiyalıq tárbiya procesinde de áhmiyetli orın tutadı.

Qaraqalpaq xalqınıń awız eki dóretiwshiligi – bul xalıqtıń tariyxıy eske alıwı, dúnyaǵa kóz qarası, ruwxıy miyrası hám tábiyat penen qatnasıqların súwretlep beriwshi biybaha deregi bolıp esaplanadı. Folklor arqalı qaraqalpaq xalqı ásirler dawamında ekologiyalıq mádeniyattı, tábiyatqa húrmetti, insan hám qorshaǵan ortalıq ortasındaǵı uyǵınlıqtı násiyat etip kelgen.

Qaraqalpaq folklorı – xalıqtıń turmıs tárizi, jasaw sharayatı, shól hám Ámiwdárya boyındaǵı tábiyyıy ortalıq penen tıǵız baylanıslı. Sonlıqtan qaraqalpaq xalqınıń awız eki dóretiwshiliginde tábiyat obrazları keń hám tereń súwretlengen.

Qaraqalpaq folklorında tábiyat kórinisi oraylıq orınlardan birin iyeleydi. Dástan, qosıq, naqıl - maqallar, jumbaq, rawayat hám erteklerde tábiyat elementleri - jer, suw, terekler, qus, shamal, quyash, jawın kórkem súwretlew elementi emes, al ruwxıy qádiriyat sıpatında da súwretlenedi.

Máselen, “Suwdıń qádirin joǵaltqanda bilersen”, “Aǵın suw bir ketse, qaytıp oralmas”, “Baqshanı kútsen baǵ boladı, kútpesen jantaq boladı”, “Jer de bersen beredi” sıyaqlı naqıl maqallar xalıqtıń ekologiyalıq pikirlewiniń úlgisi esaplanadı. Bul naqıl maqallar tek násiyat emes, al ekologiyalıq mádeniyattı qalıplestiriwdiń áyyemgi xikmetleri bolıp esaplanadı. “Suwsız jer-ómirsiz el”, “Ana jer suw menen saqıy”, “Jer anańdı asıra”, “Terek ekseń – iz qalar”, “Jer ǵáziyne, suw gawhar”, “Suw keldi, nur keldi” sıyaqlı qaraqalpaq naqıl maqallarında xalıqtıń tábiyat penen uyǵınlıqta jasaw principleri óz kórinisin tapqan.

Dástanlarda da tábiyat obrazları insannıń ruwxıy dúnyası menen uyǵınlasqan jaǵdayda súwretlenedi. “Alpamıs”, “Qırıq qız”, “Edige” hám taǵı basqa dástanlarda tábiyat – xalıq turmısı, erkinlik, watan hám sadıqlıq belgisi sıpatında talqılanadı. Tábiyat kórinisleri dástan waqıyalarınıń tiykarǵı fonın qúraydı. Dárya, qum, samal obrazları qaharmanlıq, sabır-taqat, shıdamlılıq sıyaqlı insanıy pazıyletler menen uyǵınlasadı. Dástanlarda tábiyat insanǵa dushpan emes, al insannıń sadıq dostı sıpatında súwretlenedi. Sonday-aq, dástanlarda tábiyattıń pataslanıwı yaki oǵan biyparwa qatnas jawızlıq sıpatında bahalanadı.

Folklor úlgileri arqalı xalıq tek jırlap ǵana qoymastan, onı asıraw zárúrligin eskertip kelgen. Qaraqalpaq xalıq erteklerinde tábiyattı húrmetlew, onı abaylap asıraw motivleri keń orın alǵan. Máselen, “Qumdaǵı gúl”, “Aqqustıń duwası”, “Bulaqtıń kózin japqan bala” sıyaqlı erteklerde tábiyat elemenleri janlı tiri janlar sıyaqlı gewdelenedi. Ertelerde suw dereklerin pataslaǵan, tereklerdi kesken, xaywanlarǵa zulım qılǵan adamlar jazalanıwın súwretlegen. Bul eskertiwler xalıq ekologiyalıq dúnyaǵa kóz qarasınıń joqarı dárejede ekenliginen derek beredi. Ertelerde tábiyat hádiyseleri menen insan pazıyletleri súwretlenedi, terek-saqıylıq, suw-ómir deregi, xaywanlar – bolsa sadıqlıq tımsalı retinde gewdelenedi. Bul arqalı xalıq ekologiyalıq nızamlılıqlardı kórkem usılda súwretlep berip, jaslardıń tábiyatqa mehir muxabbatın payda etiwge umtılgan.

Qaraqalpaq xalıq qosıqları hám besik jırlarında tábiyatqa muhabbat, suw hám jerge ǵámhorlıq ideyaları balalıqtan sińdirilgen. Qaraqalpak xalıq qosıqlarında suw,



dárya, samal, qum, quyash, ay, qus obrazıları kóplesh ushırap, olar tek kórkem bezek emes, al xalıqtıń ruwxıy dúnyasın sıpatlap beriwshi belgiler boladı.

“Dárya aqsa-úmit bar”, “Suwsızlıq – ómir sınawı” sıyaqlı xalıq xikmetleri ekologiyalıq pikirlewdiń áyyemgi tamirlarin kórsetedi.

Folklor shıǵarmaları jas áwladtı tábiyattı jaqsı kóriwge, oǵan ǵamhorlıq penen qarawǵa úyretken. Qosıqlar, naqıl-maqallar, rawayatlar menen ekologiyalıq tárbiya tábiyiy jol menen ámelge asırılǵan. Bul bolsa xalıq pedagogikasınıń eń áhmiyetli tárepleriniń biri bolıp esaplanadı. Máselen, besik jırlarında “Búlbilim baǵda sayraydı”, “Jawın jawsa jer toysa”, “Dárya aqsa, ómir dawam eter” sıyaqlı qatarlar tábiyattı xúrmetlew ruwxın balalıqtan sińdireti.

Qaraqalpaq rawayatları hám ápsanalarında ekologiyalıq mashqalalar kórkem tárizde beriledi. Máselen, “Aral teńiziniń dárti” haqqındaǵı xalıq rawayatları tek ekologiyalıq apatshılıqtı emes, al tábiyattı itibarsız qaldırıw aqıbetlerin súwretleydi. Bul rawayatlar búgingi kúnde ekologiyalıq sananı kóteriwde áhmiyetli derek bolıp xızmet qıladı.

Folklordaǵı ekologiyalıq motivler tek ǵana kórkem emes, al tárbiyalıq áhmiyetke iye bolıp, búgingi kúnde ekologiyalıq mádeniyattı qalıplestiriwde áhmiyetli derek bola aladı. Sol sebepli folklordaǵı ekologiyalıq qaraslardı úyreniw hám úgit násiyat qılıw ekologiyalıq siyasattıń ruwxıy tiykarlarınan biri sıpatında tán alınıwı kerek.

Házirgi dáwirde Aral boyı territoriyasındaǵı ekologiyalıq krizisler - suw jetispewshiligi, shól maydanlarınıń keńeyiwi, xawanıń pataslanıwı sıyaqlı mashqalalar kúsheymekte. Sonday sharayatta qaraqalpaq folklorında ásirler dawamında qalıplesken ekologiyalıq ideyalar qayta tiklew hám olardı oqıw hám de tárbiya procesine engiziw zárúr.

Folklor úlgilerindegi ekologiyalıq qádiriyatlar xalıqtıń ómir filosofiyasınan kelip shıqqan bolıp, olar búgingi jaslardı tábiyattı abaylap asırawǵa, ekologiyalıq juwapkershilikti seziwge baǵdarlaydı.

Qaraqalpaq folklorı insan hám tábiyat ortasındaǵı uyǵınlıqtı tereń kórkem formada sáwlelendirip, dástanlar, ertekler, naqıl-maqallar, qosıqlar arqalı xalıq tábiyattı abaylap asıraw, suwdı, jer hám hawanı qorgaw ideyaların áwladtan áwladqa jetkizgen.

Búgingi ekologiyalıq krizis sharayatında bul áyyemgi ideyalar óz áhmiyetin joyıtpadı, kerisinshe jáne de aktuallastı. Sol sebepli qaraqalpaq folklorındaǵı ekologiyalıq pikirlerdi úyreniw hám násiyat etiw ekologiyalıq mádeniyattı rawajlandırıwdıń áhmiyetli baǵdarlarınan biri bolıp esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. Нөкіс: Қарақалпақстан, 1977-90.
2. Мақсетов К. Қарақалпақ халқының көркем аўызеки дәрәтпелери. – Нөкіс: Билим, 1996



TALABA YOSHLARNING SIYOSIY IJTIMOIYLASHUVIDA YOSHLAR
TASHKILOTLARINING O'RNI

Jiyanmuratova Gulnoz Sherbutayevna

O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti,
sotsologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: gulnozjiyanmuratova@gmail.com

Xojametova Zulxumar Baxitovna

O'zbekiston Milliy universiteti
"Sotsiologiya" mutaxassisligi 1-bosqich magistranti
e-mail: xojametovazulxumar42@gmail.com

ANNOTATSIYA: Talaba yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi jarayonida yoshlar tashkilotlarining roli va funksiyalari sotsiologik tahlil obyekti hisoblanadi. Mazkur tezisda siyosiy ijtimoiylashuv tushunchasi, klassik va zamonaviy siyosiy ijtimoiylashuv modellari, sotsiologik nazariy yondashuvlar hamda yoshlar tashkilotlarining talaba yoshlar siyosiy bilim, fuqarolik kompetensiyasi, liderlik ko'nikmalari va ijtimoiy kapital shakllantirishdagi o'rni masalalari tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: talaba yoshlar, siyosiy ijtimoiylashuv, yoshlar tashkilotlari, fuqarolik kompetensiyasi.

Siyosiy ijtimoiylashuv – shaxsning siyosiy tizim, siyosiy qadriyatlar, me'yorlar va siyosiy xulq-atvor modellarini o'zlashtirish jarayoni bo'lib, u individning fuqarolik pozitsiyasi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur jarayon bir qator ijtimoiy institutlar – oila, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar guruhi hamda jamoat tashkilotlari orqali amalga oshadi. Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yoshlik davri siyosiy identiklik shakllanishining eng faol bosqichi hisoblanadi [1].

Ayniqsa, yoshlar tashkilotlari siyosiy ijtimoiylashuvning institutsionallashtirilgan mexanizmi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ixtiyoriy uyushmalar va yoshlar birlashmalari doirasida ishtirok etish yoshlarda fuqarolik mas'uliyati, jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalari va siyosiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar yoshlar tashkilotlarida ishtirok etgan shaxslarning keyingi hayotida siyosiy faollik darajasi yuqori bo'lishini ko'rsatadi [1].

Zamonaviy sotsiologiyada yoshlar tashkilotlari nafaqat tarbiyaviy institut, balki siyosiy ijtimoiylashuvning mustaqil aktori sifatida qaralmoqda. Ular orqali yoshlar siyosiy kommunikatsiya, liderlik tajribasi, ijtimoiy tashabbus va jamoatchilik ishtirokining amaliy shakllarini o'zlashtiradi [2]. Shu bilan birga, raqamli makon



rivojlanishi natijasida an'anaviy yoshlar tashkilotlari faoliyati yangi onlayn ishtirok formatlari bilan boyimoqda [3].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davlat yoshlar siyosati doirasida yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish va siyosiy madaniyatini yuksaltirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Bu esa talaba yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida yoshlar tashkilotlarining real ta'sir mexanizmlarini sotsiologik jihatdan tadqiq etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Masalaning negiziga qaraydigan bo'lsak, siyosiy ijtimoiylashuv fenomeni XX asrning 2-yarmidan boshlab siyosiy sotsiologiya va ijtimoiylashuv nazariyalarining markaziy tadqiqot obyektlaridan biriga aylanganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur tushuncha shaxsning siyosiy tizim haqidagi bilimlari, qadriyatlarini, siyosiy identikligi va ishtirok modellarining shakllanish jarayonini ifodalaydi. Sotsiologik yondashuvlarda siyosiy ijtimoiylashuv individ va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Siyosiy ijtimoiylashuv konsepsiyasining ilmiy asoslari amerikalik siyosiy sotsiologlar tomonidan ishlab chiqilgan. Ayniqsa, G. Almond va S. Verbaning fuqarolik madaniyati nazariyasi mazkur sohada muhim nazariy burilish yasagan. Ularning fikricha, barqaror demokratik tizim fuqarolarning siyosiy madaniyati va ijtimoiylashuv jarayoni orqali shakllanadi [4]. Ular siyosiy madaniyatni shaxsning siyosiy tizimga nisbatan bilimiy, emotsional va baholovchi munosabatlari yig'indisi sifatida ta'riflaydi. Mazkur munosabatlar esa ijtimoiylashuv jarayoni orqali shakllanadi. Shu jihatdan yoshlik davri siyosiy qadriyatlar mustahkamlanadigan asosiy bosqich hisoblanadi [4].

D. Iston va J. Dennis siyosiy ijtimoiylashuvni siyosiy tizimning barqarorligini ta'minlovchi mexanizm sifatida talqin qiladi. Ularga ko'ra, siyosiy tizim avlodlar almashinuvi jarayonida o'z qadriyatlarini yoshlarga uzatish orqali qayta ishlab chiqariladi. Bu jarayonda ta'lim muassasalari va yoshlar tashkilotlari muhim ijtimoiylashuv agentlari sifatida ishtirok etadi [5].

Zamonaviy sotsiologiyada siyosiy ijtimoiylashuv ko'p agentli jarayon sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar siyosiy ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi asosiy institutlarni quyidagicha tasniflaydilar: oila – dastlabki siyosiy qarashlar shakllanadigan muhit; ta'lim tizimi – institutsional bilim manbai; tengdoshlar guruhi – siyosiy fikr almashinuv maydoni; ommaviy axborot vositalari; fuqarolik jamiyati institutlari; yoshlar tashkilotlari.

Sotsiolog M. Xenks ixtiyoriy uyushmalarda ishtirok etish shaxsning kelgusidagi siyosiy ishtirok darajasi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlagan. Unga ko'ra, jamoat tashkilotlari «amaliy demokratiya maktabi» vazifasini bajaradi, ya'ni individ siyosiy rollarni amaliy tajriba orqali o'zlashtiradi [1].

Neoinstitutsional yondashuv nuqtai nazaridan yoshlar tashkilotlari siyosiy ijtimoiylashuvning maxsus institutsional muhitini shakllantiradi. Ular orqali yoshlar jamoaviy qaror qabul qilish, liderlik, ijtimoiy mas'uliyat, siyosiy muloqot, fuqarolik ishtiroki mexanizmlarini o'rganadi. Tadqiqotlar yoshlar tashkilotlari



ishtirokchilarining siyosiy samaradorlik hissi yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa shaxsning siyosiy jarayonlarda o'z ta'sirini his qilishi bilan bog'liq.

R. Garipov yoshlar jamoat tashkilotlarini siyosiy tizim va fuqarolar o'rtasidagi mediator institut sifatida ta'riflaydi. Ularning asosiy funksiyasi – ijtimoiy kapital shakllantirish va yoshlarni jamoatchilik ishtirokiga jalb qilishdir [2].

XXI asrda siyosiy ijtimoiylashuv an'anaviy institutlar doirasidan chiqib, raqamli muhitga ko'chmoqda. Onlayn hamjamiyatlar, talabalar platformalari va yoshlar harakatlari virtual tashkilotlar sifatida faoliyat yuritmoqda.

A. Svistunov tadqiqotlariga ko'ra, raqamli makonda ishtirok etuvchi yoshlar siyosiy axborotni tezroq o'zlashtiradi va siyosiy pozitsiyasini ertaroq shakllantiradi. Biroq onlayn ijtimoiylashuv an'anaviy tashkilotlardagi institutsional tajriba o'rnini to'liq bosolmaydi [3]. Shu sababli zamonaviy siyosiy ijtimoiylashuv gibridd xarakter kasb etmoqda, ya'ni oflayn yoshlar tashkilotlari va onlayn kommunikatsiya muhiti birgalikda ta'sir ko'rsatmoqda.

Talaba yoshlar ijtimoiy strukturada tranzitiv ijtimoiy guruh hisoblanib, ularda siyosiy qarashlar, fuqarolik pozitsiyasi va ijtimoiy identiklik faol shakllanish bosqichida bo'ladi. Universitet muhitida amalga oshadigan ijtimoiylashuv jarayonlari nafaqat akademik bilimlarni o'zlashtirish, balki ijtimoiy va siyosiy kompetensiyalarni shakllantirish bilan ham xarakterlanadi. Mazkur jarayonda yoshlar tashkilotlari muhim ijtimoiylashuv instituti sifatida namoyon bo'ladi.

Sotsiologik nuqtai nazardan yoshlar tashkilotlari talaba yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuviga bir nechta o'zaro bog'liq funksiyalar orqali ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar tashkilotlari siyosiy bilimlarni norasmiy ta'lim mexanizmi orqali uzatadi. Turli seminarlar, debatlar, forumlar va jamoatchilik muhokamalari orqali talabalar siyosiy jarayonlar mohiyatini amaliy misollar asosida anglay boshlaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tashkilotchilik faoliyatida ishtirok etgan talabalar siyosiy axborot manbalaridan faolroq foydalanadi va siyosiy voqelikni tanqidiy baholash qobiliyati yuqoriroq bo'ladi [6]. Bu holat siyosiy ijtimoiylashuvning kognitiv komponenti shakllanishini ta'minlaydi.

Yoshlar tashkilotlari talabalarni jamoaviy qaror qabul qilish jarayoniga jalb etadi. Loyihalarni amalga oshirish, tashabbus ko'rsatish va jamoaviy mas'uliyatni bo'lishish orqali talabalarda fuqarolik kompetensiyasi rivojlanadi. Xenks tadqiqotlariga ko'ra, ixtiyoriy uyushmalarda ishtirok siyosiy ishtirokning keyingi shakllari – saylovlarda qatnashish, jamoatchilik faolligi va siyosiy muhokamalarda ishtirok bilan kuchli korrelyatsiyaga ega [1]. Shu tariqa, yoshlar tashkilotlari “amaliy demokratiya laboratoriyasi” vazifasini bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarda siyosiy ijtimoiylashuvning muhim natijalaridan biri – siyosiy rol identifikatsiyasi hisoblanadi. Yoshlar tashkilotlarida talabalar lider, tashkilotchi, koordinator, jamoatchilik faoli kabi rollarni amaliy ravishda bajaradi. Yoshlar tashkilotlari jamoaviy tajriba orqali umumiy maqsadlar va qadriyatlarni shakllantiradi.



R. Garipov ta'kidlashicha, jamoat tashkilotlarida ishtirok etuvchi yoshlarda ijtimoiy ishonch darajasi yuqori; jamoaviy mas'uliyat kuchli; siyosiy befarqlik past bo'ladi [2]. Bu siyosiy ijtimoiylashuvning affektiv komponenti shakllanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, yoshlar tashkilotlari talabalar o'rtasida gorizontal ijtimoiy aloqalarni rivojlantiradi. Tengdoshlar bilan muloqot siyosiy fikrlar almashinuvini kuchaytiradi va plyuralistik dunyoqarashni shakllantiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar siyosiy ishtirok ko'p hollarda formal ta'limdan ko'ra *peer interaction* (tengdoshlar bilan o'zaro ta'sir) orqali shakllanishini ko'rsatadi [7]. Shu sababli yoshlar tashkilotlari ijtimoiy kapital generatori sifatida qaraladi.

O'zbekistonda jamiyat modernizatsiyasi va davlat boshqaruvini demokratlashtirish jarayonlari yoshlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasini davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosati yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi, huquqiy madaniyati va siyosiy ishtirokini rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Sotsiologik nuqtai nazardan qaralganda, O'zbekistonda talaba yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvi an'anaviy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri asosida kechmoqda. Bu jarayonda oila va ta'lim muassasalari bilan bir qatorda yoshlar tashkilotlari muhim ijtimoiylashuv agenti sifatida faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni davlat va jamiyat boshqaruvida ishtirok etishga tayyorlashni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Bu maqsadda turli yoshlar institutlari va jamoat birlashmalari faoliyati qo'llab-quvvatlanmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, institutsional qo'llab-quvvatlash mavjud bo'lgan jamiyatlarda yoshlarning siyosiy ishtirok darajasi yuqoriroq bo'ladi [8]. Universitet muhiti ijtimoiy rollar diversifikatsiyasi yuqori bo'lgan makon hisoblanadi. Talabalar turli ijtimoiy guruhlar bilan muloqotga kirishadi, bu esa siyosiy qarashlar shakllanishini tezlashtiradi.

Sotsiologik tahlillar ko'rsatishicha, jamoat tashkilotlarida ishtirok etgan talabalarda jamiyatga daxldorlik hissi, nisbatan ijtimoiy mas'uliyat va davlat institutlariga ishonch kuchliroq shakllanadi. Bu holat ijtimoiy kapital nazariyasi bilan izohlanadi, ya'ni jamoaviy faoliyat individning jamiyat bilan integratsiya darajasini oshiradi. O'zbekiston sharoitida yoshlar tashkilotlari nafaqat ijtimoiylashuv instituti, balki davlat va yoshlar o'rtasida kommunikativ ko'priq vazifasini bajarayotgani kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Hanks M. Youth, Voluntary Associations and Political Socialization // Social Forces. 1981. Vol. 60, No. 1. P. 211-230. URL: <https://academic.oup.com/sf/article-abstract/60/1/211/1938323>



2. Garipov R. Youth Public Organizations as a Political Actor // Vector of Ecology and Education. 2023. Vol. 22, No. 3. P. 45-58. URL: <https://journals.eco-vector.com/2223-0092/article/view/537624>
3. Svistunov A. Political Socialization of Youth under Digitalization // RUDN Journal of Sociology. 2025. Vol. 25, No. 4. P. 88-102. URL: <https://journals.rudn.ru/sociology/article/view/45089>
4. Almond G., & Verba S. Civic culture. Princeton: Princeton University Press, 1963. 352 p.
5. Easton, D., & Dennis, J. Children in the political system. New York: McGraw-Hill, 1969. 256 p.
6. Koryakovtseva O. Social and Political Socialization of Students' Youth // AlmaVEST Journal. 2020. No. 09 (20). P. 23-34. URL: <https://almavest.ru/en/doi/10-20339-am-09-20-023>
7. Journal of Applied Developmental Psychology. Political Socialization of Youth. 2020. Vol. 68. P. 101-115. URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0193397320301805>
8. Rasulov A. The Importance of Youth-Oriented Structures in Political Socialization of Youth // International Journal of Education and Research. 2024. Vol. 12, No. 4. P. 15-28. URL: <https://ijero.co.uk/index.php/ijero/article/view/417>



**QORAQALPOG'ISTON HUDUDI VA MADANIYATIGA OID
MATERIALLARNING MAHALLIY TELEKANALLARDA YORITILISHI
MASALALARI**

Dauletbaeva Dilshada Dastanovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq
davlat universiteti tayanch doktoranti

ddilshoda1810@gmail.com,

<https://orcid.org/0009-0003-5416-6399>

Annotatsiya: Maqolada so'nngi yillarda qoraqalpoq hududi, xalqi va madaniyatiga oid sayohat jurnalistikasi yo'nalishidagi materiallarning mahalliy telekanal "Qaraqalpaqstan"da berilishi tahlil qilinadi. Tahlillar yakunida taraqqiyotini ta'minlash maqsadida takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm, travel jurnalistika, sayohat jurnalistikasi, Qaraqalpaqstan, muzeyga sayohat, Tv travel, Tv sayaxat, Online sayohat, maxsus reportaj, suhbatda sayohat, haqiqatli, ko'ngilochar, iste'molchi rejimi.

Kirish: Turizm butun dunyoda iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda so'nggi yillarda turizmni rivojlantirish, turistlar uchun qulay va xavfsiz sharoitlar yaratish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlar soni sezilarli darajada ortib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2016-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasiga 6 ming 270 nafar turist [1] kelgan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 50 ming nafarga [2] yetgan. 2025-yilda esa hudud 405,8 ming nafar [3] xorijiy sayyohni qabul qilgan. Turizm infratuzilmasining kengayishi bilan bir qatorda, hududning turistik salohiyatini targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mahalliy telekanallarda tayyorlanayotgan sayohat jurnalistikasi materiallari hududning tarixiy-madaniy merosini keng auditoriyaga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Mazkur tezisda "Qaraqalpaqstan" teleradiokanalida efirga uzatilgan sayohat jurnalistikasi materiallari tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Zamonaviy trevel-dasturlar (sayohat ko'rsatuvlari) trevel-jurnalistikaning eng yorqin ko'rinishi bo'lib, o'zida bir necha janrlarni birlashtiradi. Tarixan geografik ko'rsatuvlar hujjatli-ilmiy filmlar, safar ocherklari va ta'limiy film-ma'ruzalar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, zamonaviy televideniye janri sifatida ular hujjatli film elementlari, ta'limiy dastur, boshlovchi ishtirokidagi ko'ngilochar tok-shou, realiti-shou, serial va reklama roligini o'z ichiga oladi [4]. Shuningdek, travel-dasturlar muallifning kommunikativ maqsadlariga qarab



hujjatli, ko'ngilochar yoki iste'molchi xarakteriga ega bo'lishi mumkin ekanligini ta'kidlanadi.

1. Haqiqatli rejim – tomoshabinni bilim oluvchi sifatida ko'radi va asosiy e'tibor ma'lumot berishga qaratiladi.
2. Ko'ngilochar rejim – tomoshabinni do'st sifatida ko'radi va dam olish hamda qiziqarli kontent taqdim etishga yo'naltiriladi.
3. Iste'molchi rejimi – tomoshabinni turist sifatida ko'radi va sayohat qilishga ilhomlantirishni maqsad qiladi.[5].

Tahlil va natijalar: “Qaraqalpastan” teleradiokanalining ko'rsatuvlari 2020-yildan boshlab qilinganda, 2020-2022-yillarda “Assalawma Áleykum, Qaraqalpaqstan!” tongi dasturida “Muzeysga sayohat” (“Muzeysge sayaxat”) rubrikasi har oyda ikki marta (ba'zan 1 marta) 7:00 dan 7:40 gacha, takroran 12:00dan 12:40 gacha efirga berilganligi aniqlandi. Rubrika uchun 3 soniyadan 10 soniya davomiyligiga ega (efir vaqtiga qarab o'rgartirilgan) rubrika shapkasi bilan efirga uzatilgan. Rubrika asosan QR I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyi va QR tarixi va madaniyati davlat muzeyi xodimlari bilan hamkorlikda tayyorlangan. Tadqiqot uchun ko'rsatuvning 2020 yilda efirga berilgan 7ta soni tahlil qilinganda rubrika davomiyligi 3 daqiqadan 9 daqiqa oralig'ini tashkil etgani aniqlandi. Rubrikaning 22-yanvar, 2-fevral, 9-mart kuni efirga berilgan sonlari M.Allaniyazova tomonidan QR tarixi va madaniyati davlat muzeyi tabiat bo'limidan mintaqada uchraydigan hayvonlar va qushlar haqida reportaj shaklida tayyorlangan. Har birida 1 nafar muzey xodimidan 1 daqiqa 38 soniyalidan 2 daqiqa 53 soniya davomiyligidagi intervyular olingan. 29-oktabr kuni efirga berilgan rubrika M.Allaniyazova va A.Izimbetova (kadr orti matn o'qiydi) tomonidan QR I.V.Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyida Rofael Motivatsiyan va M.A.Vrubel ijodi, asarlari haqida tayyorlanadi. 8:50 soniyali rubrikada ijodkorlarning ishlarini sharhlashda 2 nafar muzey xodimining intervyularidan foydalaniladi. 3-noyabr kuni berilgan rubrikada qoraqalpoq ayol qizlarining taqinchoqlari haqida QR tarixi va madaniyati davlat muzeyi xodimi Rayxan Da'wenova 4:54 soniya ma'lumot beradi. 14 dekabr kuni A.Baltabaeva tomonidan tayyorlangan rubrikada “Sahro so'zlaydi” ko'rgazma tafsilotlari beriladi. 5:48 davomiyligidagi rubrikada 2 nafar mutaxassisning intervyusi beriladi.

Shuningdek, 2020 yilda butun dunyoda yuz bergan COVID-19 pandemiyasi davrida ham muzeylar, ko'rgazma saroylari tomonidan tashkil etilgan online ko'rgazmalar rubrika sonlarida efirga berilgan. Xususan, 2020 yil 16 - iyun kuni ko'rsatuvga A.Arziev boshlovchilik qilib, rubrikada QR tarixi va madaniyati davlat muzeyi tomonidan tashkil etilgan to'qimachilik hunari tarixi mavzusidagi online ko'rgazma tashkil etilganligi bo'yicha 6 daqiqa 50 soniyali syujet beriladi. Unda muzeyning Etnografiya bo'limi 5 nafar mutaxassisi ma'lumot beradi. Yil davomida mamlakatning turizm salohiyatini ko'rsatish uchun “Muzeysga sayohat” rubrikasidan tashqari, internetdan olingan rasmlar yoki telekanal arxividagi bor kadrlar asosida “Online sayohat” rubrikasi ham efirga berilgan. Uning 17-noyabr kuni efirga berilgan soni X.Ermekbaeva tomonidan internet materiallari va telekanalning arxiv materiallari asosida tayyorlanib, 2:15 soniyali kadr orti matnda Qoraqalpog'iston hududida sayohat



qilish mumkin bo'lgan 7 ta joy haqida qisqa ma'lumot beriladi. Lekin kadr orti matn o'qilganda muallif titri berilmaydi.

2021 yilda ham “Assalawma a'leykum, Qoraqalpaqstan!” tonggi dasturida tarkibida davlatning turizm salohiyatini ko'rsatish uchun hududdagi muzey xodimlari bilan “Muzeyga sayohat” rubrikasini tayyorlab, efirga berilishi davom ettirildi. 2021 yilning aprel oyidan boshlab ko'rsatuv jonli tarzda efirga berilsa ham, rubrikarubrika an'anaviy yozib olish usulida tayyorlangan. Faqat boshlovchilarning studiyaga mehmon taklif qilgan holda ular bilan jonli muloqot qilishgan.

Yil davomida efirga berilgan ko'rsatuv sonlari tahlil qilinganda rubrika har oyda 2 martadan efirga berilganligi aniqlandi va ularning 7 ta soni tadqiqot uchun tanlab olindi. 16-yanvar, 14-iyul va 13-noyabr kunlari efirga berilgan rubrika sonlari ko'rsatuv sonlarida QR tarixi va madaniyati davlat muzeyida tayyorlangan. 16-yanvar kuni A.Baltabaeva tayyorlagan reportajda muzey mutaxassisi qoraqalpoq ayol qizlarining kiyimlaridan kiymesheklar haqida ma'lumot bergan bo'lsa, 14-iyul kuni 9 daqiqali rubrikada 2ta mutaxassis dastlabki 4 daqiqasida Qoraqalpog'istonning flora va faunasi haqida so'z yuritsa, keyingi 5 daqiqada 2-mutaxassis Shaxyul-Islom Narinjon bobo ziyoratgohi haqida ma'lumot beradi. 13-noyabr kuni esa JumeK O'rinbaev faoliyatiga bag'ishlangan ko'rgazma haqidagi syujet efirga beriladi. 20-mart, 24-may, 22-sentabr kunlari efirga berilgan rubrika sonlari QR I.V. Savitskiy nomidagi davlat san'at muzeyidan tayyorlangan. Rubrikaning 20-mart kungi soni Navro'z bayrami, qoraqalpoq xalqining milliyligini ifodalagan rassomlarning ishlari haqida ma'lumot bersa, Sh.Reymova tomonidan reportaj shaklida tayyorlangan 24-may kuni sonida esa Amara - vella guruhi rassomlarining ishlariga to'xtalib o'tiladi. 22-sentabr kuni esa muzeyning xodimi M.Adilbaeva 7 daqiqa davomida “Orol bo'yi arxeologiyasi - Qoraqalpog'iston madaniy merosi” mavzusidagi ko'rgazma haqida teletomashabinlarga ko'rgazmadan o'rin olgan eksponatlar, ossuariylardagi naqshlarning mazmuni haqida ham to'xtalib o'tib ma'lumot beradi.

Ichki turizmni rivojlantirish maqsadida “Nuroniylar haftaligi” doirasida nuroniylar ishtirokida tashkil etilgan Xiva shaxriga qilingan sayohatlar haqida reportajlar efirga beriladi. Ularning biri 13-oktabr kuni G.Allamberganova tomonidan tayyorlanib, qariyb 13 daqiqa davomiylikka ega reportajda jurnalist sahoyatdan 3ta stend-up va 4ta sinxron beradi. Undan tashqari 18-noyabr kuni “Noyabr oyligi keksalar uchun turizm oyligi” sifatida belgilanganligi doirasida nuroniylar uchun muqaddas qadamjolariga sayohat tashkil etilgani haqida Z.Jiyemuratova tomonidan tayyorlangan 10:47 soniyali reportaj efirga beriladi. Unda safar taassurotlari haqida 6 ta sinxron beriladi lekin jurnalist faqat kadr orti matn o'qish bilan cheklangan.

2025-yilda “Assalawma a'leykum, Qoraqalpaqstan!” tonggi dasturida qoraqalpoq milliyligini aks ettiruvchi taomlar, kiyimlar, taqinchoqlar, cholg'u asboblari, tarixiy manzillar yoki hududga xos madaniyatni aks ettiruvchi televizion materiallar asosan syujet holatida berilgan. Ko'rsatuvni tahlil qilish davomida



muzeylardagi har bir eksponat haqida ma'lumot beruvchi "Muzeysga sayohat" yoki xorij davlatlarda bo'lib ularning ilmiy va madaniy yangiliklarini o'rgangan pedagog kadrlar bilan tayyorlanadigan "Suhbatda sayohat" singari rubrikalarni uchratmaysiz. Har bir kun uchun mavzu tanlanadi va o'sha kungi studiya mehmonlari va tayyorlangan syujetlar asosan shu mavzuni yoritishga qaratiladi. Xususan, 2025-yil 28-iyun kuni efirga berilgan ko'rsatuvning mavzusi QRda turizm sohasida amalga oshirilayotgan ishlar. Qariyb bir soat (53:22 soniya) davom etgan ko'rsatuvga 4 nafar mehmon taklif qilingan bo'lsa, ularning 3 nafari turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, mavzuga oid mamlakatning turizm potensialini ko'rsatib beruvchi 2 daqiqalik rolik va 3ta syujetlar beriladi. Undan tashqari Xalqaro turizm kuni munosabati bilan ko'rsatuvning 27-sentabr kungi soni xalqaro turizm mavzusiga bag'ishlanadi. Sana munosabati bilan studiyaga 3ta mutaxassis taklif qilinadi va ular bilan boshlovchilar N.Bashbayev va D.Usnatdinovalar suhbatlashishadi. Ko'rsatuvning dastlabki 5 daqiqasida teletomoshanlar bilan salomlashib, 2 daqiqalik rolik efirga beriladi. Shundan so'ng QR Madaniy meros boshqarmasi bosh mutaxassisi Sh.Pirnazarova va Qoraqalpog'iston tarixi va madaniyati muzeyi bo'lim boshlig'i I.Aynazarovalar bilan ko'rsatuv davomida suhbat quriladi.

Ichki turizmni rivojlantirish borasida tashkil etiladigan mamlakatning ichidagi sayohatlar ham syujet shaklida efirga beriladi. Masalan 1.07.25 yili Qonliqo'l tumani hokimligi tomonidan tumandagi faol fuqarolar ishtirokida tashkil etilgan Xiva shahriga sayohati haqida syujet beriladi. 3:51 soniya davomiyligidagi G.Habibnazarova tayyorlangan reportajda kadr orti matn va 1 ta sinxron beriladi.

Tadqiqot uchun tanlab olingan 5 ta syujetda turli mavzular yoritiladi. Xususan, 21-mart kungi Navro'z bayramiga bag'ishlangan ko'rsatuvning sonida G.Allabembergenova 10:49 soniyali reportajni efirga beradi. Unda 3 ta sinxron va 3ta sted-updan foydalanadi. Ko'rsatuvning 25-aprel kuni efirga berilgan 58:03 soniyali sonida boshlovchilar N.Bashbayev va D.Usnatdinova juma kuni mamlakatimizda milliy kiyimlar kuni sifatida nishonlanishi va bugun mavzuga oid 5ta mexmonimizni studiyaga ekanligini e'lon qiladi. N.Bashbayev studiya mehmonlaridan 4 nafari ko'rsatuvning 4:45 soniyasida tanishtiradi, muzey xodimini esa tanishtirishni unutadi. Ko'rsatuvning 28:10-soniyasida Qoraqalpoq tarixi va madaniyati muzeyidan taklif qilingan mutaxassis A.Aytmuratovani tanishtirib, undan xorijiy sayyohlar va tadqiqotchilarning e'tiborini tortayorgan eksponatlar haqida 3ta savolga javob olinadi. Ko'rsatuvning 27-iyul kuni efirga berilgan sonida G.Habibnazarovning 5:29 soniyali Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti va tarixi davlat muzeyi faoliyati va yaqinda topilgan ko'zalar haqidagi reportaji efirga beriladi. Reportajda kadr orti mant va 2 nafar muzey bo'lim boshliqlarining intervyusi beriladi.

2025 yil 3-avgust kuni efirga berilgan ko'rsatuvda M.Abdimova va M.Allanazarovlar boshlovchilik qilib, ko'rsatuvning 40-daqiqasida dunyoga mashhur muzeylarning birining asoschisi I.V.Savitskiy tavalludining 110 yilligi mamlakatda



keng turda nishonlanayotganini aytib, studiyaga 2 nafar mehmon taklif qilingan. Studiya mehmonlari (muzeyning Arxeologiya bo'lim boshlig'i O.Dospanov va muzey ilmiy kotibi B.Yusupova) bilan qariyb 18 daqiqa davomida suhbat quriladi. Suhbat davomida I.V.Savitskiyning muzeyni tashkil etishdagi harakatlari haqida 2:45 soniyali rolik beriladi. Rolikda ekranning chap tomoni pastki qismida Qoraqalpog'iston - ulug' insonlar makoni (Qoraqalpaqstan - Ulli insonlar ma'ka'ni) titri berilgan. 18-avgust kungi ko'rsatuvda Guljamal Dawletnazarova tomonidan tayyorlangan 4:46 soniyali reportaj efirga beriladi. Jurnalist kadr orti matn va 2ta sinxron orqali Kegeyli tumani Iyshanqala qo'rg'onida olib borilayotgan restavratsiya ishlari haqida ma'lumot beradi. Lekin jurnalist voqae joyidan stend-uplarni amalga oshirmagan.

Unda tashqari "Qoraqalpaqstan" teleradiokanali orqali hududning turistik imkoniyatlarini yorituvchi reportajlar muntazam efirga uzatilmoqda. Jumladan, "Xabar" informatsion dasturining 2025-yil 4-dekabr kungi sonida Qoraqalpoq etno qishlog'ining eng namunali turizm obyekti ekanligi haqida 6:30 daqiqalik reportaj efirga berildi. Shuningdek, 10-sentabr kuni 16:21 soniyali Qoraqalpog'istondagi yangi turizm manzillari va 22-iyun kuni turizm sohasiga bag'ishlangan 31:09 soniyali "Maxsus reportaj"lar namoyish etildi. Bundan tashqari, "Qoraqalpastan Aqshami" ko'rsatuvining 2025-yil 28-sentabr sonida (55:17 soniya) hududdagi turizm rivoji va amalga oshirilayotgan ishlarni yoritdi.

2026-yil mart oyidan sayohat jurnalistikasiga oid "TV sayaxat TV travel" nomida ko'rsatuv efirga berib boshlandi. Unga 18 soniyali Qoraqalpog'istonning tarixiy maskanlarini ifodalagan ko'rsatuv shapkasi ishlangan va boshlovchilari: N. Xojanazarova (qoraqalpoq tilida) va Ramazan Baygabilov (rus tilida). Ko'rsatuv mart oyining birinchi haftasi dushanba, chorshanba va juma kuni 19:15da efirga berildi va ko'rsatuv homiysi "FJ TRAVEL" MCHJ. 2-mart kuni soni 13:24 soniya davom etib, unda Beruniy tumanida joylashgan "Qizilqal'a" tarixiy maskani haqida kadr orti va boshlovchilar almashib stend-uplar orqali ma'lumot berishdi. Shuningdek safar taassurotlari haqida Fransiyadan kelgan turistlar (Amine Belmadi va Mounir Belmadi) ning va hudud haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotlarni O'zbekiston Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi doktoranti Abdulla Mamedovning intervyulari beriladi. Ko'rsatuvning davomiyligi 14 daqiqani tashkil etgan 4-mart kuni sonida Ellikqal'a tumanida joylashgan Tuproqqala haqida boshlovchilar stend-uplar orqali qoraqalpoq va rus tilida, mutaxassis A.Mamedov qoraqalpoq tilida ma'lumot beradi. Ko'rsatuvning 6-mart kuni efirga berilgan 13:40 soniyali sonida "Shilpiq" haqida mutaxassis A.Mamedov va boshlovchilar ma'lumot berishadi.

Ko'rsatuvning yutug'i – Qoraqalpog'istonning turistik salohiyatini alohida yoritishi va kadrlar orqali tomoshabinni jalb qilishi, shuningdek, boshlovchilar hududlarga borib, faqat kadr orti ma'lumot bilan cheklanmasdan, bugungi ko'rinishni namoyish etishi bilan izohlanadi. Kamchiligi esa, mart oyining birinchi haftasida efirga uzatilgan uch sonning har birida faqat bitta mutaxassisning intervyusi kiritilganligi,



jurnalistlar tomonidan turli ekspertlarni jalb qilish orqali diversifikatsiya qilinishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlovchilar va mutaxassislarning bir xil kiyimi esa ko‘rsatuvning uchta soni bir kunda syomka qilinganligini taxmin qilishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi besh yillikda Qoraqalpog‘istonning turistik salohiyati, boy tarixi va o‘ziga xos milliy qadriyatlarini yorituvchi media-mahsulotlar soni va hajmi sezilarli darajada oshdi. Tahlillar sohada xorijiy tillardan (rus tilidan tashqari) foydalanish darajasi pastligi va kontent rang-barangligi borasida ayrim kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

Sohani rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- **Ixtisoslashuv:** Turizm jurnalistlari guruhini shakllantirish orqali ko‘rsatuvlarni umumiy ma‘lumotlardan faktlarga boy, qiziqarli ssenariylarga o‘tkazish.
- **Til bilimi:** Jurnalistlarning xorijiy tillarni o‘rganishi va sayyohlar bilan bevosita muloqot qilishi mamlakatning xalqaro imidjini yuksaltirishga xizmat qiladi.
- **Formatni yangilash:** Efirda takroriylikni kamaytirib, dinamik roliklar, muzeylar va servis markazlari haqidagi qisqa metrajli kreativ kontentlar miqdorini oshirish.

Xulosa qilib aytganda, hududiy media-mahsulotlarning ko‘p tilli va zamonaviy gibrid janrlarga o‘tishi Qoraqalpog‘istonning turistik jozibadorligini yangi bosqichga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/07/10/kr-tourist/>
2. <https://yuz.uz/oz/news/qoraqalpogistonning-turizm-salohiyatini-yuksaltirishga-malakali-kadrlar-tayyorlash-bilan-hissa-qoshamiz>
3. <https://karakalpakstan.travel/media-and-resources/media-and-resources-59/?setlang=uz>
4. Показаньева Инна Владимировна «Проблемное поле трэвел-журналистики как явления современного медиапространства» №3. 2013г.
5. <https://cyberleninka.ru/article/n/problemnoe-pole-trevel-zhurnalistiki-kak-yavleniya-sovremennogo-mediaprostranstva/viewer>



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

INTERYER DIZAYN TERMINLARINING STRUKTUR JIHATI: SODDA
LEKSEMALAR

Maxsudova Xosiyatbonu Utkirbek qizi
Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida doktoranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi interyer dizayn sohasidagi sodda terminlarning struktur xususiyatlari tahlil qilinadi. Terminologiya nazariyasida termin oddiy soʻz yoki koʻp soʻzli ifoda shaklida namoyon boʻlishi mumkin; sodda termin esa odatda bitta oʻzakli, bitta nominativ markazga ega birlik sifatida qaraladi. Oʻzbek tilshunosligida ham “sodda termin” alohida struktur tur sifatida ajratiladi. Interyer dizayn esa meʼmoriy ichki makon va uning jihozlanishini rejalash hamda amalga oshirish bilan bogʻliq maxsus soha hisoblanadi.

Kalit soʻzlar. Interyer dizayn, terminoleksika, sodda termin, oʻzlashma termin, anglisizm, tokcha, soʻzana, parket, karniz, loft.

STRUCTURAL ASPECT OF INTERIOR DESIGN TERMS: SIMPLE
LEXEMES

Makhsudova Khosiyatbonu
Phd student of Andijan state institute
of foreign languages

Abstract. This thesis analyzes the structural features of simple terms used in the field of interior design. In terminology theory, a term may appear either as a single word or as a multi-word expression; a simple term, however, is generally regarded as a unit consisting of one root and one nominative center. In Uzbek linguistics as well, the “simple term” is distinguished as a separate structural type. Interior design, in turn, is considered a specialized field concerned with the planning and implementation of architectural interior space and its furnishing.

Key words. Interior design, terminolexis, simple term, borrowed term, anglicism, shelf niche, suzani, parquet, cornice, loft.

Bugungi tilshunoslikda termin oddiy soʻzdan farqli ravishda muayyan fan yoki kasb doirasidagi maxsus tushunchani aniq ifodalovchi birlik sifatida qaraladi. Termin uchun izchillik, aniqlik, maxsus taʼrifga egalik va professional qoʻllanish muhim belgilar deya ayta olamiz. Shu maʼnoda interyer dizayn ham mustaqil terminologik tizimga ega boʻlgan sohalardan biridir. Interyer dizayn inson yashaydigan yoki ishlaydigan ichki makonni rejalashtirish, uning funksional, estetik va konstruktiv jihatlarini uyqʻunlashtirish bilan bogʻliq faoliyat turi hisoblanadi.



Interyer dizayn terminoleksikasi tarkiban bir xil emas. Unda milliy-madaniy qatlamga mansub birliklar ham, xalqaro terminlar ham, zamonaviy o‘zlashmalar ham uchraydi. Ayniqsa, bugungi globallashuv sharoitida bu soha lug‘at tarkibiga inglizcha manbali birliklar faol kirib kelmoqda. Biroq terminologik tizimning tayanch nuqtasini ko‘pincha sodda terminlar tashkil etadi. Chunki aynan bir so‘z bilan ifodalanadigan terminlar esda saqlashga qulay, tez anglashiladi va ilmiy-amaliy nutqda faol ishlatiladi.

Terminologik birliklar struktur qurilishiga qarab, asosan, bir so‘zdan iborat terminlar hamda bir necha so‘zli termin birikmalariga bo‘linadi. Ana shu tasnif doirasida sodda termin yagona so‘z bilan ifodalanuvchi termin sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday terminning belgisi uning bir komponentdan tashkil topganidir. Ya‘ni unda bitta nomlash markazi mavjud bo‘ladi. Mazkur xususiyat sodda terminlarni murakkab va ko‘p komponentli terminlardan ajratib turadi. Shuningdek, sodda termin qisqa shaklda bo‘lsa-da, semantik jihatdan sarmazmun bo‘lishi mumkin [1].

O‘zbek terminologik tajribasida sodda terminlar faqat bitta qatlam bilan cheklanmaydi. Ular tub birliklar, yasama birliklar yoki o‘zlashgan birliklar shaklida namoyon bo‘ladi. Monografik tadqiqotlarda tub terminlar va yasama terminlar terminologik tizimning muhim qismi ekani ko‘rsatilgan; boshqa ishlarda esa interyer dizayn terminlarining salmoqli qismi o‘zlashmalar, xususan anglisizmlar hisobiga boyib borayotgani qayd etiladi. Demak, “sodda termin” tushunchasi faqat mahalliy birliklarni emas, balki bir so‘z shaklida o‘zlashgan terminlarni ham qamrab oladi [2].

Mazkur sohada sodda terminlar ikki asosiy yo‘nalishda shakllanadi. Birinchi yo‘nalish — milliy-madaniy terminlar. Bunday birliklar o‘zbek turmushi, uy-joy madaniyati va bezak an‘analari bilan bog‘liq bo‘lib, *tokcha*, *xontaxta*, *so‘zana* kabi so‘zlarda namoyon bo‘ladi. Ikkinchi yo‘nalish — xalqaro va o‘zlashma terminlar. Masalan, *dekor*, *dizayn*, *loft*, *molding*, *sofa*, *parket*, *karniz* singari birliklar interyerga oid zamonaviy nutqda keng ishlatiladi. Bu ikki qatlamning parallel mavjudligi interyer dizayn terminoleksikasining ochiq va dinamik tizim ekanini bildiradi.

O‘zlashma qatlamga mansub sodda terminlar ichida *parket* alohida o‘rin tutadi. Merriam-Webster lug‘atida *parquet* naqshli yog‘och sirt, ayniqsa pol qoplamasi sifatida izohlanadi. O‘zbek interyer nutqida ham bu birlik aynan pol materiali va bezak turi nomi sifatida ishlatiladi. Uning afzalligi shundaki, termin qisqa, aniq va xalqaro maydonda deyarli bir xil shaklda taniladi. Shu sababli parket sodda termin sifatida professional muloqotda yuqori funkcionallikka ega [3].

Shuningdek, *karniz* termini ham sodda terminlarning amaliy quvvatini yaqqol ko‘rsatadi. Merriam-Webster manbasida *cornice* me‘moriy kompozitsiyani yakunlovchi gorizontaal element hamda parda moslamalarini yashiruvchi dekorativ detal sifatida izohlanadi. O‘zbek interyer amaliyotida karniz aynan parda tizimi va bezak elementlari bilan bog‘liq termin sifatida faol ishlatiladi. Bu yerda bir so‘zli terminning bir nechta funksional sohani qamrab olishi uning semantik sig‘imini oshiradi [4].

Interyer dizayn tilida *dekor*, *dizayn*, *molding*, *sofa* kabi birliklar ham bir so‘zli terminlar sifatida yashaydi. Tadqiqotlarda ularning bir qismi to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘zlashgan, bir qismi esa transliteratsiya orqali o‘zbek tiliga kirgani ko‘rsatilgan. Bunday terminlar shaklan sodda bo‘lgani sababli tez ommalashadi, reklama, katalog,



loyiha hujjati va kundalik professional suhbatda qulay qo‘llanadi. Tahliliy jihatdan qaraganda, aynan sodda terminlar keyingi bosqichda *loft uslubi, dekor paneli, parda karnizi, parket pol* kabi birikmali terminlar uchun tayanch vazifasini bajaradi.

Ba’zi olimlar sodda terminlar sirasiga kiruvchi *tokcha* terminini milliy qatlamdagi termin deb olishgan. Naqqoshlik manbasida tokcha xona devorlariga uy-ro‘zg‘or buyumlari qo‘yiladigan maxsus joy sifatida izohlanadi va uning qadimdan sinchli hamda paxsa uylarda qo‘llanganligi ko‘rsatiladi. Sababi, u o‘zbek tilida azaldan qo‘llanadigan, milliy uy-joy va interyer bilan bog‘liq predmet nomi sifatida ishlatiladi. **Tokcha** interyer dizayn terminoleksikasidagi milliy terminlardan biri bo‘lib, u o‘zbek xalqining an’anaviy uy-joy madaniyati bilan bog‘liq holda shakllangan. Mazkur termin xalqaro o‘zlashma birlik emas, balki mahalliy turmush va me’moriy tafakkurni aks ettiruvchi tub nominativ birlik sifatida baholanadi. Bu so‘zning inglizcha va ruscha ekvivalentlari ham mavjud.

Milliy interyer an’analariga daxldor sodda terminlar xalqning tarixiy-madaniy tajribasini aks ettirsa, o‘zlashgan sodda terminlar ushu sohaning zamonaviy taraqqiyoti va xalqaro terminologik maydon bilan aloqadorligini ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, interyer dizayn terminologiyasida sodda terminlar faqat struktur birlik sifatida emas, balki madaniy tafakkur va professional dunyoqarashni ifodalovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri sifatida talqin etilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ermatov I. O‘zbek tilshunoslik terminologiyasi. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2021.
2. Hamdamov D., Hojiyeva G. S. **Dunyo tilshunosligida “terminologiya va termin” tushunchalarining vujudga kelish omillari** // ilmiy maqola. – Buxoro, 2023.
3. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/parquet>. Date of access 11.03.2026.
4. <https://www.merriam-webster.com/dictionary/cornice>. Date of access 11.03.2026.



FIGURATIVE FEATURE: SIMILE IN ENGLISH AND KARAKALPAK POETRY

D.Badirova, PhD

*English Linguistics Department,
Karakalpak State University*

M.Dauletbaeva

1st year Master's student in Linguistics, KKSU

Abstract: This article undertakes simile as a prominent figurative device in Karakalpak and English poetry, emphasizing its structural and functional dimensions. By examining similes through a comparative qualitative approach, the research describes how these comparisons contribute to imagery, thematic development, and the communication of temporal or cultural perspectives. Results indicate that similes operate on multiple levels, functioning both as transparent, direct comparisons and as complex, symbolic constructs. They facilitate emotional impact, illustrate phenomena in nature or society, and reflect the unique character of historical and cultural periods. This investigation highlights the integral role of simile in shaping both the stylistic and cognitive aspects of poetic representation.

Keywords: Simile; figurative language; comparative analysis; Karakalpak poetry; English poetry; historical period; imagery; symbolism.

Figurative language is an essential element of poetry, as it enriches meaning and strengthens emotional impact. Among various stylistic devices, simile is widely used to create vivid imagery and clarify abstract ideas. Simile functions through explicit comparison, usually marked by “like” or “as.”

The language of fiction represents the highest and most complete manifestation of a literary language. It is in imaginative literature that linguistic units acquire aesthetic value and expressive power. Fiction does not merely reflect the norms of the literary language but transforms them into an artistic system aimed at emotional and intellectual influence. As the English linguist G. H. Vallins notes in his work *An Outline of English Stylistics*, “the best English is the language of literature” [1]. This statement emphasizes the special status of literary language as the most refined and expressive form of national language.

The Russian linguist Viktor Vinogradov also underlines that the language of fiction differs fundamentally from other functional styles such as scientific, official, or journalistic discourse. In «О языке художественной литературы» he argues that literary language incorporates elements of various styles but transforms them according to its own aesthetic principles [2]. Thus, fiction represents a unique functional system in which expressive means are organized to achieve artistic impact.

Among the numerous stylistic devices that shape poetic discourse, simile occupies a prominent place. Simile is a figurative device based on the explicit comparison of two different objects or phenomena, typically marked by the



conjunctions “like” or “as.” According to I. R. Galperin in Stylistics, simile reveals the author’s subjective perception and enhances imagery by establishing imaginative associations between concepts [3]. Through simile, poets intensify emotional coloring and create vivid mental pictures that contribute to the aesthetic value of the text.

The function of artistic influence is most fully realized in poetry, where every lexical unit carries semantic and stylistic significance. The great Russian writer Leo Tolstoy defined art as a means of transmitting feelings from one person to another, thereby uniting people through shared emotional experience [4]. In this process, simile serves as an important cognitive and expressive instrument that bridges reality and imagination.

The comparative study of simile in English and Karakalpak poetry is therefore of particular importance. English poetry, shaped by centuries of literary tradition, demonstrates a wide range of structural and semantic types of simile. Karakalpak poetry, deeply rooted in Turkic oral traditions and enriched by national imagery, reflects culturally specific patterns of comparison. Investigating similarities and differences in the use of simile in these two poetic traditions contributes to the development of comparative stylistics and reveals both universal and national features of figurative language.

This research applies a qualitative comparative literary analysis. The primary sources of the study are Yusupov’s Dawir samallari and Eliot’s *The Waste Land*. The present research employs a comparative stylistic approach to investigate the structural and semantic features of simile in English and Karakalpak poetry. The study focuses on identifying the formal markers of comparison, the standard of comparison, and the semantic domains involved in figurative constructions within poetic discourse.

From a theoretical perspective, simile is defined as a stylistic device based on explicit comparison between two heterogeneous entities. Structurally, a simile consists of three main components: (1) the tenor (the object being described), (2) the vehicle (the object with which it is compared), and (3) the marker of comparison. In English, common markers of comparison include “like” and “as.” For example, in the line “*She is soft, crinkled like a fading rose,*” the marker “like” introduces the vehicle “a fading rose,” which belongs to a different semantic domain from the tenor. In contrast, a literal comparison such as “*Her hands are soft, crinkled like her sister’s*” merely establishes similarity within the same semantic domain. As noted by I. R. Galperin, simile differs from logical comparison in that it creates imaginative association rather than stating factual equality [5].

In the Karakalpak language, the stylistic device of comparison is known as “*teñew*.” It is expressed through specific grammatical markers, particularly similarity affixes such as *-day/-dey* and *-tay/-tey*, as well as conjunctions including *sekilli*, *sıyaqli*, *kibi*, *yañlı*, *taqlitte*, and *tárizli*. These linguistic elements function as markers of comparison and formally signal the relationship between the compared entities. The structural and functional features of Karakalpak similes are described in works on Turkic stylistics, including studies by K. Yusupov

The empirical material for the study consists of two poetic texts representing different linguistic and cultural traditions. The English corpus is based on *The Waste*



Land by T. S. Eliot, a landmark work of modernist poetry characterized by rich imagery and complex figurative language. The Karakalpak corpus includes “*Dáwir samallari*” by I. Yusupov, which reflects national poetic traditions and culturally specific imagery. These two works were selected to enable cross-linguistic comparison between English and Karakalpak poetic similes.

The comparative analysis of similes in “*Dáwir samallari*” by I. Yusupov and “The Waste Land” by T. S. Eliot demonstrates that although simile functions as a universal stylistic device, its structural expression and semantic depth differ according to linguistic and cultural context.

In Karakalpak poetry, simile (*teńew*) is mainly expressed through morphological markers such as the affixes *-day/-dey* and *-tay/-tey*. These affixes are directly attached to the standard of comparison and clearly signal the presence of figurative meaning. For example, in the lines

“*Asqar tawday adamlıqtı,
Aǵın suwday hadallıqtı,*” [6]

the suffix *-day/-dey* serves as the marker of comparison, while mountain and water function as standards of comparison. The mountain symbolizes strength and firmness, and flowing water symbolizes purity and honesty. The imagery is deeply connected with nature, which reflects the traditional worldview and cultural environment of the Karakalpak people.

Similarly, in the line “*Erkelegen baladayman,*” the suffix *-day* marks comparison, and *bala* (*child*) becomes the standard of comparison. Through this image, the lyrical hero expresses innocence, sincerity, and emotional openness. In these examples, the comparison is grammatically integrated into the poetic structure, and the figurative meaning appears natural and harmonious within the rhythm of the verse.

In English poetry, similes are generally formed syntactically with the help of conjunctions such as “like” and “as.” In the line “*Simple and faithless as a smile and shake of the hand,*” [7] the conjunction “as” introduces the standard of comparison — “a smile and shake of the hand.” Here the imagery belongs not to the natural world but to social behavior. The comparison suggests superficial politeness and emotional insincerity. The effect is subtle and psychological rather than descriptive.

The phrase “*cultural tradition served as a bulwark against the intellectual collapse*” also contains the marker “as.” In this case, “bulwark” functions as a protective barrier. Although structurally similar to simile, the expression approaches metaphor because the comparison is conceptual and partly implicit. This demonstrates that in English poetry the boundary between simile and metaphor is often fluid.

The comparative analysis demonstrates that simile functions differently in English and Karakalpak poetic traditions. In “*Dáwir samallari*”, similes are emotionally expressive and connected with nature and national identity. In “The Waste Land”, similes are symbolic and reflect spiritual and cultural crisis. Simile serves not only as a stylistic device but also as a reflection of historical consciousness in both literary traditions. The study confirms that figurative language plays a crucial role in expressing the essence of a poetic period.



References:

1. Vallins, G. H. *An Outline of English Stylistics*. London: Heinemann, 1951.
2. Vinogradov, V. V. «О языке художественной литературы». Moscow: Nauka, 1959.
3. Galperin, I. R. *Stylistics*. Moscow: Higher School Publishing House, 1977.
4. Tolstoy, L. N. *What Is Art?* Translated by Aylmer Maude. London: Oxford University Press, 1930.7
5. Galperin, I. R. *Stylistics*. Moscow: Higher School Publishing House, 1977.
6. Yusupov I. *Dawir samallari Nukus* Karakalpakstan 1982
7. Eliot, T. S. *The Waste Land*. London: Faber & Faber, 2001.



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Omonova Sarvinoz O‘lmasovna

Samarqand davlat pedagogika instituti
mustaqil izlanuvchisi

sarvinozomonova013@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili darslarida o‘quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishning samarali usullari va didaktik vositalardan foydalanish haqida yoritiladi. Shuningdek, yozma nutq malakasini shakllantirishda o‘qituvchining roli, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, ona tili, metodika, topshiriq, ijodiylik, tafakkur, dars jarayoni.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы и дидактические средства развития письменной речи учащихся на уроках родного языка. Также анализируется роль учителя в формировании навыков письменной речи, система заданий и критерии оценки.

Ключевые слова: письменная речь, родной язык, методика, задание, творчество, мышление, учебный процесс.

Abstract: This article discusses effective methods and didactic tools for developing students' written speech in native language classes. It also analyzes the role of the teacher, the system of tasks, and assessment criteria in the formation of written speech skills.

Keywords: written speech, native language, methodology, task, creativity, thinking, lesson process.

Uslubiy adabiyotlardan bizga ma’lumki, imlo tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini to‘g‘ri va mazmunli yozishga, fikrlashga undaydi. Savod o‘rgatish davrida o‘qish bilan birgalikda yozuv malakalari ham olib boriladi. “Jahonda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayoni ta’lim tizimida ham o‘z ifodasini topmoqda. Elementar bilimlar bilan qurollantirish hamda savodxonlikni oshirishda muhim bosqich hisoblangan boshlang‘ich ta’limga ham alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Boshlang‘ich ta’limga, ta’lim jarayoniga individual yondashuv muammosi ta’lim sohasi vakillarida turlicha yondashuv amalga oshirilayotganligini kuzatamiz. Xususan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta’lim texnologiyalari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro‘yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendensiyalari ustunlik qiladi” [1.211].

Ona tili-milliy savodxonlik fanidir. Chunki bu fanni mukammal o‘qitish orqali o‘quvchilarning savodxonligiga erishish mumkin. Ona tili fanini o‘qitish mobaynida biz pedagoglar o‘quvchilarga tilimiz tarixi, so‘zlarning xilma-xilligi, ularning



yasalishi, tilshunoslik bo‘limlari, so‘zlarning boyish manbalari haqida ma’lumot berish bilan bir qatorda eng muhim bo‘lgan jihat-imloviy savodxonligiga ham alohida e’tibor qaratamiz. Darsliklardagi qoidalar ham imloviy savodxonlikka undaydi. Bu esa o‘quvchining egallagan nazariy bilimlarini amaliyotga tatbiq etishiga yordam beradi. Shunday bo‘lsa-da, ba’zan o‘quvchilarning yozma nazorat ishlari: diktant, bayon, insho, tuzgan matnlarida bir qancha imloviy xatolar uchrab turadi. Ayniqsa, o‘quvchilarning x va h harflari qatnashgan so‘zlarni yozayotganda ikkilanishi, o‘ylanib qolishi va hatto bu harflarning o‘rnini almashtirib qo‘yishi achinarli holdir. Bunday holat biz pedagoglarni o‘quvchilarning yozma savodxonligi ustida yanada ko‘proq ishlashga, bunday so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini o‘quvchilarga oson yo‘llar bilan tushuntirishga undaydi. Xususan, bu harflarning talaffuzdagi ko‘rinishiga alohida e’tibor qaratish zarur. O‘qituvchi o‘quvchiga x undoshi chuqur til orqada, h undoshi esa bo‘g‘izda hosil bo‘lishini misollar yordamida talaffuz qildirgan holda ikkala tovushning farqli jihatlarini anglatish ko‘nikmasini shakllantirishi zarur. X undoshini “qattiq”, h undoshini esa “yumshoq” tovush deb o‘rgatish o‘quvchilarning jiddiy xatolikka yo‘l qo‘yishiga sabab bo‘ladi. Chunki inson qattiq va yumshoqlikni faqatgina sezgi a’zolari yordamida his qilishi mumkin. Bunda o‘qituvchining metodik mahorati muhim hisoblanadi.

To‘g‘ri yozuv insonning umumiy ichki dunyosini, madaniyati ko‘rsatib qolmay, balki uning savodxonlik darajasining muhim omillaridan hisoblanadi. O‘quvchining yozish ko‘nikmalariga ham aqliy, ham fiziologik komponentlar asos bo‘lib, bunda umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bularga vizual xotira, uzoq muddatli xotira, vosita xotirasi, artikulyar xotira, fonemik ong va mantiqiy fikrlash kiradi. Va bu ko‘nikmalarning barchasi har doim ham bir odamda bir xil darajada rivojlangan emas. Ba’zilar ma’lum narsalarda yaxshiroq, boshqalari esa sust bo‘ladi. Bola uchun maktabda o‘qish, birinchi navbatda, taqdim etilgan ma’lumotlarni idrok etish va o‘zlashtirish jarayonidir. Odamlar ma’lumotni vizual, eshitish va his etish orqali idrok etishlari mumkin. Idrok etish va qayta ishlash qobiliyatiga qarab, odamlarni taxminan uch toifaga bo‘lish mumkin. Odatda uchta toifadan biri ustunlik qiladi: o‘quvchilar vizual o‘rganuvchilar (vizual toifa ustunlik qiladi), eshitish o‘rganuvchilar (eshitish) va kinestetik o‘quvchilar (motor) kabi turlarga bo‘linadi. Sinfda o‘qituvchi bolalarga barcha idrok toifalaridan foydalangan holda ma’lumot taqdim etishi mumkin: ko‘rish, eshitish va kinestetik. Bu har bir o‘quvchiga ma’lumotlarning kamida bir qismini o‘zlashtirish imkoniyatini beradi. Boshlang‘ich sinf 1-2 sinflarda ona tili fanidan o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirishda va idrok etish uslubini aniqlashda bir qancha usullardan foydalanish mumkin. Masalan, “Xotiramizni rivojlantirish” sinf mashqi, o‘yin tarzida o‘tkaziladi, unda o‘quvchilarning idrok etish uslubini (jumladan, “Tasvirlar xotirasi” usuli) aniqlash uchun turli mashqlar taqdim etiladi.

Savol va mashqlar o‘quvchilarning yoshiga moslashtiriladi. Turli jadvallar va testdan foydalaniladi. Sinov diqqatni jamlash va ishlash dinamikasini baholash uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. U barcha yoshdagi o‘quvchilarnilarni baholash uchun ishlatiladi. Ishtirokchiga har biri tasodifiy tartibda joylashtirilgan 1 dan 25 gacha raqamlarni o‘z ichiga olgan beshta jadval taqdim etiladi. Ishtirokchi raqamlarni o‘shish tartibida topadi, ko‘rsatadi va nomlaydi. Sinov besh xil jadval bilan takrorlanadi. Bu



o'yinda ishtirok etgan o'quvchilar vizual o'rganuvchilar – ko'p ma'lumotni ko'rish orqali qabul qiladi. Kinestetik o'quvchilar – ko'p ma'lumotni boshqa hislar (hid, teginish) va harakat orqali, eshituv orqali eslab qoluvchi o'quvchilar esa asosan eshitish orqali ma'lumot oladilar.

1-sinf o'quvchilari uchun III chorak ona tilidan diktant tahlil qilindi. O'quvchilarning 20 foizi "5", 40 foizi "4", 20 foizi "3" va 20 foizi "2" bahoga ega bo'ldi. O'quvchilarning xatolari shuni ko'rsatadiki, o'rganishning ushbu bosqichida bolalar tovush-harf tahlilini zaif tushunadilar. Odatda kuzatilgan xatolarga qo'yib yuborish, almashtirish, harflarni ko'chirish, qo'shimcha harflar, matn terish xatolari va tuzatishlar kiradi. Ba'zi o'quvchilar inson va hayvonlarning ismlarini bosh harf bilan yozishmagan. Imlo xatolaridan tashqari, o'quvchilar tinish belgilarida xatoliklarga yo'l qo'yishdi, masalan, gapning bir hil bo'laklari orasiga vergul qo'yish kabi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, savodxonlikni rivojlantirish va sinfda muvaffaqiyatga erishish uchun biz eshitish, kinestetik va vizual o'quvchilarga differensial e'tiborni rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqishimiz zarur.

Vizual o'quvchilar uchun quyidagi mashqlar qo'llaniladi:

1. "Chalkashlik". Maqsad: ixtiyoriy e'tiborni rivojlantirish va konsentratsiyani rivojlantirish. (Niqoblangan tasvirlarni toping va hayvonlarning nomini yozib chiqing, ularga nom bering).
2. Jadval va diagrammalar bilan ishlash. Maqsad: vizual xotirani va diqqatni jamlashni rivojlantirish. (Jadvalda 10 ta hayvon nomi yashiringan. Ularni toping.) Imlo lug'ati bilan ishlash (insho yozishda qo'llaniladi). Maqsad: diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirish.
3. Vizual diktant. Matnni yozishdan oldin, o'quvchi topshiriq bo'yicha unga e'tibor qaratadi: imlo va qoidalar tushuntiriladi. Shundan so'ng o'qituvchi matnni aytib beradi va mashg'ulot oxirida yozuv matn bilan taqqoslanadi. Tengdoshlar va o'z-o'zini tekshirish mumkin.

Eshitish qobiliyatini o'rganuvchilar uchun mashqlar:

1. "So'zni toping". Maqsad: ixtiyoriy e'tibor va konsentratsiyani rivojlantirish. (Bolalarga bo'sh joy qoldirmasdan yozilgan so'zlar orasidan so'zlarni topish so'ralgan. Bu mashq darsning turli bosqichlarida qo'llanilgan. Masalan: So'zlarni toping va yozing, ulardagi xatolarni tuzating. *O'lkamizga bahor fasli kirib keldi.*

2. "Farqlarni toping". Maqsad: Diqqatni boshqarishni mashq qilish. Bolalardan doskada yozilgan so'zlardagi imkon qadar ko'proq farqlarni nomlash so'ralgan: "jang", "qarash", (Bolalarga so'zlarni sinchkovlik bilan tekshirish va grammatika va morfemalar nuqtayi nazaridan farqlarni aniqlash uchun yetarli vaqt berilishi kerak).

3. "O'zingni tekshir" diktanti. Maqsad: konsentratsiyani va ixtiyoriy e'tiborni rivojlantirish.

Kinestetik o'quvchilar uchun o'quv o'yinlari:

"Mashina" o'yini. Maqsad: O'quvchilarning diqqati bilan birgalikda to'g'ri yozish malakalarini rivojlantirish. Bu o'yinda kichik 5-6 kishilik guruhlariga bo'linadi. O'quvchilar soniga mos oldindan tayyorlab qo'yilgan raqamlangan kartochkalar beriladi va raqamlarni o'sib borish tartibida joylashtirish aytiladi. 1,2,3,4,5,6 orqasiga yozilgan harflardan tashkil topgan so'zni o'qiydi. Har bir bolaga o'rganilayotgan



imloga qarab alifbo harfi beriladi). Qaysi bola qo'sh unli yoki undoshni ushlab turgan bo'lsa, qo'llarini ko'tarib, qarsak chaladi. "Qo'sh undoshlar" mavzusini o'rganishda ushbu o'yindan foydalanish mumkin. Keyin harflarga tayinlangan bolalar o'zlarining harflari berilgan so'zda paydo bo'ladigan tartibda qo'llarini ko'tarib qarsak chaladi (bir vaqtning o'zida bir marta qarsak chaladilar). So'z to'liq "yozilgan" bo'lsa, barcha bolalar qarsak chaladi. Har bir bola o'yinda qatnashishi uchun so'zlarni tanlash muhimdir. Bu o'yinni o'tkazishda *go'sht, do'st, poytaxt, daraxt, Samarqand, Toshkent* kabi so'zlarni olishimiz mumkin. *Bahor keldi. Tabiat uyg'ondi. Daraxtlar g'unchaladi. Qushlar sayray boshladi. Odamlar yuzida quvonch balq uradi*".

Topshiriqlar: 1. Matnga sarlavha qo'ying. 2. Har bir gapning rolini izohlang. 3. Ushbu matn asosida 6-7 gapdan iborat shaxsiy kuzatuvlaringizga asoslangan matn yozing. Bu kabi topshiriqlar yozma nutqni o'rgatishda bosqichma-bosqich yondashuv, model matnlar asosida ishlash, ijodiy topshiriqlardan foydalanish, hayotiy vaziyatlarga mos yozish faoliyatini yo'lga qo'yish kabi metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. "Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning fikrini yozma shaklda erkin, mantiqiy va izchil ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning lug'at boyligi kengayib, grammatik jihatdan to'g'ri yozish malakalari shakllanadi hamda yozma nutqqa bo'lgan qiziqishi oshadi. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvi kuchayadi"[2.12].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yozma nutqni shakllantirish faqat grammatik me'yorlarga rioya qilish emas, balki fikrlashni, o'zini erkin ifoda eta olishni va o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etish madaniyatini rivojlantirishdir. Ona tili darslarida bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratish orqali biz kelajakda bilimli, muloqotga layoqatli va ijodkor avlodni voyaga yetkazishga zamin yaratamiz. O'quvchilarning idrok turiga qarab, savodli yozishni rivojlantirish bo'yicha turli mashqlarni o'tkazgandan so'ng, yozish sifati sezilarli darajada yaxshilanadi. Muntazam ravishda to'ldirish orqali bu mashqlar yordamida o'quvchilarda imlo o'tkirligi va savodli yozish ko'nikmalari shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sadriddinova Z.M. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi ta'limini ijodiy tashkil etishning mohiyati va o'lchovlari. Qo'qon universiteti xabarnomasi. – B. 211
2. Yomg'irova Jumagul Bahron qizi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda interfaol metodlar. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi. in-academy.uz/index.php/yo.
3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari". Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi 339-son qarori asosida. T.1995
4. "Ona tili fani milliy o'quv dasturi" 2022-2023- o'quv yili uchun
5. "Ona tili o'qitish metodikasi" Gulomov A. Kodirov M. Toshkent. 2012
4. "Pedagogik mahorat" A.Xoliqov Toshkent .2011.
6. Yo'ldoshev A. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
7. Usmonov N. Nutq madaniyati va yozma nutqni o'stirish yo'llari. -S: "Ilm ziyo", 2021.



8.G‘anieva, D. Boshlang‘ich sinflarda yozma nutqni shakllantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.

9.Qurbonov, B. Yozma nutqni rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarning o‘rni. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali, 2022, №1.

10.Mavlonova, R. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2017.

11.Hasanova, M. Yozma nutqni baholash mezonlari va ularni amaliy qo‘llash usullari. – “Metodik izlanishlar” jurnali, 2023, №2.



SAIDA ZUNNONOVA SHE'RIYATINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI
“MENING VATANIM” SHE'RI MISOLIDA

Xurramova Sabina Xurshid qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va
madaniyati instituti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada leksik-semantik tahlil hamda, fidoyi ayol, o‘zbek shoirasi Saida Zunnunova she’riyatidagi “Mening vatanim” nomli she’rining leksik-semantik tahliliga to‘xtalib o‘tamiz.

Abstract: In this article, we will focus on lexical-semantic analysis and lexical-semantic analysis of the poem "My Homeland" by the selfless woman, Uzbek poet Saida Zunnunova.

Аннотация: В данной статье мы сосредоточимся на лексико-семантическом анализе стихотворения «Моя Родина» самоотверженной узбекской поэтессы Саиды Зуннуновой.

Kalit so‘zlar: Leksik-semantik tahlil, she’riyat, tilshunoslik, lingvistika, sun’iy intellekt, kompyuter tilshunosligi.

Ключевые слова: лексико-семантический анализ, поэзия, лингвистика, искусственный интеллект, вычислительная лингвистика.

Keywords: Lexical-semantic analysis, poetry, linguistics, linguistics, artificial intelligence, computational linguistics.

Semantika masalalari tilshunoslikda qadimdan muhokama qilingan bo‘lsa-da, nazariya sifatida XIX–XX asrlarda mustahkam ilmiy yo‘nalishga aylandi. Ferdinand de Saussure (1857–1913) - til belgilari (sign)ning nazariyasi asoschilaridan biri. U ma’noni til belgilari tizimi orqali o‘rganish zarurligini ta’kidladi. Bu semantik tahlilning nazariy asosiga xizmat qildi. XX asrda Leonard Bloomfield, Zellig Harris, Noam Chomsky kabi tilshunoslar til ma’nosi va sintaktik aloqalarni chuqur o‘rgandi. Bugungi kunda semantik tahlil kompyuter tillarida ham qo‘llanadi - NLP (Natural Language Processing) orqali tilni avtomatik tahlil qilish mumkin. Semantik tahlil - bu til elementlarining (so‘z, ibora, gap) ma’nosini ilmiy, tizimli ravishda o‘rganish va tahlil qilish jarayonidir. Semantika - tilshunoslikning til ma’nosi, uning o‘zgarishi, so‘z va jumla ma’nolarini aniqlovchi bo‘lim. Semantik tahlil esa - shu ma’nolarni kontekst, struktura va qo‘llanish bo‘yicha o‘rganish metodidir. Ko‘p hollarda semantik tahlil so‘z yoki iboraning konkret matndagi ma’nosi, ko‘p ma’nililik, ma’no o‘zgarishi kabi holatlarni aniqlaydi. Semantik tahlil quyidagi sohalarda qo‘llaniladi: Lingvistika, tarjima nazariyasi, NLP (Natural Language Processing), tilni o‘rgatish metodikasi, kompyuter tilshunosligi, sun’iy intellekt. [1].

Quyida Saida Zunnunovaning “Mening vatanim” she’rini leksik-semantik uslubda tahlil qilamiz.

Yuz yil umr ko‘rsam, yuz yil she’r yozsam,



Yuz yil ta'rifingni aytsam mutassil.

Deb boshlanuvchi she'rda jami 107 ta lug'aviy birlik mavjud.

Mutassil – so'z, leksik ma'nosi: bir-biriga ulanib ketgan; uzluksiz, to'xtovsiz. Grammatik ma'nosi: yordamchi so'z. Bir ma'noli, uslubiy bo'yoqsiz, ma'no ko'chmagan, sinonim so'z, adabiy tilga mansub bo'lgan so'z, o'zlashma so'z.

Umr – so'z, leksik ma'nosi: tug'ilgandan to o'lgungacha bo'lgan davr, yashash muddati, shu muddat davomidagi hayot, yashash. Grammatik ma'nosi: nima? Ot so'z turkumi, bosh kelishikda, birlikda. Uslubiy bo'yoqdor so'z: Tenging emas, qizim! Sening ilming katta, uniki kichik. Umr qilib ketolmaysizlar. Umr ko'rmoq metafora usulida ma'no ko'chgan. Sinonim so'z, adabiy tilga mansub bo'lgan so'z, o'z qatlam.

Baribir, sevgili yorin rasmini
Chizmoqqa munosib rang topolmayin,
Chamanda tentirab yurgan rassomday
Sening tasviringga so'z axtaraman
So'zlar sarasidan shu bugungiday.

Chizmoq – so'z, leksik ma'nosi: chiziq tortmoq, tushirmoq, tasvirlamoq. Grammatik ma'nosi: nima qildi? fe'l so'z turkumi. Uslubiy bo'yoqdor so'z: Quyoning rasmini chizmoq (qochmoq). Gap tarkibida ma'no ko'chmagan. Sinonim so'z, adabiy tilga mansub bo'lgan so'z, o'z qatlam.

Chaman – so'z, leksik ma'nosi: gul ko'p joy, gulzor, chamanzor, gulshan. Grammatik ma'nosi: nima? Ot so'z turkumi, bir ma'noli so'z, birlikda, o'rin-payt kelishigida, arxaik so'z, sinonim so'z, arxaizm.

Rassom – so'z, leksik ma'nosi: rasm soluvchi san'atkor, suratkash. Grammatik ma'nosi: kim? Ot so'z turkumi, bosh kelishikda, she'r tarkibida ma'no ko'chmagan, sinonim so'z, adabiy tilga mansub.

Yor – so'z, leksik ma'nosi: chopib, kesib, bo'laklarga ajratmoq, sevgili yor. Grammatik ma'nosi: kim? Ot so'z turkumi, bosh kelishikda, birlikda, ko'p ma'noli so'z: dardini yormoq, yorib o'tmoq, dimog'ini yormoq, pixini yorgan, yurakni yormoq: mashuqa, mumtoz adabiyotda sevgili.

Yuz yilgi she'rimni, yig'salar hamki,
Bo'lmaydi dildagi sevgimday asil,
Ey, mening Vatanim, mening Vatanim!
Dunyoda ne yaxshi xislatlarki bor,
Hammasi, hammasi senda mujassam.

She'r – so'z, leksik ma'nosi: ma'lum vazn va qofiyali kichik badiiy asar. Grammatik ma'nosi: nima? Ot so'z turkumi, she'riy parchada tushum kelishigida, birlikda, paronim so'z, bir ma'noli, adabiy tilga mansub.

Dil – so'z, leksik ma'nosi: yurak, ko'chma ma'noda – kishining ichki ruhiy dunyosi, ichki his-tuyg'ularining markazi, ramzi; ko'ngil, qalb. Grammatik ma'nosi: nima? Ot so'z turkumi, mavhum ot, o'rin-payt kelishigida, birlikda, paronim so'z, ko'p ma'noli, adabiy tilga mansub so'z.

Asil – so'z, leksik ma'nosi: a'lo sifatli, eng yaxshi, toza, sof; ko'chma ma'noda: yaxshi xislatlarga, fazilatlariga ega bo'lgan; bebaho, sof, pok. Grammatik ma'nosi:



qanday? Sifat soʻz turkumi, nisbiy sifat, oddiy darajada, tub sifat, paronim soʻz, adabiy tilga mansub.

Vatanim – soʻz, leksik maʼnosi: Kishining tugʻlib oʻsgan oʻlkasi, shahri yoki qishlogʻi; yurt, diyor. Grammatik maʼnosi: nima? Ot soʻz turkumi, bosh kelishikda, egalik qoʻshimchasi bilan turlangan, birlikda, koʻchma maʼnoli soʻz, adabiy tilga mansub. [2].

Ushbu sheʼrda – lirik qahramon vataniga boʻlgan cheksiz sadoqati va muhabbatini ifodalayapti. U yuz yil umr koʻrib, yuz yil sheʼr yozgan taqdirda ham vatanini taʼriflay olmasligini taʼkidlayapti. Vatani shunchalik ulugʻki uni tasvirlashga soʻz ham rang ham topa olmayapti. Shoira oʻzini rassomga qiyoslab, vatanini madh etish uchun rang topa olmayotganidan zorlanayapti. Shoira vatan tuprogʻini koʻzlariga surtib unga jonini fido qilishga tayyor ekanligini taʼkidlaydi. Sheʼrda oʻxshatish, mubolagʻa, takrik sanʼatlaridan mohirlik bilan foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Oʻzbek tilining izohli lugʻati: 80 000 dan ortiq soʻz va soʻz birikmasi. I jild (A-D). / Masʼul muharrir A. Madvaliyev. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 964 b.

2. Ruzmanova R., Narziyeva M., Ubaydullayeva M. Lingvistik tahlil: oʻquv qoʻllanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020. – 140 b.

3. Yoʻldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. – 210 b.

4. Safarov Sh. Lingvistik tahlil metodologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – 256 b.

5. Oʻzbek tilining izohli lugʻati [Elektron manba]. – URL: <https://izoh.uz> (murojaat vaqti: 24.05.2024).



**FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR ORQALI MILLIY MENTALITET IFODASI
(Tog‘ay Murod va John Steinbeck asarlari asosida)**

Ro‘ziyeva Umida Abruyqul qizi

SamDChTI Narpay xorijiy
tillar fakulteti o‘qituvchisi

umidaroziyeva0@gmail.com

ANNOTATSIYA :Mazkur maqolada o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murod hamda amerikalik adib John Steinbeck asarlarida uchraydigan frazeologik birliklarning milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnlarda qo‘llangan frazeologizmlarning semantik hamda pragmatik xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar xalqning madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi va mentalitet xususiyatlarini ifodalovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi.

KALIT SO‘ZLAR: *frazeologik birlik, milliy mentalitet, lingvokulturologiya, antroposentrizm, badiiy diskurs, pragmatika.*

Kirish

Til inson tafakkuri va madaniyatining eng muhim ko‘zgularidan biridir. Har bir xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlari til orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa frazeologik birliklar tilning obrazli va madaniy jihatdan boy qatlamini tashkil etib, xalqning mentalitetini aks ettiradi. Lingvistika sohasida so‘nggi yillarda antroposentrik yondashuvning rivojlanishi natijasida til hodisalarini inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish dolzarb masalaga aylandi. Antroposentrik paradigma tilni inson tafakkuri, madaniy tajribasi va kommunikativ faoliyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi. Shu sababli frazeologik birliklar ham insonning dunyoni idrok etish usuli va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida qaraladi.¹² Shu nuqtai nazardan frazeologik birliklar ham nafaqat til birliklari, balki madaniy va mental xususiyatlarning ifodachisi sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yorqin vakili Tog‘ay Murod hamda Amerika adabiyotining mashhur yozuvchisi John Steinbeck asarlarida qo‘llangan frazeologik birliklar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu yozuvchilarning asarlarida xalq hayoti, ijtimoiy muhit hamda inson ruhiyati chuqur tasvirlangan bo‘lib, bu jarayonda frazeologizmlar muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Frazeologik birliklarning milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni

Frazeologik birliklar tilning barqaror iboralari bo‘lib, ular ko‘pincha ko‘chma ma’noda qo‘llanadi va xalqning tarixiy tajribasini aks ettiradi. Lingvokulturologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlar milliy madaniyatning muhim elementlaridan biridir. Frazeologik birliklar orqali xalqning milliy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy me’yorlari, dunyoqarash va hayotiy tajribasi kabi mentalitet

¹² Kubryakova E. S. *Language and Knowledge: On the Way to Acquiring Knowledge about Language*. Moscow: Languages of Slavic Culture, 2004. – p. 15.



xususiyatlari ifodalaniladi. Shu sababli frazeologizmlarni o'rganish orqali nafaqat til tizimi, balki xalqning madaniy va mentalitet xususiyatlarini ham tahlil qilish mumkin. Frazeologik birliklar milliy madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari va stereotiplarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu jihatdan frazeologizmlar til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rganishda muhim lingvokulturologik manba hisoblanadi.¹³

Tog'ay Murod asarlarida frazeologizmlar va milliy mentalitet

Tog'ay Murod asarlarida xalqona nutq unsurlari keng qo'llanadi. Muallif o'z asarlarida o'zbek xalqining kundalik hayoti, urf-odatlarini va dunyoqarashini tasvirlashda frazeologik birliklardan samarali foydalanadi. Masalan, o'zbek tilidagi quyidagi frazeologizmlar xalq mentalitetini aks ettiradi:

- *ko'ngli tog'dek ko'tarilmoq – katta quvonchni ifodalash*
- *yuragi siqilmoq – tashvish yoki iztirobnini ifodalash*
- *boshi osmonga yetmoq – nihoyatda xursand bo'lish*

Bu kabi iboralar qahramonlarning ruhiy holatini obrazli tarzda ifodalash bilan birga, o'zbek xalqining hissiy kechinmalarini ifodalash uslubini ham namoyon qiladi. Tog'ay Murod asarlarida inson va tabiat o'rtasidagi yaqinlik ham ko'p tasvirlanadi, bu esa o'zbek xalqining agrar madaniyati bilan bog'liq mentalitet xususiyatlarini ko'rsatadi.

John Steinbeck asarlarida frazeologizmlar

John Steinbeck asarlarida ham frazeologik birliklar muhim stilistik vosita hisoblanadi. Uning asarlarida Amerika jamiyatining ijtimoiy muammolari, insonning erkinlik va adolat uchun kurashi tasvirlanadi. Ingliz tilidagi ayrim frazeologik birliklar quyidagi mentalitet xususiyatlarini aks ettiradi:

- *keep one's head up – qiyinchiliklarga qaramay bardoshli bo'lish*
- *fight an uphill battle – og'ir kurash olib borish*
- *hold on to hope – umidni yo'qotmaslik*

Bu iboralar amerikaliklarning kurashuvchanlik, mustaqillik va individualizm kabi mentalitet xususiyatlarini aks ettiradi. Steinbeck qahramonlari ko'pincha ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashuvchi oddiy insonlar bo'lib, ularning nutqida xalq tiliga xos frazeologizmlar keng qo'llanadi.

Tog'ay Murod va John Steinbeck asarlarida frazeologik birliklar turli madaniy muhit va ijtimoiy kontekstlarda qo'llanilishiga qaramay, ular inson hayoti, ruhiy kechinmalari hamda qahramonlarning ichki dunyosini tasvirlashda o'xshash badiiy va kommunikativ funksiyani bajaradi. Badiiy matnlarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki yozuvchi frazeologizmlardan qahramon xarakterini ochish, ularning ruhiy holati va ijtimoiy tajribasini ifodalashda samarali foydalanadi. Frazeologik birliklar nafaqat obrazlilikni kuchaytiruvchi stilistik vosita, balki muayyan xalqning milliy mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingvistik birlik sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbek badiiy matnlarida qo'llanilgan frazeologizmlar ko'proq jamoaviylik, an'anaviy qadriyatlar va ijtimoiy hamjihatlik g'oyalari ifodalasa, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda individualizm, mustaqillik

¹³ Wierzbicka A. *Understanding Cultures Through Their Key Words*. New York: Oxford University Press, 1997. – p. 24.



va kurashuvchanlik ruhiyati yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan, frazeologik birliklar orqali har ikki adabiyotda inson konsepti hamda milliy dunyoqarashning o‘ziga xos jihatlari badiiy diskursda aniq aks etadi.

Xulosa

Frazeologik birliklar badiiy matnda milliy mentalitetni ifodalovchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Tog‘ay Murod va John Steinbeck asarlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, frazeologizmlar orqali xalqning madaniy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy tajribasi ifodalanadi. Shu sababli frazeologik birliklarni lingvokulturologik va semantik-pragmatik jihatdan o‘rganish tilshunoslikda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kunin A. V. English Phraseology: Theoretical and Practical Aspects. Moscow: Vysshaya Shkola, 1984.
2. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. Moskva: Akademiya, 2001.
3. Kubryakova E. S. Language and Knowledge: On the Way to Acquiring Knowledge about Language. Moscow: Languages of Slavic Culture, 2004.
4. Wierzbicka A. Understanding Cultures Through Their Key Words. New York: Oxford University Press, 1997.
5. Tog‘ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. Toshkent: Sharq nashriyoti, 1994.
6. John Steinbeck. The Grapes of Wrath. New York: The Viking Press, 1939.
7. Gibbs R. W. The Poetics of Mind: Figurative Thought, Language and Understanding. Cambridge: Cambridge University Press, 1994.



АДАБИЁТ ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

ALEKSANDR FAYNBERG SHE'RIYATIDA INTERTEKSTUAL ALOQA VA
ADABIY AN'ANA

Abdurashidova Marjona Sanjarbekovna

*O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti Xalqaro jurnalistika fakulteti,
1-bosqich talabasi*
marjonaabdurashidova546@gmail.com

ANOTATSIYA: Mazkur maqolada Aleksandr Faynberg she'riyatida intertekstual aloqa va adabiy an'ana masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida shoirning poetik merosi olinib, unda matnlararo bog'lanish va badiiy an'ananing o'rni o'rganiladi. Maqolada Faynberg she'rlarida klassik adabiyot bilan aloqalar, madaniy xotira va poetik dialog masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida intertekstual nazariya hamda badiiy matnlararo aloqani izohlovchi ilmiy qarashlarga tayaniladi. Jumladan, Julia Kristeva va Mikhail Bakhtin ning nazariy qarashlari metodologik asos sifatida qo'llanadi. Tadqiqot natijasida Faynberg poetikasida intertekstual aloqa va adabiy an'ana shoir poetik tafakkurining muhim tarkibiy qismi ekanligi asoslab beriladi.

KALIT SO'ZLAR: Intertekstual aloqa, adabiy an'ana, poetik matn, matnlararo bog'lanish, poetik tafakkur, madaniy xotira, zamonaviy o'zbek she'riyati.

ANNOTATION: This article analyzes the issue of intertextual relations and literary tradition in the poetry of Alexander Faynberg. The poet's poetic heritage is taken as the object of the research, and the role of intertextual connections and artistic tradition in his works is examined. The article explores the links between Faynberg's poems and classical literature, as well as the issues of cultural memory and poetic dialogue. During the research, the study relies on intertextual theory and scholarly views explaining relations between literary texts. In particular, the theoretical approaches of Julia Kristeva and Mikhail Bakhtin are used as the methodological basis. The research concludes that intertextual relations and literary tradition in Faynberg's poetics constitute an important component of the poet's poetic thinking.

KEYWORDS: Intertextual relations, literary tradition, poetic text, intertextual connections, poetic thinking, cultural memory, modern Uzbek poetry.

KIRISH: Aleksandr Faynberg zamonaviy o'zbek she'riyatining o'ziga xos vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida falsafiy tafakkur, madaniy xotira va badiiy an'ana muhim o'rin egallaydi. Shoir she'rlarida turli adabiy manbalar, tarixiy obrazlar va madaniy qatlamlar bilan bog'liq poetik aloqalar uchraydi. Shu jihatdan Faynberg ijodini o'rganishda intertekstual aloqa va adabiy an'ana masalasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Adabiyotshunoslikda matnlararo bog'lanish masalasi intertekstual nazariya orqali izohlanadi. Intertekstual aloqa badiiy matnlarning boshqa matnlar bilan aloqaga kirishishi, ularga ishora qilishi yoki ularni yangi poetik kontekstda talqin



qilishi jarayonini anglatadi. Bunday aloqalar badiiy matnning semantik qatlamlarini boyitadi hamda uning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Intertekstual nazariyaning asoschilaridan biri bo'lgan Julia Kristeva badiiy matnning mohiyatini quyidagicha izohlaydi:

“Har bir matn boshqa matnlarning mozaikasidan iboratdir.”

(J. Kristeva, *Desire in Language*, 1980)

Mazkur qarashga ko'ra, har bir badiiy matn o'zidan oldingi adabiy tajriba bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu sababli intertekstual aloqa adabiyotda madaniy xotira va badiiy an'ananing davom etishiga xizmat qiladi. Intertekstual nazariyaning rivojlanishida Mikhail Bakhtin ning dialogizm konsepsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Baxtin fikriga ko'ra, har bir matn boshqa matnlar bilan dialogga kirishadi va shu orqali yangi badiiy ma'no hosil qiladi. Bu jarayon adabiy an'ananing uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi — Faynberg she'riyatida intertekstual aloqa va adabiy an'ananing badiiy ifodasini tahlil qilish hamda shoir poetikasida matnlararo aloqaning estetik va madaniy funksiyasini o'rganishdan iboratdir.

Faynberg poetikasida intertekstual unsurlar

Aleksandr Faynberg poetikasida intertekstual unsurlar muhim badiiy xususiyatlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shoir she'riyatida turli adabiy manbalar, tarixiy obrazlar va madaniy qatlamlar bilan bog'liq matnlararo aloqalar uchraydi. Bunday aloqalar orqali shoir o'z poetikasini kengroq adabiy va madaniy kontekst bilan bog'laydi. Shu jihatdan Faynberg she'riyati intertekstual unsurlar orqali boyigan poetik tizim sifatida talqin qilinadi. Shoir poetikasida klassik adabiyot bilan aloqalar muhim o'rin tutadi. Faynberg o'z she'rlarida Sharq va jahon adabiyotining klassik an'alariga murojaat qiladi hamda bu an'analarni zamonaviy poetik tafakkur bilan uyg'unlashtiradi. Bunday badiiy usul orqali shoir adabiy meros bilan muloqotga kirishadi va klassik obrazlarga yangi poetik talqin beradi. Shu sababli Faynberg she'riyati badiiy an'ananing zamonaviy shaklda davom etishining yorqin namunalaridan biri sifatida qaraladi. Adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov badiiy an'ananing adabiyot taraqqiyotidagi o'rni haqida shunday yozadi:

“Adabiyot taraqqiyoti badiiy an'ana va yangilikning uzviy uyg'unligi orqali rivojlanadi.”

(N. Komilov, *Adabiyot nazariyasi*, 2012)

Mazkur fikr Faynberg poetikasiga ham to'liq taalluqlidir. Shoir klassik adabiy tajribaga tayangan holda yangi poetik talqinlar yaratadi. Natijada uning she'riyati an'ana va yangilik uyg'unligiga asoslangan poetik tizim sifatida shakllanadi.

Faynberg poetikasida boshqa shoirlar bilan poetik dialog ham muhim intertekstual unsur hisoblanadi. Adabiyotda bunday jarayon matnlararo muloqot yoki poetik dialog deb ataladi. Bunday dialog orqali shoir o'zidan oldingi adabiy tajriba bilan muloqotga kirishadi va yangi badiiy talqin yaratadi. Bu jarayon shoir poetik tafakkurining boyishiga xizmat qiladi. Shoir she'riyatida madaniy obrazlar ham intertekstual aloqaning muhim ko'rinishlaridan biridir. Faynberg ko'pincha madaniy timsollar, tarixiy shaxslar yoki adabiy obrazlarga murojaat qiladi. Bu obrazlar orqali shoir madaniy xotirani poetik shaklda ifodalaydi. Natijada she'r matni kengroq tarixiy va



madaniy kontekst bilan bog‘lanadi. Masalan, shoir she‘rlaridan birida badiiy matnning madaniy xotira bilan bog‘liqligi quyidagi satrlarda ifodalanadi:

“Har bir so‘z ortida yashar bir tarix,
Har bir satr ortida ovozlar bor.”
(Faynberg A., Saylanma. — Toshkent)

Mazkur satrlarda badiiy matnning boshqa matnlar bilan bog‘liqligi ramziy tarzda ifodalangan. “So‘z ortidagi tarix” va “satr ortidagi ovozlar” obrazlari badiiy matnning madaniy xotira bilan aloqasini anglatadi. Bu esa intertekstual aloqaning poetik ifodasi sifatida talqin qilinishi mumkin. Faynberg poetikasida tarixiy ishoralar ham muhim o‘rin tutadi. Shoir ba‘zan tarixiy voqealar yoki madaniy meros bilan bog‘liq obrazlarga murojaat qiladi. Bu orqali shoir badiiy matnni tarixiy tajriba bilan bog‘laydi va uning semantik qatlamlarini boyitadi. Bunday usul shoir poetikasida madaniy xotira va adabiy an‘ananing davom etishiga xizmat qiladi.

Shunday qilib, Faynberg poetikasida intertekstual unsurlar klassik adabiyot bilan aloqalar, boshqa shoirlar bilan poetik dialog, madaniy obrazlar va tarixiy ishoralar orqali namoyon bo‘ladi. Bu unsurlar shoir she‘riyatining madaniy va estetik qatlamlarini boyitadi hamda uning poetikasini zamonaviy o‘zbek adabiyotida muhim badiiy hodisalardan biriga aylantiradi.

Adabiy an‘ananing poetik talqini

Aleksandr Faynberg poetikasida adabiy an‘ananing poetik talqini muhim ilmiy va estetik ahamiyatga ega. Shoir she‘riyatida matnlararo bog‘lanish mexanizmlari orqali madaniy xotira, tarixiy tajriba va badiiy meros ifodalanadi. Bunday jarayon natijasida shoir poetikasi keng madaniy kontekst bilan bog‘langan ko‘p qatlamli badiiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotshunoslikda matnlararo bog‘lanish mexanizmlarini tushuntirishda intertekstual nazariya muhim ahamiyatga ega. Intertekstual aloqa badiiy matnning boshqa matnlar bilan aloqaga kirishishi va ular bilan semantik muloqotga kirishishini anglatadi. Bu jarayon iqtiboslar, ramziy ishoralar, obrazlar tizimi yoki madaniy timsollar orqali namoyon bo‘lishi mumkin. Intertekstual nazariyaning asoschilaridan biri bo‘lgan Julia Kristeva badiiy matn tabiatini quyidagicha izohlaydi:

“Har bir matn boshqa matnlarning mozaikasidan iborat bo‘lib, unda turli madaniy qatlamlar o‘zaro kesishadi.”
(J. Kristeva, *Desire in Language*, 1980)

Mazkur nazariy qarashga ko‘ra, badiiy matn mustaqil tizim bo‘lish bilan birga, boshqa matnlar bilan uzviy aloqada shakllanadi. Shu sababli intertekstual aloqa adabiyotda madaniy xotira va badiiy an‘ananing davom etishiga xizmat qiladi. Faynberg poetikasida ham madaniy xotira muhim badiiy funksiyani bajaradi. Shoir she‘rlarida turli madaniy obrazlar, tarixiy timsollar va adabiy an‘analar bilan bog‘liq ishoralar uchraydi. Bu obrazlar orqali shoir madaniy xotirani poetik shaklda ifodalaydi. Natijada



badiiy matn o'zida tarixiy tajriba va madaniy merosni aks ettirgan poetik tizimga aylanadi. Intertekstual aloqaning nazariy asoslarini rivojlantirishda Mikhail Bakhtin ning dialogizm konsepsiyasi ham muhim o'rin tutadi. Baxtin fikriga ko'ra, har bir matn boshqa matnlar bilan dialogga kirishadi va shu orqali yangi badiiy ma'no hosil qiladi. Bunday dialog jarayoni adabiy an'ananing uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydi.

Faynberg she'riyati ham aynan shunday dialog jarayonining mahsuli sifatida qaraladi. Shoir o'z she'rlarida klassik adabiyot, tarixiy obrazlar va madaniy timsollar bilan poetik muloqotga kirishadi. Shu orqali shoir poetikasida badiiy an'ana va zamonaviy poetik tafakkur uyg'unlashadi. Adabiy an'ananing poetik talqini shoir poetik tafakkurining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Faynberg o'z she'riyatida an'anaviy poetik obrazlarni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg'unlashtiradi. Bu jarayon natijasida shoir poetikasida yangi estetik imkoniyatlar paydo bo'ladi va badiiy matnning semantik qatlamlari kengayadi. Shuningdek, intertekstual aloqa zamonaviy she'riyatda muhim estetik funksiyani bajaradi. Matnlaro bog'lanish orqali badiiy matnning mazmuni chuqurlashadi, uning talqin imkoniyatlari kengayadi va poetik obrazlarning semantik mazmuni boyiydi. Faynberg poetikasida ham intertekstual aloqalar aynan shunday estetik funksiyani bajaradi. Shunday qilib, Faynberg poetikasida adabiy an'ananing poetik talqini matnlaro bog'lanish mexanizmlari, madaniy xotira va poetik tafakkur orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayon shoir poetikasining semantik va estetik imkoniyatlarini kengaytiradi hamda uning she'riyatini zamonaviy o'zbek adabiyotida muhim badiiy hodisalardan biriga aylantiradi.

XULOSA

Aleksandr Faynberg she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida intertekstual aloqalar va adabiy an'ana uyg'unligi bilan ajralib turadi. Shoir poetikasida matnlaro bog'lanish muhim badiiy xususiyat sifatida namoyon bo'lib, u she'riy matnning semantik va estetik qatlamlarini boyitadi.

Faynberg she'riyatida klassik adabiyot bilan bog'lanish, madaniy obrazlarga murojaat qilish hamda boshqa adabiy matnlar bilan poetik dialog orqali badiiy an'ana davom ettiriladi. Shu orqali shoir poetikasida adabiy meros va zamonaviy poetik tafakkur uyg'unlashadi.

Matnlaro bog'lanish shoir she'riyatining badiiy mazmunini chuqurlashtiradi va uning estetik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan Faynberg ijodi zamonaviy o'zbek she'riyati taraqqiyotida muhim adabiy hodisa sifatida e'tirof etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aleksandr Faynberg. Saylanma. — Toshkent.
2. Aleksandr Faynberg. Tanlangan asarlar. — Toshkent.
3. Julia Kristeva. *Desire in Language*. — New York, 1980.
4. Mikhail Bakhtin. *The Dialogic Imagination*. — Austin, 1981.
5. Najmiddin Komilov. *Adabiyot nazariyasi*. — Toshkent, 2012.



G‘AFUR G‘ULOM IJODINING SHAKLLANISHIDA IJTIMOIIY-MADANIY OMILLAR

Usmonov Ibrohim Alisher o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

email: usmonov8712@gmail.com

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada G‘afur G‘ulomning ijodiy shakllanishi va dunyoqarashi kamolotiga ta’sir ko‘rsatgan asosiy omillar tahlil qilinadi. Xususan, XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar hamda rus klassik adabiyoti vakillari – Lev Tolstoy, Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov va Nikolay Nekrasov ijodining shoir dunyoqarashiga ta’siri yoritiladi.

KALIT SO‘ZLAR: ijodiy shakllanish, inqilob, rus klassik adabiyoti, ijtimoiy adolat, XX asr adabiyoti.

G‘afur G‘ulomning ijodiy shakllanishi va dunyoqarashining kamol topish jarayoni XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan katta ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shoirning shaxsiy hayoti, ma’naviy kamoloti va adabiy didi shakllanishida avvalo rus madaniyati va adabiyoti, shuningdek zamonning revolyutsion ruhi muhim omil bo‘lib xizmat qildi. Shu jihatdan qaraganda, G‘afur G‘ulom ijodining dastlabki bosqichini o‘rganish uning keyingi poetik kamoloti va ijtimoiy pozitsiyasini anglash uchun alohida ahamiyatga ega.

Yosh G‘afur rus maktabida tahsil olish orqali o‘sha davrning ilg‘or madaniy muhitiga kirib keldi. Bu yerda u rus klassik adabiyoti namoyandalari – Lev Tolstoy, Aleksandr Pushkin, Mixail Lermontov hamda Nikolay Nekrasov asarlari bilan tanishdi. Ushbu adiblarning ijtimoiy mazmunga boy, inson taqdiri va adolat g‘oyalari yorituvchi asarlari yosh shoirning dunyoqarashiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, Pushkin va Lermontovning erkinlik va adolat g‘oyalari bilan sug‘orilgan she’rlari, Nekrasovning xalq dardini ifodalovchi asarlari G‘afur G‘ulom qalbida ijtimoiy adolat va inson qadri haqidagi tushunchalarni shakllantirdi. Undan tashqari adib eski o‘zbek yozuvida bitilgan mumtoz adabiy asarlarni, ilmiy va tarixiy kitoblarni erkin mutolaa qilar edi. Ular haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritgan tadqiqotchi hamdir. Akademik G‘afur G‘ulomning Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Avitsenna, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy, Durbek, Alisher Navoyi, Mirxond va boshqa allomalar haqida yozgan ilmiy maqolalari fikrimizning dalilidir.

G‘afur G‘ulom dunyoqarashining shakllanishida XX asr boshida Rossiya va Turkiston hududida sodir bo‘lgan siyosiy voqealar ham muhim rol o‘ynadi. Xususan, 1917-yildagi Fevral inqilobi va ortidan yuz bergan Oktyabr inqilobi butun mintaqaning ijtimoiy hayotini tubdan o‘zgartirdi. Bu voqealar Turkiston xalqlari uchun yangi siyosiy va ijtimoiy imkoniyatlar eshigini ochdi. G‘afur G‘ulom ham bu jarayonlarni diqqat bilan kuzatar, ularning ma’no-mohiyatini anglashga intilar edi. Inqilobiy voqealar uning tafakkurida yangi jamiyat, adolatli hayot va erkinlik haqidagi orzularni kuchaytirdi.



Yoshlik davridagi qiyinchiliklar uni mustaqil hayot kechirishga majbur qildi. U turli ishlar bilan shug'ullandi, keyin esa muallimlar tayyorlash kurslarida o'qidi. Bu davrda u komsomol tashkiloti faoliyatida ishtirok etib, jamiyatdagi madaniy-ma'rifiy ishlarga jalb qilindi. Maktablarda dars berish, xalq orasida ma'rifat targ'ib qilish, yetim bolalarni tarbiyalash kabi ishlar uning hayot tajribasini boyitdi. Ayniqsa, bolalar uyini tashkil etish va undagi faoliyat G'afur G'ulomning insonparvarlik g'oyalarini yanada mustahkamladi. U jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni yaqindan ko'rib, ularni badiiy asarlarda aks ettirishga harakat qildi.

Ana shu davrda shoirning ilk adabiy tajribalari paydo bo'ldi. Yetim bolalar taqdiriga bag'ishlangan dastlabki she'rlaridan biri "Feliks bolalari" deb ataladi. Garchi bu she'rlarda badiiy kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, ularda yosh ijodkorning samimiy tuyg'ulari va ijtimoiy adolatga bo'lgan intilishi yaqqol namoyon bo'ladi. Keyinchalik "Go'zallik nimada" nomli she'rining matbuotda chop etilishi G'afur G'ulomning adabiy faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi.

G'afur G'ulom ijodiy kamolotida rus va sovet adabiyotining ta'siri ham katta ahamiyat kasb etdi. U, ayniqsa, Maksim Gorkiy asarlarini katta qiziqish bilan o'qidi. Gorkiyning inson taqdiri, ijtimoiy adolat va xalq hayotini real tasvirlashga qaratilgan ijodi shoir uchun muhim badiiy maktab vazifasini o'tadi. Shuningdek, Vladimir Mayakovskiy poeziyasi ham G'afur G'ulomning ijodiy uslubi shakllanishida muhim rol o'ynadi. Mayakovskiy poeziyasidagi publitsistik ruh, jamiyatga murojaat qilish an'anasi va yangi badiiy shakllar o'zbek shoiri ijodida ham namoyon bo'la boshladi. Umarali Normatovning fikrlariga ko'ra, o'zbek realistik prozasining tug'ilishi va rivojida G'afur G'ulomning xizmati Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor singari atoqli nosirlarimiz xizmatidan aslo kam emas.

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulomning ijodiy shakllanishi ko'p qirrali omillar ta'sirida kechgan murakkab jarayondir. Rus klassik adabiyoti bilan tanishuv, XX asr boshidagi inqilobiy voqealar, shaxsiy hayotdagi og'ir sinovlar va jamiyat hayotidagi faol ishtirok shoir dunyoqarashini shakllantirgan asosiy omillar bo'ldi. Ana shu omillar ta'sirida G'afur G'ulom xalq hayoti, ijtimoiy adolat va inson qadrini kuylagan yirik ijodkor sifatida shakllandi. Keyinchalik uning poeziyasi va nasriy asarlari o'zbek adabiyotida yangi badiiy yo'nalishlarning rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shdi va milliy adabiyot tarixida muhim o'rin egalladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yoqubov H. G'afur G'ulom (hayoti va ijodi). – T: Badiiy adabiyot, 1959
2. Akbarov A. G'afur G'ulom poeziyasi. – T.: O'zbekiston KP MK nashriyoti. 1970. 40 b.
3. G'afur G'ulom. Tanlangan asarlar. Nazm va nasr. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012 y. 352 bet.
4. Hamidov Z. G'afur G'ulom prozasi leksiyasi. – T.: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Miliy universiteti. 2003. 48 b.
5. Umarali Normatov. Qalb inqilobi. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1986. 352 bet.



BALALAR SALT-DÁSTÚR QOSIQLARINIŇ POETIKALIQ ÓZGESHELIKLARI

MAKSETOVA F. A.

*Filologiya ilimleri boyinsha
filosofiya doktori (PhD)*

*Ózbekstan Respublikası Ilimler Akademiyası
Qaraqalpaqstan bólimi Qaraqalpaq gumanitar
ilimler ilim-izertlew instituti*

Annotaciya: Maqolada qaraqalpaq, ózbek hám qazaq xalıqlarınıń folklorında balalar dástúr qosıqlarınıń poetikalıq ózgeshelikleri salıstırmalı tallaw tiykarında sáwlelendiriledi. Izertlewde balalar mereke qosıqlarınıń janrlıq tábiyatı, ritmikalıq-sintaktikalıq dúzilisi, obrazlar sisteması hám de tárbiyalıq-didaktikalıq mazmunı ilimiy jaqtan túsindiriledi. Izertlew nátiyjesinde balalar dástúr qosıqlarınıń poetikalıq sisteması ulıwma túrkiy tiykarǵa iye ekeni, biraq leksikalıq qatlam hám obraz tańlawda etnomádeniy ózgeshelikler ayqın kórinetuǵını tiykarlanadı.

Tayanish sózler: folklore, balalar, dástúr qosıqları, poetika, janrl, obrazlar, etnomádeniy ózgeshelik

Túrkiy xalıqlar awızeki dóretiwshiliginde balalar dástúr qosıqları xalıqtıń áyemgi dúnyaqarasın, estetikalıq kózqarasların hám tárbiyalıq idealların sáwlelendiriwshi áhmietli folklor qatlamın quraydı. Qaraqalpaq, ózbek hám qazaq xalıqlarında balalar turmısı menen baylanıslı máresimler - náresteni besikke salıw, balanıń birinshi qáдеми, oyın hám máwsimlik dástúrler procesinde atqarılatuǵın qosıqlar xalıq pedagogikasınıń awızeki forması sıpatında qalıplesken bolıp, olardıń tiykarǵı wazıypası balanı ruwxıy hám fizikalıq jaqtan qollap-quwatlaw, oǵan jaqsılıq tilew hám jámiyetlik qádiriyatlardı sińdiriwden ibarat [8,45-47].

Balalar salt-dástúr qosıqlarınıń eń áhmietli poeziyalıq belgilerinen biri olardıń máresim menen tıǵız baylanıslılıǵı bolıp tabıladı. Qosıq teksti belgili bir háreket, máresim yaki simvolliq ámel menen birgelikte atqarıladı. Atap aytqanda, besik máresimi, bala uyqılatıw hám bala menen baylanıslı dáslepki dástúrlerde aytilatuǵın qosıqlarda balanıń salamat ósiwi, qáwiplerden saqlanıwı haqqındaǵı tilek hám duwalar jetekshi orın ieleydi. Bul jaǵday balalar qosıqlarınıń qorgawshı hám merkelik wazıypasın kúsheytedi [9,112-114].

Poetikalıq dúzilis kózqarasınan balalar dástúr qosıqlarına ıqshamlıq, ápiwayı sintaksislik qurılıs, ırǵaqlılıq hám ritmikalıq teń salmaqlılıq tán. Qosıq qatarlar qısqa bolıp, tákirarlar, parallel qaytalawlı qatarlar keń qollanıladı. Bul poetikalıq qurallar qosıqlardıń tez yadlanıwı hám ańsat atqarılıwına xızmet etedi. Ásirese, balalar sóylewine sáykes túrde seslerdiń únlesligi hám fonetikalıq ápiwayılıq ústinlik etedi [4,76-79].

Qaraqalpaq balalar salt-dástúr qosıqlarında dawıs tákirarlanıwı alliteratsiya hám assonans hádiyseleri keń ushıraydı. Bul jaǵday teksttiń oyın xarakterin



kúsheytip, qosıqtı atqarıw procesinde háreket hám mimika menen úylesiwine imkaniyat jaratadı. Ózbek hám qazaq balalar qosıqlarında da fonetikalıq poetika jetekshi bolıp, biraq ayırım leksikalıq birlikler hám ayılıw ózgeshelikleri arqalı milliy reń sezilip turadı [11,62-65].

Balalar úrp-ádet qosıqlarınıń áhmietli poeziyalıq ózgeshelikleriniń jáne biri obrazlar sistemasınıń ápiwayılıǵı hám simvolikalıq mazmunı menen ajıralıp turıwı bolıp tabıladı. Quyash, ay, juldız, qus, qoy, tulpar sıyaqlı obrazlar balanıń pákligin, pákligin, keleshekke bolǵan úmiti hám jaqsı nietlerin bildiriwge xızmet etedi. Bul obrazlar balalar oylawına jaqın bolǵan tábiyat elementleri arqalı jaratılǵanlıǵı menen diqqatqa ılayıq [1,89-92].

Qaraqalpaq balalar salt-dástúr qosıqlarında qus obrazı kóbirek baxıt hám erkinlik tımsalı sıpatında qollanıladı. Sonday-aq, suw, samal hám keńislik penen baylanıslı obrazlar Aralboyı aymaǵınıń tábiyǵıy ortalıǵı hám xalıqtıń dúnya tanıwı menen tikkeley baylanıslı túrde poetikalıq talqılanadı [5,133-136].

Al, qazaq balalarınıń dástúr qosıqlarında tulpar, keń dala hám erkinlik penen baylanıslı obrazlar jetekshilik etedi. Bul obrazlar arqalı balanıń keleshekke batır, epshil hám el-jurtqa paydalı insan bolıp jetilisiwi haqqındaǵı arız-w-niyetler bildirilgen. Bul poetikalıq kózqaraslar qazaq xalqınıń tariyxıy-mádeniy ortalıǵına tán simvolikalıq sistemanı quraydı [6,41-44].

Ózbek balalar salt-dástúr qosıqlarında nan, suw, baǵ hám gúl obrazları kóbirek ushırasıp, olar bereket, abadanlıq hám tınısh turmıs ideyaların bildiredi. Bul jaǵday diyqansılıq hám baǵshılıq mádeniyatınıń xalıq poetikalıq oy-pikirine tereń sińip ketkenin kórsetedi [12,118-120].

Balalar salt-dástúr qosıqlarınıń jáne bir áhmietli tárepi olardıń dialoglıq formada dúzilgenliginde. Ayırım qosıqlarda atqarıwshı hám bala arasında soraw-juwap túrindegi sóylew qollanılıp, bul poetikalıq kompoziciyanı janlandıradı hám balanı belsendi qatnasıwshı sıpatında tartadı. Nátiyjede qosıq tek esitiletuǵın tekst emes, al atqarıw barısında dóretiletuǵın folklorlıq qubılısqa aylanadı.

Bul qosıqlarda tárbiyalıq mazmun oraylıq orındı ieleydi. Poeziyalıq tekst arqalı ata-anǵa húrmet, úlkeni qádirlew, miynet súygishlik, jámaátke sadıqlıq sıyaqlı ádep-ikramlılıq pazıyletler balalardıń sanasına sińdiriledi. Didaktikalıq ideya tikkeley násiyat formasında emes, al obrazlar hám simvollar arqalı kórkem formada beriliwi menen áhmietli [3,58-60].

Túrkiy xalıqlar balalar folklorın ilimiy jaqtan úyreniwde ózbek folklorshılıǵında Towra Mirzaev hám Baybota Dustqoraevtıń izertlewleri úlken áhmietke iye. Olardıń shıǵarmalarında balalar folklorı janları, poetikalıq ózgeshelikleri hám tárbiyalıq wazıypaları sistemalı tallanǵan [8;3].

Qaraqalpaq balalar salt-dástúr qosıqlarınıń tekstlerin jıynaw hám baspadan shıǵarıwda kóp tomlıq Qaraqalpaq folklorı baspası tiykarǵı derek bolıp esaplanadı. Bul toplamda dástúr hám oyın qosıqlarınıń kóplegen úlgilerin ushıratıw múmkin bolıp, olar qaraqalpaq balalar folklorınıń poetikalıq sistemasın úyreniwde áhmietli material wazıypasın atqaradı. [7,201-203].

Qazaq balalar folklorınıń tariyxıy-poetikalıq tamırların sáwlelendiriwde Muxtar Áwezov hám Shokan Wáliyhanovtıń ilimiy kózqarasları ayrıqsha orın



ieleydi. Olar qazaq xalq awızeki dóretiwshiliginiń janrlıq ózgesheliklerin, poetikalıq oy-pikirin hám tárbiyalıq baǵdarların tariyxıy kózqarastan túsindirip bergin [2,214-216].

Balalar salt-dástúr qosıqlarınıń kompoziciyası kóbinese kirisiw- tilek yamasa duwa juwmaqlawshı bólimlerden ibarat. Geyde bolsa pútkil tekst tek tilek hám tileklerdiń izbe-izliginen ibarat boladı. [10,115-117].

Qaraqalpaq, ózbek hám qazaq balalar dástúr qosıqların salıstırmalı talqılaw olardıń poetikalıq sisteması ulıwma túrkiy tiykarǵa iye ekenin kórsetedi. Sonıń menen birge, leksikalıq qatlam, ayırım obrazlardıń tańlanıwı hám ırǵaq dúzilisinde aymaqlıq jáne etnomádeniy ózgeshelikler bar ekenligi ayqın seziledi.

Juwmaqlap aytqanda, balalar úrp-ádet qosıqları túrkiy xalıqlardıń áyemgi isenimleri, estetikalıq kózqarasları hám xalq pedagogikalıq tájiriyesin jámlegen siyrek ushırasatuǵın poetikalıq sistema bolıp tabıladı. Olar balalardıń dúnya qarasın qalıplestiriwde, ádep-ikramlılıq pazıyletlerdi síndiriwde hám milliy mádeniy estelikti saqlawda úlken áhmiyetke iye.

Ádebiyatlar:

1. Awezov M. Qazaq xalq og‘zaki ijodi va adabiy merosi. – Almati: FЫЛЫМ, 1997.
2. Waliyxanov Sh. Tanlangan asarlar. – Almati: Jazushy, 1985.
3. Dustqorayev B. Bolalar folklori va xalq pedagogikasi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012.
4. Dustqorayev B. O‘zbek folklori poetikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Qoraqalpoq folklori. 1-jild. – Nukus, 2011..
6. Qazaq xalq og‘zaki ijodi. 5-jild. – Almati: Atamura, 2006.
7. Qoraqalpoq folklori. 3-jild. – Nukus, 2012.
8. Mirzayev T. O‘zbek bolalar folklorining janr xususiyatlari haqida. – Toshkent: Fan, 2010.
9. Mirzayev T. Xalq og‘zaki ijodida marosim va poetika masalalari. – Toshkent: Fan, 2008.
10. Mirzayev T. Xalq og‘zaki ijodida marosim va poetika masalalari.
11. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. 12-jild. – Toshkent: Fan, 2005.
12. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. 18-jild. – Toshkent: Fan, 2009.



G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA DAVR RUHIYATI VA INSONIY QADRIYATLAR

Uktamova Sevinch Uktam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti

2-bosqich talabasi

sevinchuktamova71@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi badiiy va ijtimoiy jihatdan ahamiyati hamda asardagi XX asr boshlaridagi og'ir tarixiy sharoit, xalq turmushining qiyinligi hamda qashshoqlik muammolari tahlil qilinadi. Roqiya bibi va o'g'ri o'rtasidagi suhbat orqali zamonning murakkabligi, ijtimoiy tengsizlik va insonlarni jinoyatga majbur qilgan davr sharoitlari ochib beriladi. Shu bilan birga, asarda og'ir hayotga qaramay insoniylik, mehr-oqibat va axloqiy qadriyatlarning saqlanib qolishi muhim g'oya sifatida yoritiladi.

KALIT SO'ZLAR: G'afur G'ulom, davr, qashshoqlik, ijtimoiy tengsizlik, insoniylik, mehr-oqibat, Roqiya bibi.

G'afur G'ulom qalamiga mansub "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi 1965 yilda yozilgan bo'lsa-da, unda tasvirlangan voqealar XX asr boshlariga, ya'ni 1917 yil burilish davri hamda shu davrdagi xalq turmushining og'irlashgan sharoitiga borib taqaladi. Asar faqat bir uyga kirgan o'g'ri va u bilan suhbatlashgan Roqiya bibi haqida emas, balki u orqali butun bir xalqning kechmishi, qashshoqlik, hayot uchun kurash, insonparvarlik va mehr-oqibat ruhi tasvirlanadi. Ushbu hikoya voqeyiy bo'lib, uning yozilishi urush yillari davriga borib taqaladi. Asar quyidagi jumlar bilan boshlanadi: "Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi. Bu yil o'n yettinchi yilning ko'klamida onamizdan ham ajralib, shum yetim bo'lib qoldik." Mazkur jumlar asarning ruhini belgilab beradi, ya'ni u faqat bir oilaninggina emas, balki butun xalqning yetim qolgan, parokanda bo'lgan taqdiri haqida. Shuningdek, hikoya qahramoni bo'lmish bolakayning ichki kechinmalarida beg'uborlik bilan birga sezilmas izzat ham mavjud. Uning "bizning uyimizga ham o'g'ri kelibdi"-deb quvonishi bir qaraganda kulgili tuyulsa-da, aslida juda achinarli holatni ochib bergan.

Asar davomida Roqiya buvi va o'g'ringin qizg'in, ammo achchiq haqiqatlarga to'la suhbatining guvohi bo'lamiz. Muallif ushbu suhbat orqali ikki nochor inson, ammo, qalb dunyosi boy bo'lgan Roqiya bibi va o'g'ringin ruhiy dunyosini hamda zamonning og'ir sharoitini juda tabiiy, hayotiy ohangda ochib beradi. Shunday ekan, qahramonlar o'rtasidagi suhbatni tahlil qilish o'rinlidir. O'g'ringin "Nimalarni xayol surasiz buvijon?"-degan savoliga Roqiya buvining "Nimalarni xayol surardim. Shu to'rtta yetimning ertasini o'ylayman-da, bolam. Zamoni o'zing ko'rib turibsan, tirikchilik toshdan qattiq, tuyaning ko'ziday non anqoga shapig"-deya javob berishi har bir o'qiguvchining e'tiborini tortishi tabiiy. Muallif ushbu qisqa dialog orqali o'sha



yillar og'irligini, jamiyatdagi siyosiy va iqtisodiy notinchlikning oddiy odamlar hayotiga qanday ta'sir qilganini, ayniqsa kambag'al oilalarning nochor ahvoli, ko'plab kasb va hunarlar kasodga uchraganini nihoyatda ta'sirli tarzda ochib beradi.

Asar voqealari hozirgi davrda sodir bo'lganda o'g'rining xatti-harakatlari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin edi. Aslida huquqiy nuqtai nazardan qaraganda hech bir inson "jinoatchi bo'laman"-deb tug'ilmaydi. Insonni bu kabi ishlarga qo'l urishga bugungi kunda ham nimadir sabab bo'ladi, masalan, nochorlik, muhtojlik, noto'g'ri muhit bo'lishi mumkin. Asardan ma'lumki, asar qahramonining o'zi ham o'g'rilikni kasb qilishni xohlamagan. O'sha davr muhiti va tirikchilik tashvishlari uni shunga majbur etgan. Shu o'rinda asar qahramoni bo'lmish o'g'rining tilidan aytilgan quyidagi jummalarni keltirish o'rinlidir: "To'rtta chavati non topish uchun o'zimni o'tgachocho'qqa, Alining tig'iga uraman. Bo'lmasa, ishlay desam, bilagimda quvvat bor, aql-u hushim joyida. Menga hozir shu qilib turgan o'g'rilik kasbi yoqadi deysizmi? Tuppatuzuk ayolmand kosibning bolasi edim. Zamon chappasiga ketdi. Kerinska poshsho bo'lgandan keyin urush to'xtaydi, degan edilar. Hali-beri to'xtaydigan ko'rinmaydi, hali ham zamon-zamon o'sha iligi to'qlarnikini." O'g'ri bu kasb unga yoqmasligini, balki hayot uni bunga majbur qilganini afsus bilan aytadi. Kerenskiy poshsho davrida urush to'xtaydi degan umidlar oqlanmagani, zamon faqat iligi to'qlarga qulay bo'lib qolganini tilga olishi o'sha paytdagi ijtimoiy tengsizlikka ishora qiladi. Bu jumlar orqali muallif o'g'rilikning mohiyati jinoyatda emas, balki hayot mashaqqatida ekanligiga e'tibor qaratadi. Shunga qaramasdan, asar qahramonlari o'z insoniyligini saqlab qola olgan. Hattoki bugungi kunda odamlarda o'zaro mehr-oqibat tuyg'usi kamayib borayotgan bir paytda asar qahramonlarining o'sha davrda ham o'zligini saqlab qola olganligi ahamiyatlidir. Jumladan, Roqiya buvining o'g'riga "og'rigina bolam" deb murojaat qilishi, o'g'rining ham "buvijon" deya yaqindan suhbat qurishi insoniylikning yaqqol dalilidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, adibning mazkur hikoyasi birinchi jahon urushi yillarining og'ir, notinch davrini yoritgan bo'lsa-da, uning mazmuni bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan. Asar zamon sharoitining qiyinchiliklari va insoniylik fazilatlarining qadrini chuqur aks ettiradi. Hikoya qahramoni bo'lmish o'g'ri esa hayotning og'irligi va oilasini boqish uchun noiloj shu yo'lga kirgan, shunday bo'lsa-da qalbida halollik, mehr va axloqiy tuyg'ularni saqlagan inson sifatida tasvirlangan. Chunki, muallif Roqiya bibi va o'g'ri o'rtasidagi suhbat orqali o'sha davrda ko'p hollarda odamlarni jinoyatga zamonning o'zi, hayotning mashaqqatlari majbur qilganini nazarda tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://zarnews.uz/uz/post/mutolaa-mening-ogrigina-bolam-hikoya>
2. G'afur G'ulom. "Mening o'g'rigina bolam. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashr. 1993.
3. https://cyberleninka.ru/article/n/gofur-gulomning-hayoti-va-ijod-yoli?utm_source
4. https://adiblar.gitbook.io/adiblar/gafur-gulom?utm_source



ИҚТИСОД ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

THE MIDDLE INCOME TRAP: THEORETICAL BASIS, DETERMINANTS,
AND WAYS OUT OF IT

Safarov Sindor Sanjar's son

Tashkent State University of Economics

PhD student

Email: safarovsindorbek@tsue.uz

Introduction. The middle-income trap (MIT) is a condition in which there is no clear model for satisfactory development in a middle-income economy. Since the 1990s, only 34 middle-income economies have escaped this trap. The rest, 108 at the end of 2023, fell into the "middle-income trap".¹⁴ Since the World Bank introduced the term "Middle-Income Trap" (MIT) in 2005, the number of middle-income countries has increased by almost a third, which in turn necessitates a serious discussion of the MIT concept.

Main part: Studies on the MIT explain the pattern of trap occurrence through quantitative approaches, absolute quantitative approaches, and relative quantitative approaches.¹⁵ In quantitative approaches, the MIT is considered a state of social dysfunction, in which the country is unable to use new strategies for economic growth. While absolute quantitative approaches assume it as a persistently strong slowdown in GDP growth, relative quantitative approaches interpret the MIT as a cessation of convergence of GDP per capita with that of a developed country, most often the United States.

The MIT generally seeks to bridge the gap between classical growth theory and modern institutional and Schumpeterian perspectives.¹⁶ Based on this, we identify the main determinants of MIT as follows:

1. The core paradox embedded in the assimilation between wages and productivity.¹⁷ This occurs when wage growth exceeds productivity growth, causing countries to lose competitiveness in labor-intensive manufacturing.
2. Schumpeter's determinants of innovation must occur over a long period of time with creative destruction.¹⁸
3. Institutional and political factors considered as "institutional traps".¹⁹ These include persistent corruption and reduced total factor productivity, which lead to capital losses, while also forcing countries to adjust to current income levels.²⁰

The ways to avoid the MIT are as follows:

¹⁴ World bank report 2024.

¹⁵ Glawe, Linda and Wagner, Helmut (2016): *The middle-income trap - definitions, theories and countries concerned: a literature survey*.

¹⁶ Philippe Aghion and Çağatay Bircan, 2017. The middle-income trap from a Schumpeterian perspective. An article. Page 2.

¹⁷ Eva Paus, 2017. "ESCAPING THE MIDDLE-INCOME TRAP: INNOVATE OR PERISH". Asian development bank institute.

¹⁸ Philippe Aghion and Çağatay Bircan, 2017. "The middle-income trap from a Schumpeterian perspective". the Asian Development Outlook.

¹⁹ Diane Zovighian, Verena Fritz, 2025. "Overcoming the middle-income trap: Why institutions matter". [Governance for Development](#).

²⁰ Joshua Ping Ang, Fang Dong, 2023. Middle-income trap and corruption: Evidence from a dynamic panel data analysis.



1. To avoid the fundamental paradox, we need to either slow down the rate of real wage growth or increase productivity growth. When it comes to increasing GDP, reducing real wages through sticky prices²¹ has a limiting effect. Therefore, we need to increase productivity growth by stimulating growth within industries or by shifting between industries.

2. If a country aims to develop with Schumpeterian means, it must shift investment from physical capital to intangible assets such as research and development, patent activity, and high-quality higher education.

3. In the “institutional trap” scenario, without strong intellectual property rights and a reliable legal system that usually operates online, entrepreneurs have no incentive to invest in the “new combinations” necessary for high-profit status.

Conclusions. The MIT is formed in the absence of a clear model for satisfactory development in a middle-income economy. Theories of the MIT explain the pattern of occurrence of the trap through quantitative approaches, absolute quantitative approaches, and relative quantitative approaches.

The main determinants of the MIT consist of the Core Paradox, Schumpeterian determinants, and institutional-political factors. To avoid the MIT:

- Increase labor productivity growth at a rate not less than the growth of real wages;
- Countries should clearly determine when to use investment policies and when to use innovation policies to stimulate the economy;
- Strong intellectual property rights (IPR) and a reliable legal system, usually operating online, are proposed to solve problems in institutional and political factors.

References:

1. Glawe, Linda and Wagner, Helmut (2016): *The middle-income trap - definitions, theories and countries concerned: a literature survey*.
2. Philippe Aghion and Çağatay Bircan, 2017. The middle-income trap from a Schumpeterian perspective. An article. Page 2.
3. Eva Paus, 2017. “ESCAPING THE MIDDLE-INCOME TRAP: INNOVATE OR PERISH”. Asian development bank institute.
4. Philippe Aghion and Çağatay Bircan, 2017. “The middle-income trap from a Schumpeterian perspective”. the Asian Development Outlook.
5. [Diane Zovighian](#), [Verena Fritz](#), 2025. “Overcoming the middle-income trap: Why institutions matter”. [Governance for Development](#).
6. [Xiaoshan Hu](#), [Guanghua Wan](#), [Chen Yang](#), [Anqi Zhang](#). “Inequality and the middle-income trap”. *Journal of International Development*. 29 January 2023. Link: <https://doi.org/10.1002/jid.3747>
7. G Mankiw, 2015. *Macroeconomics*. Textbook. Page 679.
8. Joshua Ping Ang, Fang Dong, 2023. Middle-income trap and corruption: Evidence from a dynamic panel data analysis. <https://doi.org/10.1016/j.rie.2023.06.003>
9. World Bank Report 2024. Link: <https://openknowledge.worldbank.org/bitstreams/8dca4aff-e0f5-4865-b245-ec9c4583aa60/download>.

²¹ Mankiw G, 2015. *Macroeconomics*. P 11



ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАР АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШ, ИҚТИСОДИЙ ДАРОМАДЛАРНИ ОШИРИШ ВА ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШНИ РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР

Мирзаев Қ.Ж. – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти профессори, и.ф.д. Ўзбекистон. kulmamatmirzaev@mail.ru

Махмадиярова Ю.Н. – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти РТТмаркази ходими, мустақил изланувчи.

Аннотация ушбу мақолада доривор ўсимликлар мамлакат иқтисодиётининг турли соҳалари - фармацевтика саноати, қишлоқ хўжалиги, экспорт ва илмий тадқиқотлар ривожига сезиларли таъсир кўрсатишига алоҳида эътибор қаратилган. Ушбу соҳа қишлоқ хўжалигида аҳоли бандлигини таъминлаш, иқтисодий даромадларни ошириш ва инновацион ривожланишни рағбатлантиришда муҳим омил ҳисобланади.

Калит сўзлар: қишлоқ хўжалиги, доривор ўсимликлар, аҳоли бандлиги, иқтисодий даромад, барқарор ривожланиш.

Аннотация В данной статье особое внимание уделяется тому факту, что лекарственные растения оказывают значительное влияние на развитие различных секторов экономики страны – фармацевтической промышленности, сельского хозяйства, экспорта и научных исследований. Этот сектор является важным фактором обеспечения занятости населения в сельском хозяйстве, повышения экономических доходов и стимулирования инновационного развития.

Ключевые слова: сельское хозяйство, лекарственные растения, занятость населения, экономический доход, устойчивое развитие.

Abstract: This article emphasizes the significant impact medicinal plants have on the development of various sectors of the country's economy, including the pharmaceutical industry, agriculture, exports, and scientific research. This sector is an important factor in ensuring employment in agriculture, increasing economic income, and stimulating innovative development.

Key words: agriculture, medicinal plants, employment, economic income, sustainable development.

Марказий Осиёда асрлар давомида ўзига хос шарқ “Халқ табобати” шаклланган бўлиб, у минг йиллар давомида шифобахш ўсимликлардан фойдаланиш тажрибасига асосланган. Халқ табобатининг асосий манбаи– шифобахш ўсимликлар ва уларнинг хом-ашёси асосида тайёрланган доривор воситалар ҳисобланган. Маълумки, инсонларда учрайдиган касалликларни даволаш ҳамда шу касалликларнинг олдини олиш мақсадида ишлатиладиган ўсимликлар доривор ўсимликлар ҳисобланади. Эрамиздан аввалги даврлардаёқ



инсонларда шифобахш ўсимликлар ва улар ёрдамида кўпгина касалликларни даволаш усуллари ҳақида маълумотлар келтирган ҳамда амалиётда қўлланилмоқда.

Эрамиздан 5000 йил аввалги Шумер давлатида сопол тахтачаларга ёзилган ва 1956 йилда немис олимлари томонидан ўқишга муваффақ бўлинган қадимги ёзувларда ҳам доривор ўсимликлардан доривор малҳамлар тайёрлаш усуллари ҳақида маълумотлар мавжуд. Қадимги Сурия шоҳи Ассурбанипал кутубхонасида (эрамиздан аввалги 668 йил) сопол тахтачаларга миҳхат билан ёзилган 22000 жадваллар топилган, уларнинг 33 тасида доривор ўсимликлар ва улар асосида тайёрланган маҳсулотлар ҳақида маълумотлар келтирилган [1]. Миср папируслари (эрамиздан аввалиги 3000 йил олдин), қадимги хитой тиббиёти намунаси “Ўтлар ва илдизлар ҳақида қонун” (эрамиздан аввал 2800 йил олдин ёзилган ва қўлланилган) каби қадимги бизгача етиб келган манбаларда доривор ўсимликлардан фойдаланиш ва улар асосида шифобахш малҳамлар тайёрлаш усуллари келтирилган. Ўсимликларни доривор восита сифатида инсон томонидан қўлланиши ўтмишдан, яъни инсон ўзини биринчи марта ўсимлик билан даволаган илк даврлар давомида бошланган деб ҳисоблаш мумкин. Бутун дунё халқларининг минг йиллар давомида асосий шифобахш воситалари доривор ўсимликлар ва улардан олинган шифобахш неъматлар асосида тайёрланган. Кимё фани ривожланиши дори олишнинг синтетик, табиатда учрамайдиган кимёвий бирикмалар, шу жумладан, дориворлик хусусиятига эга сунъий моддаларни кўплаб синтез қилишдан бошланди. Натижада илмий тиббиётда доривор ўсимликларга бўлган қизиқиш ва улардан фойдаланиш бир оз эътибордан четда қолди. Лекин, халқ орасида ҳамда анъанавий тиббиёт яхши тараққий этган давлатларда, айниқса Жануби-Шарқий Осиё (Хитой, Ҳиндистон, Япония, Корея) ҳамда Африка давлатларида доривор ўсимликлар ҳамон асосий даволовчи воситалар сифатида кенг қўлланилади. Ҳозирги кунда ҳам улар тиббиёт ва фармацевтика соҳасининг муҳим хомашё манбаларидан бири ҳисобланади. Табиий доривор ресурслардан самарали фойдаланиш нафақат инсон саломатлигини муҳофаза қилишда, балки мамлакат иқтисодиётини ривожлантиришда ҳам катта аҳамият касб этади.

Аввало, доривор ўсимликлар фармацевтика саноатининг ривожланишига муҳим ҳисса қўшади. Кўплаб дори воситалари айнан доривор ўсимликлар таркибидаги биологик фаол моддалар асосида ишлаб чиқарилади. Масалан, алкалоидлар, гликозидлар, эфир мойлари, витаминлар ва бошқа моддалар фармацевтикада кенг қўлланилади. Бу эса дори ишлаб чиқариш корхоналарининг фаолиятини кенгайтиришга ва янги технологияларни жорий этишга хизмат қилади. Бунинг натижасида биринчидан, мамлакатда фармацевтика маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажми ортиб, ички бозор эҳтиёжлари қондирилади ҳамда импортга бўлган эҳтиёж камаяди.

Иккинчидан, доривор ўсимликларни етиштириш ва қайта ишлаш қишлоқ хўжалигининг муҳим тармоқларидан бирига айланиб бормоқда. Кўплаб фермер хўжаликлари ва агрокластерлар доривор ўсимликлар етиштириш билан шуғулланмоқда. Бу эса қишлоқ жойларда янги иш ўринларининг яратилишига,



аҳолининг даромад манбаларини кўпайтиришга ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари турларини диверсификация қилишга олиб келади. Шунингдек, айрим доривор ўсимликлар кам ер майдонида ҳам юқори даромад келтириши билан иқтисодий жиҳатдан самарали ҳисобланади.

Учинчидан, доривор ўсимликлар мамлакатнинг экспорт салоҳиятини оширишда ҳам муҳим омил ҳисобланади. Жаҳон бозорида табиий доривор маҳсулотларга бўлган талаб йилдан-йилга ортиб бормоқда. Шу сабабли доривор ўсимликлар хомашёси, қуритилган ўсимлик қисмлари, эфир мойлари ва тайёр фитопрепаратлар хорижий мамлакатларга экспорт қилиниши мумкин. Бу эса мамлакатга қўшимча валюта тушумларини келтиради ва ташқи иқтисодий алоқаларни мустаҳкамлайди.

Тўртинчидан, доривор ўсимликлар асосида олиб бориладиган илмий тадқиқотлар биология, фармакология, биотехнология ва кимё соҳаларининг ривожланишига хизмат қилади. Олимлар доривор ўсимликларнинг кимёвий таркиби, фармакологик хусусиятлари ва тиббий қўлланилиши бўйича изланишлар олиб бориш орқали янги дори воситалари ва биологик фаол қўшимчаларни яратиш имкониятига эга бўладилар. Бу эса инновацион иқтисодиётни ривожлантиришга хизмат қилади.

Бешинчидан, доривор ўсимликлар атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва барқарор ривожланиш нуқтаи назаридан ҳам муҳим аҳамиятга эга. Табиий доривор ресурслардан оқилона фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш орқали биологик хилма-хиллик сақланади. Шу билан бирга, доривор ўсимликларни маданий ҳолда етиштириш табиий популяцияларнинг камайиб кетишининг олдини олади.

Хулоса қилиб айтганда, доривор ўсимликлар мамлакат иқтисодиётининг турли соҳалари - фармацевтика саноати, қишлоқ хўжалиги, экспорт ва илмий тадқиқотлар ривожига сезиларли таъсир кўрсатади. Улар аҳоли бандлигини таъминлаш, иқтисодий даромадларни ошириш ва инновацион ривожланишни рағбатлантиришда муҳим омил ҳисобланади. Шунинг учун доривор ўсимликлар ресурсларини муҳофаза қилиш, уларни илмий асосда етиштириш ва қайта ишлашни кенгайтириш мамлакат иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг муҳим йўналишларидан бири ҳисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мурдахаев Ю.М. *Култура лекарственных растений в Узбекистане*. Ташкент. Изд. Абу Али Ибн Сино, 1999.
2. Мурдахаев Ю.М. *Ўзбекистонда ватан топган доривор ўсимликлар*. Ташкент. Изд. Фан. 1995.
3. Холматов Х.Х. ва Хабибов З.Х. *Ўзбекистоннинг шифобахш ўсимликлари*, Тошкент, 1976.
4. Холматов Х.Х., Ахмедов У.А. *Фармакогнозия, Ибн Сино номидаги НМБ*, Тошкент, 1995 й.
5. Э.Т. Ахмедов. *Доривор ўсимлик ресурслари ва муҳофазаси (ўқув қўлланма)*. - Тошкент, ТошДАУ. Таҳририят нашриёт бўлими, 2019. 208 бет



ЦИРКУЛЯР ИҚТИСОДИЁТНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ

Хасанхонова Нодира Исаметдиновна,

ТДИУ, и.ф.д.

e-mail: hasanxonova@mail.ru

Аннотация. Мазкур ишда циркуляр иқтисодиётнинг назарий асослари, унинг шаклланиш манбалари ва асосий тамойиллари таҳлил қилинган. Циркуляр иқтисодиёт анъанавий чизиқли иқтисодий моделдан фарқли равишда ресурслардан самарали фойдаланиш, маҳсулотларни қайта ишлаш ва чиқиндиларни минималлаштиришга қаратилган иқтисодий тизим сифатида қаралади.

Калит сўзлар: циркуляр иқтисодиёт, барқарор ривожланиш, ресурс самарадорлиги, чиқиндиларни қайта ишлаш, яшил иқтисодиёт, саноат экологияси, инновацион технологиялар, экологик барқарорлик.

Жаҳон иқтисодиётида ресурслардан самарали фойдаланиш, экологик барқарорликни таъминлаш ва чиқиндиларни камайитириш масалалари ХХІ асрда долзарб аҳамият касб этмоқда. Анъанавий иқтисодий модел – “олиш–ишлаб чиқариш–истеъмол қилиш–ташлаш” (linear economy) тизими табиий ресурсларнинг тез суръатларда камайишига, атроф-муҳитнинг ифлосланишига ва экологик муаммоларнинг кучайишига олиб келмоқда. Шу сабабли иқтисодий ривожланишнинг янги концепцияси сифатида циркуляр иқтисодиёт (circular economy) назарияси илмий доираларда ва амалиётда кенг муҳокама қилинмоқда.

Циркуляр иқтисодиёт – бу ресурслардан самарали фойдаланиш, маҳсулотлар ҳаёт циклини узайтириш ва чиқиндиларни иқтисодий айланмага қайта киритишга асосланган иқтисодий тизимдир. Унинг асосий мақсади - иқтисодий ўсишни табиий ресурслар сарфи ва экологик зарардан ажратишдан иборат. Тадқиқотчиларнинг фикрича, циркуляр иқтисодиёт концепцияси саноат экологияси, барқарор ривожланиш ва “яшил иқтисодиёт” назариялари билан чамбарчас боғлиқ. Масалан, тадқиқотчи К. Гейсер циркуляр иқтисодиётни “ресурслар ва материаллар доимий равишда қайта ишлаб чиқариш жараёнига қайтариладиган иқтисодий тизим” сифатида таърифлайди[1]. Шунингдек, Э. МакАртур жамғармаси мутахассислари циркуляр иқтисодиётни “иқтисодий фаолиятда чиқиндиларни минималлаштириш ва ресурсларнинг қийматини максимал даражада сақлашга қаратилган тизим” деб таърифлайдилар[2].

1-жадвал.

Циркуляр иқтисодиёт концепциялари

№	Назарий ёндашув	Асосий мазмуни	Асосий муаллифлар	Циркуляр иқтисодиётга қўшган ҳиссаси
1	Барқарор ривожланиш концепцияси	Иқтисодий ўсиш, экологик мувозанат ва ижтимоий барқарорлик ўртасидаги мутаносиблик	G. Brundtland, Н. Daly	Циркуляр иқтисодиётнинг экологик ва ижтимоий



				асосларини шакллантирди
2	Саноат экологияси (Industrial Ecology)	Саноат тизимини табиий экотизимга ўхшаш айланма ресурслар тизими сифатида қараш	R. Frosch, N. Gallopoulos	Ишлаб чиқариш чиқиндиларини қайта ишлаш ва ресурслар айланмасини асослади
3	“Cradle to Cradle” модели	Маҳсулотлар шундай ишлаб чиқариладики, улар тўлиқ қайта ишланади ва табиатга зарар етказмайди	W. McDonough, M. Braungart	Чиқиндисиз ишлаб чиқариш концепциясини ривожлантирди
4	“3R” тамойили (Reduce, Reuse, Recycle)	Ресурс сарфини камайтириш, маҳсулотни қайта фойдаланиш ва қайта ишлаш	Япония экологик сиёсати мутахассислари	Циркуляр иқтисодиётнинг амалий механизмларини белгилади
5	Яшил иқтисодиёт концепцияси	Иқтисодий ўсишни экологик барқарорлик ва ресурс тежамкорлиги билан уйғунлаштириш	UNEP экспертлари	Экологик инновациялар ва ресурс самарадорлигини рағбатлантирди

Жадвалда циркуляр иқтисодиёт назариясининг шаклланишида муҳим ўрин тутган асосий илмий ёндашувлар келтирилган. Ушбу ёндашувлар иқтисодий фаолиятни экологик барқарорлик ва ресурслардан самарали фойдаланиш тамойиллари асосида ташкил этишга қаратилган.

Циркуляр иқтисодиёт назариясига кўра, иқтисодий тизим табиатдаги табиий цикллардан илҳом олиши лозим. Табиатда чиқиндилар деярли мавжуд эмас: бир организм чиқиндиси бошқаси учун ресурс ҳисобланади. Циркуляр иқтисодиёт назарияси бир қатор асосий тамойилларга таянади. Биринчи тамойил – ресурсларни тежаш ва улардан самарали фойдаланиш.

Иккинчи тамойил – маҳсулотларни қайта ишлаш ва қайта фойдаланиш. Маҳсулотларнинг ҳаёт циклини узайтириш орқали чиқиндилар ҳажмини сезиларли даражада камайтириш мумкин.

Учинчи тамойил – ёпиқ ишлаб чиқариш цикларини шакллантириш. Бу ишлаб чиқариш жараёнида ҳосил бўлган чиқиндиларни бошқа соҳаларда ресурс сифатида ишлатишни назарда тутати.

Тўртинчи тамойил – инновациялар ва “яшил технологиялар”ни жорий этиш. Циркуляр иқтисодиёт инновацион технологиялар ва рақамли ечимлардан фаол фойдаланишни талаб қилади.

Айрим тадқиқотларга кўра, циркуляр иқтисодиёт тамойилларини кенг жорий этиш жаҳон иқтисодиётида триллионлаб долларлик қўшимча иқтисодий самара яратиши мумкин[3]. Шу сабабли Европа Иттифоқи, Япония, Хитой ва бошқа мамлакатлар иқтисодий сиёсатларида циркуляр иқтисодиётни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, циркуляр иқтисодиёт замонавий иқтисодий ривожланишнинг муҳим концепцияларидан бири ҳисобланади. У ресурслардан оқилона фойдаланиш, чиқиндиларни камайтириш ва экологик барқарорликни таъминлашга хизмат қилади. Циркуляр иқтисодиёт тамойилларини амалга ошириш нафақат атроф-муҳитни муҳофаза қилиш, балки иқтисодий самарадорликни ошириш ва янги инновацион имкониятларни яратиш учун ҳам



муҳим аҳамиятга эга. Келгусида иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши кўп жиҳатдан циркуляр иқтисодиёт тамойилларини давлат сиёсатлари, ишлаб чиқариш жараёнлари ва истеъмол маданиятига кенг жорий этишга боғлиқ бўлади.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Geiser K. Materials Matter: Toward a Sustainable Materials Policy. Cambridge: MIT Press, 2001.
2. Ellen MacArthur Foundation. Towards the Circular Economy. London, 2013.
3. Lacy P., Rutqvist J. Waste to Wealth: The Circular Economy Advantage. London: Palgrave Macmillan, 2015.



**PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING MINTAQAVIY
RIVOJLANISHI: NAZARIY ASOSLAR VA RAQAMLI
TRANSFORMATSIYA**

Atajanova Guli Maxsudbekovna

Urganch Ranch texnologiya universiteti Iqtisodiyot kafedrası
o‘qituvchisi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat

universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0004-0576-4082

atajanovaguli28@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada paxta-to‘qimachilik klasterlarini mintaqaviy rivojlantirishning nazariy asoslari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sanoat klaster nazariyasi, kumulyativ iqtisodiy rivojlanish nazariyasi, sanoat joylashuvi nazariyasi, barqaror rivojlanish nazariyasi, bilimga asoslangan klaster yondashuvi, yashil sanoat klasterlari konsepsiyasi va innovatsion klaster modeli kabi ilmiy qarashlar tizimli ravishda o‘rganildi. O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik sanoatining so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari hamda eksport ko‘rsatkichlari statistik ma’lumotlar asosida baholandi. Shuningdek, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirishda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlari klaster faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Klaster, paxta-to‘qimachilik sanoati, mintaqaviy rivojlanish, innovatsiya, barqaror rivojlanish, eksport salohiyati, sun’iy intellekt, raqamli texnologiyalar.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida tarmoqlararo integratsiya va innovatsion rivojlanish jarayonlari kuchayib borayotgan sharoitda klaster yondashuvi iqtisodiy rivojlanishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida keng qo‘llanilmoqda. Klaster tizimi hududiy ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash hamda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Bugungi kunda sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data), raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu texnologiyalar klaster tizimida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, logistika tizimlarini takomillashtirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu sababli paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish jarayonida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarning o‘rnini o‘rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Paxta-to‘qimachilik sanoati ko‘plab davlatlar iqtisodiyotida strategik tarmoq hisoblanadi. Ushbu tarmoqning samarali rivojlanishi xomashyo yetishtirishdan



tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan barcha bosqichlarning yagona tizimga birlashtirilishini talab etadi. Shu nuqtai nazardan, klaster yondashuvi paxta-to'qimachilik sanoatini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda paxta-to'qimachilik klasterlari tizimi joriy etilishi qishloq xo'jaligi va sanoat integratsiyasini kuchaytirish, mahsulotni chuqur qayta ishlash hamda eksport hajmini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu sababli paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirishning nazariy asoslarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Paxta-to'qimachilik klasterlarini rivojlantirish bir qator iqtisodiy nazariyalar bilan izohlanadi. Ushbu nazariyalar klaster tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini tushuntirib beradi.

Klaster konsepsiyasining dastlabki ilmiy asoslari sanoat ishlab chiqarishining hududiy jamlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon bir hududda joylashgan korxonalar o'rtasida resurslardan samarali foydalanish imkoniyatini yaratadi[1]. Shuningdek, hududiy iqtisodiy rivojlanishning kumulyativ xarakterga ega ekanligi, ya'ni iqtisodiy o'sishning bir hududda jamlanib borishi natijasida yangi investitsiyalar va ishlab chiqarish imkoniyatlari yuzaga kelishi ta'kidlangan[2].

Klaster nazariyasi M.Porter tomonidan 1990-yilda shakllantirilgan. Klaster nazariyasi mohiyatiga ko'ra, klaster bu bir-biriga yaqin joylashgan va o'zaro bog'liq bo'lgan korxonalar, yetkazib beruvchilar (xomashyo, material, uskunalar yoki xizmatlarni ta'minlovchi tashqi yoki ichki kompaniyalar), xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar) va tegishli institutlar tarmog'i bo'lib, ular birgalikda raqobatbardoshlikni oshiradi va hududiy iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadi. Paxta-to'qimachilik klasteri misolida yetkazib beruvchilar korxonalariga paxta urug'i va o'g'it yetkazib beruvchi fermerlar yoki korxonalar, mexanik uskunalar va texnologiyalarni ta'minlovchi kompaniyalar, energiya, suv va transport xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotlarni ko'rsatib o'tish mumkin[3].

Paxta-to'qimachilik klasteri -to'qimachilik korxonalarining faoliyati doirasida belgilangan tartibga asosan, ma'lum yer maydonlarida paxta xomashyosini mustaqil holda yetishtirib va yetishtirilgan xomashyoni chuqur qayta ishlashni o'zi ichiga oladi hamda o'z ishlab chiqarish infratuzilmasida amalga oshiriladi[4].

Sanoat joylashuvi nazariyasiga ko'ra, ishlab chiqarish korxonalarining optimal hududiy joylashuvi transport xarajatlarini kamaytirish hamda resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi[5]. Shu bilan birga, zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda klaster tizimining innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi roli alohida ta'kidlanadi. Sanoat klaster nazariyasiga ko'ra, korxonalar bir hududda joylashganida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, mehnat bozorida ixtisoslashuv kuchayadi hamda innovatsiyalar tezroq tarqaladi. Keyinchalik bu nazariya zamonaviy shaklda rivojlantirilib, klasterlar milliy va mintaqaviy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili sifatida baholandi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlari kumulyativ xarakterga ega bo'lib, iqtisodiy o'sish bir hududda jamlangan sari yangi investitsiyalar va ishlab chiqarish quvvatlari paydo bo'ladi. Bu jarayon klaster tizimining rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.



Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiyotda barqaror rivojlanish konsepsiyasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu konsepsiya iqtisodiy o‘shish bilan birga ekologik barqarorlik va ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlashni nazarda tutadi[6]. Paxta-to‘qimachilik sanoatida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish ham aynan shu yondashuv bilan bog‘liq. Zamonaviy klaster tadqiqotlarida bilimga asoslangan klaster modeli ham muhim o‘rin egallaydi. Bu modelda innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va texnologik bilimlar klaster rivojlanishining asosiy omili sifatida qaraladi.

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish tizimlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish jarayonlari avtomatlashtirilmoqda, ma‘lumotlar asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinmoqda hamda logistika tizimlari takomillashtirilmoqda.

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida raqamli transformatsiya quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- logistika va ta‘minot zanjirlarini raqamlashtirish;
- elektron savdo platformalarini rivojlantirish;
- ma‘lumotlar asosida boshqaruv tizimlarini joriy etish.

Bu jarayonlar klaster tizimining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Sun‘iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotning turli tarmoqlarida keng qo‘llanilmoqda. Paxta-to‘qimachilik klasterlarida ham ushbu texnologiyalarni qo‘llash ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi mumkin:

Qishloq xo‘jaligida. Sun‘iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari paxta yetishtirish jarayonida tuproq namligi, iqlim sharoiti va o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarida. Sun‘iy intellekt asosidagi avtomatlashtirilgan tizimlar mahsulot sifatini nazorat qilish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Logistika tizimida. Raqamli logistika tizimlari transport xarajatlarini kamaytirish hamda mahsulot yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Bozor tahlilida. Sun‘iy intellekt asosidagi tahliliy tizimlar eksport bozorlaridagi talab va taklifni prognoz qilish imkonini beradi.


Paxta-to‘qimachilik klasterlarining mintaqaviy rivojlanishga ta‘siri. Paxta-to‘qimachilik klasterlari hududiy iqtisodiy rivojlanishga bir qator ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Birinchidan, klaster tizimi ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash orqali resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Ikkinchidan, logistika xarajatlarini kamaytirish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi. Shuningdek, klaster tizimi ilmiy tadqiqot muassasalari va ishlab chiqarish korxonalarini o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa innovatsion texnologiyalarni joriy etish jarayonini tezlashtiradi. Bundan tashqari, zamonaviy klaster tizimlarida ekologik barqaror ishlab chiqarish jarayonlariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda. Yashil sanoat klasterlari konsepsiyasi ishlab chiqarishda energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish hamda atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirishni nazarda



tutadi. Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish ushbu jarayonlarning samaradorligini yanada oshiradi. Natijada ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, mahsulot sifati oshadi hamda eksport salohiyati kengayadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda paxta-to'qimachilik sanoati sezilarli darajada rivojlanmoqda. Xomashyo eksportidan ko'ra chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Quyida paxta ipi eksporti dinamikasi (2020–2024) bo'yicha Xitoy, Turkiya, Rossiya, Eron va Polsha davlatlari kesimida jadval ko'rinishida ma'lumotlar berildi (1-rasm).

1-rasm. Paxta ipi eksporti dinamikasi (2020–2024)



(davlatlar kesimida, ming tonna)²²

Paxta ipi eksporti dinamikasini 2020–2024-yillar kesimida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston paxta ipining asosiy eksport bozorlari sifatida Xitoy, Turkiya va Rossiya davlatlari yetakchi o'rin egallaydi. Xususan, Xitoyga eksport hajmi 2021-yilda eng yuqori darajaga – 231,5 ming tonnaga yetgan bo'lsa, keyingi yillarda ma'lum darajada qisqarish kuzatiladi. Turkiya bozori ham barqaror eksport yo'nalishlaridan biri bo'lib, 2021–2022-yillarda eksport hajmi 140 ming tonnadan ortiqni tashkil etgan. Rossiyaga eksport esa nisbatan barqaror bo'lib, 2022-yilda 111 ming tonnaga yetgan. Shu bilan birga, Eron va Polsha kabi davlatlarga eksport hajmi nisbatan kichik bo'lsa-da, ushbu bozorlarda ham barqaror savdo aloqalari shakllangan. Umuman olganda, 2023–2024-yillarda paxta ipi eksportining qisqarish

²² UN Comtrade <https://apps.fas.usda.gov/>
xalqaro savdo statistikasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



tendensiyasi kuzatiladi, bu esa mamlakatda paxta xomashyosini chuqur qayta ishlash darajasining oshishi hamda tayyor to‘qimachilik mahsulotlari eksportining ko‘payishi bilan izohlanadi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim omillaridan biridir. Klaster tizimi ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash orqali resurslardan samarali foydalanish hamda qo‘shimcha qiymat yaratish imkonini beradi. Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni joriy etish klaster tizimining samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi. Shu sababli kelgusida paxta-to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish strategiyalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Marshall A. Principles of Economics. Eighth Edition. Macmillan and Co 8th ed. London: 1890. – 731 p.;
2. Myrdal G. Economic Theory and Underdeveloped Regions. 1957.
3. M. E. Porter, Clusters and the new economics of competition, Harvard Business Review, vol. 76, no. 6, pp. 77 90, Nov.–Dec. 1998
4. Сагиева М.О. Комплексное исследование деятельности хлопково-текстильных кластеров Республики Каракалпакстан. Экономика центральной Азии. Т: 8; №: 4; октябрь–декабрь 2024. С. 289-304. DOI 10.18334/asia.8.4.122432
5. A. Weber, Theory of the Location of Industries. Chicago, IL, USA: The University of Chicago Press, 1929, 302 pp.
6. G.H. Brundtland, Our Common Future, Oxford University Press, 1987. ISBN: 019282080X. 420 pp.
7. <https://archive.org/details/ourcommonfuture00worl>
8. <https://archive.org/details/alfredweberstheo00webe>
9. <http://digamo.free.fr/marshall90.pdf>



СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ЎРНИ ВА АХАМИЯТИ

Иргашев Тўлқин Исергапович

Чирчиқ давлат педагогика Университети
Туризм кафедраси ўқитувчиси
Tulkinergashev931@gmail.com

А Н Н О Т А Ц И Я: Мазкур тадқиқотда Республика солиқ маъмурчилиги фаолиятини янада такомиллаштириш орқали тадқиқот давомида ишлаб чиқилган илмий таклиф ва амалий тавсиялар камерал солиқ текшируви ва риск анализларда смарт технологиялардан фойдаланиш тартибини такомиллаштириш, ушбу жараёни самарали амалга оширишда бошқа вазирлик ва идоралар билан электрон ҳамкорликни кучайтириш, маълумотларни таҳлил қилишда хорижда фойдаланилаётган имкониятларини маҳаллийлаштириш ва натижада солиққа оид ҳуқуқбузарликларни олдини олишда ва солиқ тўловчи томонидан мустақил равишда бартараф этилишини таъминлаш йўналишлари очиб берилган, ҳамда хуфийна иқтисодиётни камайтиришга хизмат қилади.

Калит сўзлар: *Камерал назорат, риск анализ, ахборот-коммуникация технологиялари, маълумотлар базаси, интеграция, автоматлаштириш, солиқ тўловчилар, давлат солиқ хизмати*

A B S T R A C T: In this study, the scientific proposals and practical recommendations developed during the study by further automating the activities of the state tax service bodies of the Republic, improving the procedure for using smart technologies in camera tax audits and risk analysis, strengthening electronic cooperation with other ministries and agencies in the effective implementation of this process, analyzing data abroad directions for localizing the used opportunities and as a result preventing tax offenses and ensuring their independent elimination by the taxpayer are revealed, and serve to reduce the secret economy.

Key words: *Camera control, risk analysis, information and communication technologies, database, integration, automation, taxpayers, state tax service*

Кириш

Мамлакат иқтисодиётини узоқ муддатли ривожлантириш борасида кенг кўламли ислохотлар амалга оширилаётган шароитда самарали солиққа тортиш тизими ва давлат солиқ хизмати органларининг уйғунлашган фаолияти алоҳида аҳамият касб этади.

Давлат солиқлар ёрдамида ўз бюджетини тўлдиришдан ташқари, иқтисодиётда таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, ЯИМни қайта тақсимлаш, талаб ва таклифни рағбатлаштириш каби функцияларни



базаради.²³

Жамиятда солиққа оид ҳуқуқбузарликларни содир этилиши – давлат томонидан юқорида санаб ўтилган функцияларни тўлиқ ва сифатли бажарилмаслигига олиб келади.²⁴

Бугунги кунда солиқлар йиғилувчанлигини ошириш учун коммерал назоратни амалга ошириш ва риск анализлар маълумотларини тўплайдиган базанинг такомиллашмаганлиги, давлат солиқ органларига мутасадди идора ва ташкилотлар томонидан ўз вақтида ва сифатли маълумотлар тақдим этилмаётганлиги, корхоналарнинг солиқ мажбуриятлари самарали усул орқали назорат қилинмаётганлиги, камерал солиқ текширувини оддий арифметик амаллар орқали амалга оширилиши оқибатида солиқ назорати кўпроқ инсон омилига боғлиқ бўлиб қолмоқда.

Асосий қисим.

Рақамли технологиялардан фойдаланиш дунё бўйлаб тез ва кенг тарқалмоқда. 2015 йилги маълумотларга кўра, сўнгги 10 йилликда дунё бўйича интернет фойдаланувчилари 3 баробарга кўпайиб 3.2 млрд.ни ташкил этган. Аксарият ривожланган ва ривожланаётган давлатлардаги фуқаролар мобил технологиялардан, улар орқали ўқув юрти, электр-энергия, ичимлик суви каби тизимларнинг электрон хизматларидан фойдаланиш имкониятига эга.²⁵

Бу шуни англатадики, ҳозирги кунда фуқаролар, хўжалик юритувчи субъектлар ва давлатлар ўртасида ўзаро электрон боғланиш имкониятига эга тармоқ мавжуд ва бу маълумотларни умумийлаштириш ва ўзаро фойдаланиш имкониятини яратади. Сўнгги 20 йилликда электрон маълумотларни тўплаш, сақлаш, қайта ишлаш, кузатиш ва тарқатиш бўйича сезиларли ривожланиш кузатилди. Ҳуқуматлар йилдан-йилга электронлашиб бормоқда.²⁶

Ўтказилган солиқ текширувлари натижалари.

Солиқ юки, қуйидаги тартибда аниқланади:

$$B = T \times 100\% / In$$

Бунда:

B — солиқ юки;

T — солиқ даври давомида тўланиши лозим бўлган солиқлар суммаси;

In — солиқ даврида товарларни (хизматларни) сотишдан тушган даромад.

Солиқ юки кўрсаткичи иқтисодий фаолият турлари бўйича аниқланади. Иқтисодий фаолият турлари бўйича ўртача солиқ юки кўрсаткичи Давлат солиқ

²³ Кодекс (2026) Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Солиқ кодекси. / Code (2026) Tax Code of the Republic of Uzbekistan in the new edition.

²⁴ Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-6098-сон.

²⁵ Қарор (2010) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги “Республика солиқ органлари тизимини янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-1257-сон. www.lex.uz

²⁶ Халқаро валюта фонди, 2019



қўмитасининг расмий веб-сайтида ҳар йили эълон қилиниб борилиши шарт.²⁷
Солиқ хавфи даражаси қуйидаги формула асосида ҳисобланади:

$$R = Sr / Sp \times 100\%$$

Бунда:


R — хавф даражаси (фоизда);

Sr — солиқ тўловчига берилган хавф баллари йиғиндиси;

Sp — хавф даражасини аниқлашда қўлланган потенциал солиқ хавфи баллари йиғиндиси.

Маълумотлар базаси структураси²⁸

1-расм



2020 йилга келиб эса солиқ Кодексининг янги таҳрири тасиқланиб солиқ тўловчиларнинг мажбуриятлари юзага келганлиги тўғрисида ахборот тақдим этадиган органлар ва ташкилотлар ҳамда уларнинг мажбуриятлари 133 ва 134-моддаларда белигилаб қўйилди.²⁹

Хулоса ва таклифлар.

Смарт технологиялар маълумотлар базасини тўлиқ, мукамал ва ўз вақтида шакллантирилишини таъминлаб бориш мақсадида Ўзбекистон Республикаси маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 215/3-моддасига тегишли ўзгартиришлар китирилгани холда маълумотларни тақдим этадиган корхона ва ташкилотлар раҳбарларининг масъулиятини солиқ агентлари масъулиятига тенглаштириш ҳамда жавобгарлигини ошириш, хато тақдим қилган, маълумотларни тўлиқ ёки умуман тақдим этмаган ташкилотларга нисбатан кескин чоралар

²⁷ Қарор (2012) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 30 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати идоралари ахборот-коммуникация тизими фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ1843-сон. www.lex.uz

²⁸ Солиқ қўмитаси маълумотлар базасининг тузилиш кўриниши

²⁹ Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси, 2020



кўрадиган механизмни назорат қилишни кучайтириш ва чора кўриш ваколатини юқори турувчи давлат органларига ўтказиш лозим.

Солиқ Кодексида назарда тутилган маълумотларни тижорат банклари томонидан Солиқ органининг банк мижозига нисбатан ахборот тақдим этиш тўғрисидаги сўровига биноан банк ёзма сўров олинган кундан эътиборан уч кун ичида тақдим этиш тартибига ўзгартириш киритган холда, Мазкур маълумотлар бевосита солиқ солиш билан боғлиқ, шунинг учун ушбу маълумотларни инсон омилисиз онлайн тақдим этилиши лозим деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар/Литература/Reference:

1. Кодекс (2026) Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Солиқ кодекси. / Code (2026) Tax Code of the Republic of Uzbekistan in the new edition.
2. Фармон (2020) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 30 октябрдаги “Яширин иқтисодиётни қисқартириш ва солиқ органлари фаолияти самарадорлигини ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида” ПФ-6098-сон. www.lex.uz
3. Қарор (2010) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 8 январдаги “Республика солиқ органлари тизимини янада модернизация қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-1257-сон. www.lex.uz
4. Қарор (2012) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 30 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси давлат солиқ хизмати идоралари ахборот-коммуникация тизими фаолияти самарадорлигини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ1843-сон. www.lex.uz



ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛИДАГИ
ТАДҚИҚОТЛАР

“SMART” METODI ASOSIDA “RELATION MA’LUMOTLAR OMBOR
HAQIDA TUSHUN” MAVZUSINI O’QITISH ISTIQBOLLARI

Abdusamatova Shaxodat Xojiakbar qizi¹,

Nurullayeva Nargiza A'zam qizi²

¹UNICON ilmiy xodimi,

Toshkent viloyat Bekobod shahar 1-son texnikumi.

maxsus umumkasbiy fanlar o'qituvchisi, email:

abdusamatovashahodat@gmail.com,

n9715751@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'lumotlar ombori fanida “Relation ma'lumotlar ombori haqida tushuncha” mavzusini zamonaviy metodlardan biri bo'lgan SMART metodi asosida o'qitishning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: relation ma'lumotlar ombori, metodo, omborni boshqarish, jadvallarni tartiblash

O'zbekistonda 2026-yil yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish va bandligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar yili deb e'lon qilindi. Prezident farmonlari va qarorlari bilan 598 ta texnikumda xalqaro standartlarni joriy etish, IT va texnik yo'nalishlarda malaka oshirish hamda "Ustoz" maxsus platformasi orqali yoshlarni o'qitish tizimi yo'lga qo'yilgan. Shu jumladan yoshlarni uzluksiz ta'lim dasturida ham maktab, kollej, texnikum yoki undan keying ta'lim jarayonlaridan ajralmagan holda zamonaviy kasblarga o'qitish bo'yicha ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan ushbu maqolada ma'lumotlar ombori fani dars mashg'ulotlarida Relation ma'lumotlar ombori haqida tushunchalar berish, yangi ombor yaratish, uni boshqarish va shu jumladan jadvallar ustida amallar bajarish haqida o'quvchilarda daslabki tushunchalar hosil qilish jarayonida SMART metodidan foydalanishning imkoniyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

SMART metodi — maqsadlarni aniq, o'lchanadigan, erishish mumkin bo'lgan, dolzarb va vaqt bo'yicha chegaralangan holda belgilash tizimi. U biznes va shaxsiy rivojlanishda samaradorlikni oshirish uchun qo'llaniladi. SMART — bu beshta mezonning qisqartmasi: Specific (Aniq), Measurable (O'lchanadigan), Achievable (Erishsa bo'ladigan), Relevant (Dolzarb), Time-bound (Muddati belgilangan) so'zlarining jamlanmasidir.

SMART metodining komponentlari:

S - Specific (Aniq): Maqsad aniq va tushunarli bo'lishi kerak. "Ko'proq sotish" emas, "A mahsulotini 50 dona sotish".

M - Measurable (O'lchanadigan): Natijani raqamlarda o'lchash imkoni bo'lishi lozim (pul, foiz, miqdor).



A - Achievable (Erishsa bo'ladigan): Maqsad resurslar va qobiliyatlardan kelib chiqib real bo'lishi kerak.

R - Relevant (Dolzarb/Mos): Maqsad umumiy maqsadlarga mos va muhim bo'lishi kerak.

T - Time-bound (Muddatli): Maqsad aniq muddatga ega bo'lishi shart (masalan, 1-aprelgacha)

“SMART” metodini dars mashg`ulotida qo`lash tartibi

1-qadam. Pedagog tomonidan o`rganilayotgan mavzu haqida dastlabki tushunchalar hosil qilish

2-qadam. Darsni yanada mustahkamlash hamda butun avditoriyani mavzu va uning tushunchalari bilan qamrab olish maqsadida ushbu maqolada keltirilgan “SMART” metoqidan foydalanamiz. Buning uchun talabalarga bu metodning boorish jarayoni, o`quvchilar bajarishi kerak bo`lgan vazifalar va boshqalar ularga tushuntiriladi. Masalan yuqorida keltirilgani kabi SMART so`zining har bitta harfiga mavzu yuzasidan kerakli ma`lumotlarni aniq va qisqa qilib yozish talab etiladi. Buning uchun har bir guruhga 1-jadvalda ko`rsatilgani kabi jadval varaqasi beriladi. O`quvchilardan ushbu jadvalga mavzudan kelib chiqan holda quyidagi savollarga javob yozishlari talab etiladi

S - Specific (Aniq): nima uchun bizga ma`lumotlar ombori kerak

M - Measurable (O'lchanadigan): Samaradorlik qanchalik yaxshilanadi

A - Achievable (Erishsa bo'ladigan): Ombor yaratishda qanday natijalarga erishsa bo`ladi.

R - Relevant (Dolzarb/Mos):Jadvallarni moslashtirish va integratsiyalash qanday amalga oshiriladi

T - Time-bound (Muddatli): Qancha vaqtda Yangi ombor yaratish va uni tahrirlashga qancha vaqt talab etiladi.

1-jadval

S	M	A	R	T

3-qadam Talabalarni guruhlarga bolib metodni bajarish jarayoniga kirishadilar va ushbu jarayon pedagog o`qituvchi tomonidan nazorat qilib boriladi.

4-qadam. Talabalar berilgan na`muna bo`yicha metodni ishlab tugadganlaridan so`ng barcha natijalar birlashtiriladi va umumiy xulosa yasaladi va medorni ishlash davomida eng faol qatnashgan guruh va talabalar rag`batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O`ZBEKISTON — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo`llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to`g`risida” farmoni
2. Delov T.E., N.I. Zoirov Methodical instructions on practical training on the subject "Technologies and tools of distance learning", published in the publishing house "CONTACT", 2015.



O'QUVCHLARINING HAYOTIY TAJRIBASIGA ASOSLANGAN TOPSHIRIQLAR ORQALI O'QISH SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Xatamova Munisa Mamadulla qizi
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda hayotiy tajribaga asoslangan topshiriqlarning ahamiyati tahlil qilinadi. O'qish savodxonligining mazmuni, uning tanqidiy fikrlash va funksional savodxonlik bilan bog'liqligi ochib berilgan. Maqolada PISA, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining hayotiy kontekstga asoslangan topshiriqlari misolida zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni ishlab chiqishning metodik prinsiplari, didaktik ahamiyati hamda konstruktivistik yondashuv asoslari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, hayotiy tajriba, kontekstli topshiriq, funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash, PISA, PIRLS, konstruktivistik yondashuv, didaktik tamoyillar, XXI asr ko'nikmalari.

Аннотация: В статье анализируется значение заданий, основанных на жизненном опыте учащихся, в развитии читательской грамотности. Раскрывается сущность читательской грамотности, её связь с критическим мышлением и функциональной грамотностью. На примере международных оценочных программ PISA, PIRLS и TIMSS рассматриваются современные подходы, основанные на жизненном контексте. Также освещаются методические принципы разработки контекстных заданий, их дидактическая значимость и теоретические основы конструктивистского подхода.

Ключевые слова: читательская грамотность, жизненный опыт, контекстные задания, функциональная грамотность, критическое мышление, PISA, PIRLS, конструктивистский подход, дидактические принципы, навыки XXI века.

Abstract: This article examines the role of life-experience-based tasks in developing students' reading literacy. The concept of reading literacy and its connection with critical thinking and functional literacy are discussed. Modern approaches are highlighted through examples from international assessment programs such as PISA, PIRLS, and TIMSS, which emphasize real-life contexts. The methodological principles for designing contextual tasks, their didactic significance, and the theoretical foundations of the constructivist approach are also analyzed.

Keywords: reading literacy, life experience, contextual tasks, functional literacy, critical thinking, PISA, PIRLS, constructivist approach, didactic principles, 21st-century skills.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida o'quvchining hayotiy tajribasi ta'lim mazmunini



shakllantirishda va metodik yondashuvlarni belgilashda muhim mezonlardan biri sifatida qaralmoqda. Aynan o‘quvchining o‘z hayotidan olgan bilimi, kundalik faoliyatdagi tajribalari, maktab, oila, jamiyatdagi roli va u bilan bog‘liq holatlar uning bilimlarni qabul qilishi, anglash darajasini belgilaydi.

O‘qish savodxonligi – ya’ni matn mazmunini anglash ya’ni asosiy g‘oyani ajratib olish, muallifning pozitsiyasini tushunish va unga baho bera olish qobiliyatlari – ona tili va adabiyot ta’limining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu bois bu fanlar orqali o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va ijtimoiy jarayonlarga ongli yondashuv kabi XXI asrga xos ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa ularning nafaqat o‘quv jarayonida, balki kundalik hayotda ham faol, savodli va ongli ishtirokchi sifatida kamol topishini ta’minlaydi.

Demak, bu savodxonlik turi o‘z-o‘zidan o‘quvchining mavjud hayotiy tajribasiga tayanishni talab qiladi. Masalan, o‘quvchi uchun tanish bo‘lgan “avtobus jadvali”, “do‘kon cheki”, “reklama matni”, “maktabdagi e’lonlar”, “oila byudjeti” kabi holatlar asosida tuzilgan topshiriqlar uning mavzuga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, tahliliy va tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Bunday topshiriqlar o‘quvchini: real hayotdagi holatlarni tahlil qilishga; axborot izlash va uni qayta ishlashga; o‘z fikrini asoslab ifodalashga; ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo‘lishga o‘rgatadi.

Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari – xususan, PISA (Programme for International Student Assessment), PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) va TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) kabi yirik tadqiqotlar ham o‘quvchining o‘qish savodxonligini hayotiy kontekst orqali baholashga asoslanadi. Bu dasturlarda o‘quvchilarga hayotda duch keladigan real vaziyatlardan olingan matnlar, grafikalar, jadval va e’lonlar asosida savollar beriladi. Ularda nafaqat matnni tushunish, balki u orqali muammo yechish, qaror qabul qilish, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlab topish va baholash kabi ko‘nikmalar tekshiriladi.

PISA dasturidagi savollar o‘quvchining kundalik hayotida uchraydigan holatlarni aks ettirgan holda tuziladi – masalan, jamoat transporti jadvali, oziq-ovqat mahsulotlarining yorlig‘i, infografik e’lon, maktab ichki qoidalari yoki atrof-muhitga oid muammolar. Bu esa o‘quvchini bilimdan foydalanishga, hayotiy qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi.

Didaktik jihatdan hayotiy vaziyatlar asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar ta’lim jarayonining quyidagi tamoyillariga mos keladi: shaxsga yo‘naltirilganlik; mazmun va shakl birligi; faoliyatga asoslanganlik; mustaqil fikrlashga yo‘naltirish.

Hayotiy vaziyatlar o‘quvchi ongida mustahkam joylashgan bilimlar asosida yangi bilimlarni bog‘lashga yordam beradi. Bunday kontekstli topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘zlari ko‘rgan, boshdan kechirgan yoki ishtirok etgan holatlar asosida javob beradi, muhokama qiladi, savol beradi va tahlil qiladi. Bu esa bilimlarning chuqurroq va uzoq muddatli xotirada saqlanishiga xizmat qiladi. Misol uchun, 6-sinf ona tili darsligida berilgan “Do‘kon cheki” asosida tuzilgan topshiriqlar o‘quvchini hisob-kitob qilishga, narxlarni tahlil qilishga, iste’mol madaniyati haqida fikr yuritishga undaydi. Yoki “Sinfdozingiz maktabga kechikdi...” kabi topshiriq o‘quvchiga sabab-oqibat tahlili,



muloqot madaniyati va huquqiy tushunchalarni o'rgatadi.

Hayotiy kontekstga ega topshiriqlarning afzalliklari quyidagilardan iborat: o'quvchini faol fikrlashga undaydi; savol-javoblar orqali tafakkurni chuqurlashtiradi; muammo asosida qaror chiqarishga yo'naltiradi; kontekstual tahlilga asoslangan bilimni shakllantiradi.

Hayotiy vaziyatlar asosida tuziladigan topshiriqlar quyidagi metodik prinsiplar asosida shakllantirilishi lozim:

1. Mavzuga mos kontekst tanlash: Topshiriq o'quvchi o'rganayotgan mavzuni real hayotdagi holat bilan bog'lash. Bu orqali mavzuning ahamiyati ortadi.
2. O'quvchi uchun tanish holat yaratish: O'quvchiga begona bo'lmagan, kundalik hayotda uchraydigan holatlar tanlanadi. Masalan: maktabdagi tartib, ovqatlanish, transport, oila, telefon foydalanish, sog'liq, chiqindi tashlash.
3. Muammo asosida fikrlashga undash: Topshiriqda muammo yoki vaziyat bo'lishi kerak. Bu o'quvchini tahlil qilishga, muqobil fikr bildirishga undaydi. Har bir vaziyat tanqidiy fikrlashni talab qilishi kerak.
4. Javobning bir nechta yo'li mavjud bo'lishi: O'quvchi erkin fikr bildirishi, turli qarashlarni asoslab ko'rsatishi uchun ochiq savollar asosida topshiriq tuzish lozim. Yagona to'g'ri javobdan ko'ra, asoslangan yondashuvlar afzal.
5. Fikr yuritishga undaydigan savollar berish: Fikr yuritishga asoslangan, "nega?", "qanday?", "agar... bo'lsa nima bo'ladi?" kabi savollar topshiriqda ko'p uchrashi kerak. Bu savollar o'quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi.
6. Vizual va multimodal elementlardan foydalanish: Diagramma, sxema, grafik, rasm, infografika keltirilgan topshiriqlar o'quvchining ko'rish orqali o'rganish qobiliyatini faollashtiradi. Bu esa o'quv materialining yanada esda qolishini ta'minlaydi.

Pedagogik psixologiya sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quv faoliyati o'quvchining ilgari orttirgan tajribalari bilan mantiqan bog'langan taqdirdagina mazmunli va barqaror o'zlashtirish sodir bo'ladi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilimlar tashqi muhitdan o'quvchiga tayyor holatda uzatilmasdan, balki o'quvchining ichki fikrlash jarayonida faol konstruktsiya qilinadi.

Milliy pedagogik tafakkurda ham bu g'oya o'z ifodasini topgan. Jumladan, pedagog olim A.A'zamov fikricha, "ta'lim o'quvchining shaxsiy faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan bo'lsa, u o'zining hayotiy ehtiyojlari va manfaatlarini bilim orqali anglaydi va boshqaradi". Bu fikr o'quvchining tajribasiga tayanadigan ta'lim modelining dolzarbligini ko'rsatadi. Professor M.Q.Xolboyev o'z tadqiqotlarida o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish uchun darslarni real hayotdagi vaziyatlarga yaqinlashtirish zarurligini urg'ulaydi. Uning ta'kidlashicha, "konkret hayotiy misollar asosida tuzilgan topshiriqlar o'quvchini fikrlashga, izlanishga va qaror qabul qilishga o'rgatadi". Pedagogika fanlari doktori N.Yo'ldoshev esa metodik yondashuvni aniqlashtirib, shunday deydi: "Agar darslikdagi topshiriq o'quvchining shaxsiy hayot tajribasi bilan kesishsa, bu bilimning o'zlashtirilishini kuchaytiradi, uni hayotda tatbiq etishga xizmat qiladi".

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoniga hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni integratsiyalash – nafaqat nazariy asosga, balki xalqaro amaliy tajribaga va milliy



pedagogik tafakkurga ham tayanadi. Bu yo‘nalishdagi metodik yondashuvlar nafaqat o‘quvchi faoliyatini faollashtiradi, balki ta‘limning kognitiv, metakognitiv va sotsial komponentlarini uyg‘unlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A‘zamov A. (2020). *O‘quvchining shaxsiy faolligini rivojlantirish metodikasi*. - Toshkent: Fan va texnologiya. – 212 b.
2. Yo‘ldoshev N. (2018). *Zamonaviy ta‘limda integratsiyalashgan yondashuvlar*. - Toshkent: Iste‘dod. – 176 b.
3. Azizova M., & Qurbonova S. (2022). Ona tili darslarida PISA topshiriqlari asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish. *Metodik maslahat*, №3, 30–36-betlar.
4. Mavlonova R.X. (2019). *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. Toshkent: TDPU nashriyoti. – 248 b.
5. Urinbayeva D. Funktsional savodxonlikning asosi o‘qish savodxonligidir. “*Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi*” ilmiy-metodik jurnali. - Toshkent, 2022. aprel soni.



**“KELISHIK QO`SHIMCHALARI VA ULARNING SHAKLLARI”
MAVZUSINI “KAMALAK” METODI ASOSIDA TUSHUNTIRISHNING
ISTIQBOLLARI**

Anorboyeva Vazira Abditolibovna
Toshkent viloyati Parkent tumani
58-maktab onatili va adabiyot o`qituvchisi,
email: anarboyevavazira@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fani dars mashg`ulotida kelishik qo`shimchalari va ularning shakllari mavzusini zamonaviy metodlardan biri bo`lgan “Kamalak” metodi orqali o`qitishning imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so`zlar: kelishik qo`shimchalar, bosh kelishik, o`rinpayt kelishigi, tushum kelishigi, jo`nalish kelishigi, o`rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi

O`zbekistonda ona tili darslarini samarali tashkil etish, davlat tilini rivojlantirish va o`qitish sifatini oshirishga qaratilgan qator huquqiy hujjatlar mavjud. Asosiy e`tibor ta`lim tizimida zamonaviy metodikalarni qo'llashga qaratilgan. Jumladan muhtaram prezedentimizning shaxsan tashbuslar bilan quyidagi qonun normativ hujjatlari ishlab chiqildi:

- «Davlat tili haqida»gi Qonun (yangi tahriri): O`zbekistonda o`zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi va ta`lim muassasalarida ta`lim ona tilida olib borilishini kafolatlaydi.
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasida o`zbek tilini rivojlantirish va til masalalarini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi Farmoni (PF-6032, 2020-yil 24-iyul): Ta`lim muassasalarida ona tili o`qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish, o`qitish metodikasini takomillashtirish vazifalarini belgilaydi.
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Lotin yozuviga asoslangan o`zbek alifbosiga bosqichma-bosqich to`liq o`tishni ta`minlash chora-tadbirlari to`g`risida»gi qarori: Darsliklar va o`quv qo`llanmalarini to`liq lotin yozuviga o`tkazish orqali savodxonlikni oshirishga qaratilgan.
- Xalq ta`limi vazirligining (hozirgi Maktabgacha va maktab ta`limi vazirligi) o`quv dasturlari va metodik tavsiyalari: Ona tili darslarini kommunikativ (muloqot) va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, interaktiv metodlarni qo`llash bo`yicha ko`rsatmalar beradi.

Ona tili fani dars mashg`ulotlarni o`quvchilar uchun qiziqarli va mazmunli tashkil etish maqsadida o`qituvchi peagoglar tomonidan turli metod va texnologiyalardan keng qo`llanilib kelinmoqda xusun ushbu maqolada zamonaviy metodlardan biri bo`lgan “Kamalak” metodidan dars mashg`ulotlarida foydalanish tasnifi keltirilgan.

“Kamalak” metodidan dars mashg`ulotida qo`llash tartibi



1-qadam. Pedagog tomonidan o'rganilayotgan mavzu haqida dastlabki tushunchalar hosil qilish

2-qadam. Darsni yanada mustahkamlash hamda butun avditoriyani mavzu va uning tushunchalari bilan qamrab olish maqsadida ushbu maqolada keltirilgan “Kamalak” metoqidan foydalanamiz. Buning uchun talabalarga bu metodning borish jarayoni, o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan vazifalar va boshqalar ularga tushuntiriladi. Masalan ushbu metodka o'quvchilar kamalakning har bitta rangiga kelishik qo'shimchalari, ularning tasnifi va shunga misollar yozib 1-rasmda berilgan javalni to'ldirishlar kerak bo'lad. shun ham aytib o'tish kerakki har bir ranga iloji boricha ko'proq va to'g'ri ma'lumot yozilsa kamalak shuncha yorqin bo'lib porlaydi, bu borada o'qituvchi o'quvchilar ongida to'g'ri tushunchalar hosil qila olishi va yo'naltira olishi lozim bo'ladi.

1-jadval

Bosh kelishik	Qaratqich kelishik	Tushum kelishigi	Joo'nalish kelishigi	O'rin-payt kelishigi	Chiqish kelishigi

3-qadam. O'quvchilar guruhlariga bo'lingan holatda metodni ishlash jarayoniga kirishadilar va ushbu jarayon o'qituvchi pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. bu jarayonda bir biriga o'xshash yoki teng ma'noli fikirlar, takroriy so'zlar yoki gaplar yozish taqiqlanadi va inobatga olinmaydi, bu haqida o'quvchilar oldindan ogohlantirib qo'yilishi lozim bo'ladi.

4-qadam. Kamalak metodi yakunida qaysi guruh a'zolar tomonidan yaratilgan kamalak ko'proq porlasa yani eng ko'p ma'lumotlar yozilgan, misollar bilan izohlangan va to'g'ri bo'lsa ushbu guruh a'zolar taqdirlanadilar

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilini rivojlantirish va til masalalarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (PF-6032, 2020-yil 24-iyul)
2. Turdiyeva G. T. “Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish” Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasida ona tili va adabiyotfani o'qituvchisi
3. Yeshonkulova Gulbahor Abdualikovna, Baratova Munira Tursunaliyevna “Ona tili darslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” Toshkent 2022 -yil



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INKLUZIV TA'LIMNING O'RNI

Umirzoqova Jumagul Maxmudjonovna

Namangan viloyati Norin tuman

19-umumta'lim maktab

Boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati va o'rni yoritilgan. Inklyuziv ta'limda barcha o'quvchilarning teng ishtirokini ta'minlash, ularning individual imkoniyatlarini hisobga olish hamda dars jarayonini samarali tashkil etishda interfaol metodlarning roli muhim ekanligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, interfaol metodlar orqali o'quvchilarda hamkorlik, mustaqil fikrlash va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, ta'lim samaradorligi, o'quvchi faolligi, hamkorlik, individual yondashuv, pedagogik texnologiyalar.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim davrlardan biridir. Shu sababli bu bosqichda barcha bolalarga teng ta'lim imkoniyatlarini yaratish juda muhim hisoblanadi. Inkluziv ta'lim — bu sog'lom hamda turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarning birgalikda ta'lim olishini ta'minlaydigan tizimdir. U har bir bolaning individual qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Boshlang'ich sinflarda inkluziv ta'limning o'rni juda katta. Chunki aynan shu davrda bolalarda jamiyatga moslashish, o'zaro hurmat, hamkorlik va bag'rikenglik kabi ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Inkluziv muhitda o'qiyotgan o'quvchilar bir-birining farqlari va imkoniyatlarini tushunishni o'rganadi. Natijada bolalarda mehr-shafqat, yordam berish va birgalikda ishlash kabi ijobiy fazilatlar rivojlanadi.

Bundan tashqari, inkluziv ta'lim alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilar uchun ham katta imkoniyat yaratadi. Ular tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olib, ijtimoiy muhitga tezroq moslashadi, o'ziga bo'lgan ishonchi ortadi va bilim olishga motivatsiyasi kuchayadi. O'qituvchi esa dars jarayonida turli interaktiv metodlar, o'yinlar va moslashtirilgan topshiriqlardan foydalanib, har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlaydi.

Shuningdek, inkluziv ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik va insonparvarlik kabi qadriyatlarni shakllantiradi. Bu esa kelajakda jamiyatda tenglik va o'zaro hurmatga asoslangan muhitni yaratishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda inkluziv ta'lim barcha bolalarning teng huquqli ta'lim olishiga, ijtimoiy moslashuviga hamda shaxs sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Shu sababli ta'lim jarayonida inkluziv yondashuvni keng qo'llash zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim jarayonida barcha o'quvchilarning teng va faol ishtirokini ta'minlash muhim hisoblanadi. Shu



sababli dars jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlardan, ayniqsa interfaol metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Interfaol metodlar o'quvchilarni faollikka undaydi, ularning fikrlashini rivojlantiradi hamda dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Inklyuziv ta'limda interfaol metodlarning asosiy vazifalaridan biri — har bir o'quvchining imkoniyatini hisobga olgan holda ta'lim jarayoniga jalb etishdir. Turli ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilar guruhli ishlash, o'yinlar, muammoli vaziyatlar yoki muhokamalar orqali o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida hamkorlik muhitini yaratadi. Interaktiv metodlar orqali o'quvchilar birgalikda ishlashni, fikr almashishni va muammoni birgalikda hal qilishni o'rganadilar. Bu esa inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan o'zaro hurmat va bag'rikenglikni shakllantirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, interfaol metodlar o'qituvchiga ham har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojini aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi turli topshiriqlarni moslashtirish orqali barcha o'quvchilar uchun qulay o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limda interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, hamkorlikni rivojlantiradi va har bir bolaning ta'lim jarayonida

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2021.
3. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. – Paris, 2005.
4. Ainscow, M., Booth, T. Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. – Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011.
5. Xoliqov A. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2011



OQITIWSHILARDA KREATIVLIK SIPATLARDIŃ RAWAJLANIWINA TÁSIR ETIWSHI FAKTORLAR HÁM ONIŃ PSIXOLOGIYALIQ PEDAGOGIKALIQ ÓZGESHELIKLERI

Maxsetova V.A.

A'jiniyaz atındag'ı Nókis mámleketlik
pedagogikalıq instituti magistranti

Annotaciya: Usı teziste muğallimlerde kreativ (dóretiwshilik) sıpatlardı rawajlandırıwǵa tásir yetiwshi tiykarǵı faktorlar hám de usı processtiń psixologiyalıq-pedagogikalıq ózgeshelikleri kórsetiledi. Izertlewde oqıtıwshı shaxsınıń kreativlik potencialın qáliplestiriw, bilimlendiriw ortalıǵınıń roli, kásiplik motivaciya, refleksiya hám innovaciyalıq jumıstıń áhmieti ilimiy-teoriyalıq jaqtan tallanadı.

Tayanish sózler: kreativlik, dóretiwshilik pikirlew, pedagogikalıq kompetenciya, kásiplik motivaciya, refleksiya, innovaciyalıq iskerlik, bilimlendiriw ortalıǵı.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНЫХ КАЧЕСТВ У УЧИТЕЛЕЙ И ЕГО ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ.

Аннотация: В данном тезисе показаны основные факторы, влияющие на развитие креативных (творческих) качеств у учителей, а также психолого-педагогические особенности этого процесса. В исследовании с научно-теоретической точки зрения анализируется формирование креативного потенциала личности учителя, роль образовательной среды, значение профессиональной мотивации, рефлексии и инновационной деятельности.

Ключевые слова: креативность, творческое мышление, педагогическая компетентность, профессиональная мотивация, рефлексия, инновационная деятельность, образовательная среда.

FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF CREATIVE QUALITIES IN TEACHERS AND ITS PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS.

Annotation: This thesis highlights the main factors influencing the development of creative qualities in teachers, as well as the psychological and pedagogical aspects of this process. The study analyzes from a scientific and theoretical point of view the formation of the creative potential of the teacher's personality, the role of the educational environment, professional motivation, reflection, and the importance of innovative activity.



Keywords: creativity, creative thinking, pedagogical competence, professional motivation, reflection, innovative activity, educational environment.

Házirgi globalisasiw hám sanlı texnologiyalar jedel rawajlanıp atırǵan dáwirde bilimlendiriw sistemasınıń aldına qoyılıp atırǵan tiykarǵı wazıypalardan biri - dóretiwshi, erkin pikirley alatuǵın, mashqalalı jaǵdaylarda ádettegidey emes sheshim taba alatuǵın pedagog kadrlardı tayarlaw bolıp tabıladı. Zamanagóy mektep hám joqarı bilimlendiriw mákemelerinde muǵallimniń tek bilim beriwshi emes, al bilimlendiriw procesiniń dóretiwshi shólkemlestiriwshisi sıpatında jumıs alıp barıwı talap etilmekte. Kreativlik túsinigi ilimiy ádebiyatlarda shaxstıń jańalıq jaratıwǵa, mashqalaǵa ádettegidey emes qatnas jasawǵa hám beyimlesiwsheń pikirlewge bolǵan qábleti sıpatında túsiniriledi. Bul túsiniktiń teoriyalıq tiykarları dóretiwshilik pikirlewdiń strukturasını izertlegen Joy Paul Guilford hám kreativ pikirlewdi ólshew hám rawajlandırıw mashqalaları menen shuǵıllanǵan Ellis Paul Torrance izertlewlerinde keńnen sawlelendirilgen.

Oqıtıwshılarda kreativlik sıpatlardı rawajlandırıw bolsa bilimlendiriw nátiyjeliligin arttırıw, oqıwshılardıń erkin pikirlewı hám innovaciyalıq oy-pikiran qalıplestiriwde áhmietli faktor esaplanadı.

Oqıtıwshılarda kreativlik sıpatlardıń qalıplesiwi hám rawajlanıwı bir qatar sociallıq, psixologiyalıq hám pedagogikalıq faktorlar menen belgilenedi.

Birinshi faktor- bilimlendiriw ortalıǵınıń dóretiwshilikke baǵdarlanǵanlıǵı. Erkin pikir alıwǵa imkan beretuǵın, baslamanı qollap-quwatlaytuǵın, qátege unamlı múnásibette bolatuǵın ortalıq muǵallimniń dóretiwshilik belsendiligin asıradı.

Ekinshi áhmietli faktor - kásiplik motivaciya. Oqıtıwshınıń kásipke bolǵan unamlı múnásibeti, óz ústinde islewge umtılwı hám óz jumısınan qanaatlanıw sezimi kreativliktiń rawajlanıwına tikkeley tásir kórsetedi.

Úshinshi faktor - kásiplik refleksiya hám ózin-ózi rawajlandırıw zárúrligi. Oqıtıwshı óz sabaqların talqılaw, pedagogikalıq jumısındaǵı kemshilik hám jetiskenliklerdi anıqlaw arqalı dóretiwshilik sheshimler islep shıǵıwǵa háreket etedi.

Tórtinshi faktor - innovaciyalıq pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıw dárejesi. Mashqalalı bilimlendiriw, joybar tiykarında oqıtıw, integraciyalıq qatnas hám sanlı qurallardan paydalanıw oqıtıwshınıń dóretiwshilik imkaniyatların keńeytedi.

Besinshi faktor - sociallıq-psixologiyalıq faktorlar, yaǵnıy jámáatte salamat ortalıqtıń bar ekenligi, bassılıqtıń qollap-quwatlawı, kásiplerler menen birge islesiw imkaniyatları da kreativlik sıpatlardıń rawajlanıwına xızmet etedi.

Oqıtıwshınıń kreativligi, bárinen burnı, shaxstıń psixologiyalıq ózgeshelikleri menen baylanıslı. Dóretiwshilik iskerlik tómendegi tiykarǵı psixologiyalıq komponentlerge tayanıp rawajlanadı: mashqalaǵa sezgirlik; beyimlesiwsheń hám divergent pikirlew; joqarı dárejedegi ishki motivaciya; ózine isenim hám gárezsizlik; riskke beyimlilik hám jańalıqqa ashıqlıq.

Sonday- aq, kreativliktiń rawajlanıwında shaxstıń emocionallıq jaǵdayı, stresske shıdamlılıǵı hám óz jumısınan qanaatlanıw dárejesi áhmietli orın ıleydi. Unamlı emocional fon dóretiwshilik belsendilikti kúsheytedi hám pedagogikalıq proceste jańasha qatnaslardıń payda bolıwına imkaniyat jaratadı.



Oqıtıwshınıń dóretiwshilik pikirlewi sociallıq ortalıq hám qarım-qatnas procesinde qalıplesiwin tiykarlap bergen ilimiy jantasıwlardan biri mádeniy-tariyxıy teoriya esaplanadı. Bul teoriyanıń tiykarın salıwshı bolǵan Lev Vıgotskiy bilimlendiriw hám rawajlanıw arasındaǵı úzliksiz baylanıstı tiykarlap, shaxstıń dóretiwshilik imkaniyatları birge islesiwdegi jumısta kórinetuǵının atap ótedi.

